**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**
**FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI**

**«TASDIQLAYMAN»**
**Sog‘liqni saqlash vazirligi**
**Ilmiy texnik kengashi raisi**
**__________Sh.K.Atadjanov**
**«____» __________ 2024 y.**

**XAYDAROVA BUZULAYHO AXMEDOVNA**

# SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TEXNOLOGIYALARDAN VA USULLARDAN FOYDALANIB HAMSHIRALIK ISHI FANINI O‘QITISH MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI

**(Monografiya)**

**Farg‘ona 2024**

UO‘K: UDK 37.091.3:614.253.5

**Haydarova B.A.//**Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalardan va usullardan foydalanib hamshiralik ishi fanini o‘qitish mazmunini takomillashtirish texnologiyasi// Monografiya **-Farg‘ona: 2024. -136 bet**

Ushbu monografiyada Hamshiralik ishi fanini o‘qitish mazmunini takomillashtirishda shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar va zamonaviy usullar, ta’lim jarayonida zamonaviy darslarni tashkil etish, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali Hamshiralik ishi fanining o‘qitishning pedagogik-psixologik asoslari va didaktik asoslari, tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida metodik ta’minotini takomillashtirish, darsning pedagogik psixologik xarakteristikalari, talabalarni individual qobiliyatlarini rivojlantirish, Hamshiralik ishi fanini o‘qitish samaradorligini aniqlash bo‘yicha tajriba sinov ishlarini tashkil etish va taxlil etish bo‘yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar haqida so‘z yuritilgan.

Mazkur monografiya uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida faoliyat ko‘rsatayotgan pedagoglar, ilmiy tadqiqotchilar foydalanishi uchun mo‘ljallangan.

**TAQRIZCHILAR:**

**I.X.Iminaxunova** -Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti O‘zbek tili va xorijiy tillar kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari doktori (DSc)

**T.A. Egamberdieva** - Pedagogika fanlari doktori FARDU “O‘zbekiston tarixi” kafedrasi professori

# KIRISH

Dunyoda rivojlangan mamlakatlar tibbiy ta’lim tizimida bo‘lajak tibbiyot xodimlarining kasbiy va professional tafakkurini rivojlantirishda hamshiralik ishi bilan bog‘liq bo`lgan ilmiy tadqiqotlar va mexanizmlar “Hamshiralik ishini kasbiy tartibga solish bo‘yicha xalqaro Nizom”da (1985 yil Jeneva) belgilangan yo`nalishlar doirasida amalga oshiriladigan islohotlarni belgilash zaruratini ko‘rsatmoqda.

Jahon ta’lim muassasalarida hamshiralik ishi bo‘yicha shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari o‘quv jarayoniga tatbiq etilgan bo‘lib, jumladan, AQSHning “Person centered resource education” markazida hamshiralik ishini o`qitish bo`yicha ta’lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish bo`yicha dastur ishlab chiqilgan. Shuningdek, Buyuk Britaniyaning “International college of person centered medicine” nomli kollejida shaxsga yo`naltirilgan ta`lim orqali hamshiralik ishi fani yutuqlarini o‘quv jarayoniga singdirib borish, yirik loyihalarni ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida amalga oshirish bo‘yicha markaz faoliyat yuritmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistonda tibbiy ta’lim tizimini tubdan isloh qilishga qaratilgan islohotlar, jumladan, Sog‘liqni saqlash tizimida hamshiralik ishi sohasi rivojlanishining yaqin va uzoq muddatli istiqbollarini belgilash, ushbu yo‘nalishda tibbiy xizmatlar hajmini oshirish va sifatini tubdan yaxshilash, soha xodimlarining bilimini oshirish, ta’lim va ilm-fanni rivojlantirishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017-yil 5-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida tibbiy ta’lim tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2956-sonli qarori, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 6-maydagi PQ-4310-sonli «Tibbiyot va farmatsevtika ta’limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari

to‘g‘risida»gi Qarori, 2020-yil 7-apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4666-sonli qarori, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 - sentyabrdagi 578-son “O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida "Hamshiralik ishi" faoliyatini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Qarorlar hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy – huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

# I-BOB. SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM ORQALI HAMSHIRALIK ISHI FANINI O‘QITISHNING METODIK TA’MINOTINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

## 1.1.§. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali Hamshiralik ishi fanining o‘qitishning pedagogik-psixologik asoslari

So‘ngi yillarda mamlakatimizda tibbiy ta’lim tizimini tubdan isloh qilishga katta e’tibor qaratilmoqda, jumladan, tibbiy oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida mehnat bozorining o‘zgargan talablariga mos hamshiralrni tayyorlash muhim vazifa hisoblanadi. Shu bilan birga, oliy tibbiy ta’lim tizimi nafaqat o‘zining o‘ziga xos xususiyatlarini saqlab qolish va rivojlantirish, balki mamlakatning yuqori malakali tibbiyot mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish imkonini beradigan printsipial yangi samaradorlik darajasiga erishishni ham talab etadi.

Jahon tibbiy pedagogikasida bugungi kun oldida turgan muhim masalalardan biri nafaqat bilimli, balki ijodiy tafakkur sohibi bo‘lgan shaxsni shakllantirish, uning yo‘l, usul va vositalarini izlash asosiy masalalardan hisoblanadi. Ushbu masalani ijobiy hal etishda tibbiy ta’lim tizimi o‘rni kelganda an’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiruvchi, talabalarni mustaqil fikrlashga undovchi interfaol metodlar bilan boyitish lozim bo‘ladi.

Shundan kelib chiqib, ta’kidlash mumkinki, har tomonlama barkamol hamshirani tarbiyalash jarayoni - asosiy pedagogik–psixologik omillar sanaladi, ya’ni ta'limda o‘qituvchi bilim berish bilan cheklanmaydi, u talabalarning fikrlash faoliyatiga ham rahbarlik qiladi, talabalarda ishdagi mustaqillik, ijodkorlik qobiliyatlarini o‘stiradi va shu tariqa o‘rganilayotgan narsaning ongli ravishda o‘zlashtirib olishga erishiladi, materialni idrok qilishlari va tushunib olishlari bilan birga, uni puxta esda saqlab qolishlari to‘grisidagi ham g‘amxo‘rlik qiladi[1].

---

[1] O‘.M.Asqarova, M.S.Nishonov, Z.B.Kurbanova, D.A.Muminova. Pedagogik va psixologik fanlarni o‘qitish metodikasi. -Toshkent: Fan, 2019. -B.36.

Tibbiy ta'lim jarayonida o'quv faoliyatini tashkil qilishning pedagogik-psixologik tahlili - bu klinik fanlarni tashkil qilinishidadir. Klinik fanlarning maqsadi faollik bilan belgilanadi. Bu assimilyatsiya jarayonining o'zi subyektdagi harakatlarining shakllanishidan iboratligi bilan bog'liq. Bundan tashqari, klinik bo'limlar shifokorni kasbiy tayyorlashda yetakchi o'rinni egallaydi va o'quv jarayonini tashkil qilish modeli tibbiy faoliyatni shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, dars jarayonining oqilona tashkil etilishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini ortirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda turli xil zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Interfaol ta'lim metodlarining pedagogik-psixologik moxiyati shundaki, oddiy munozarada bahslashuvchilar ko'proq ongli, asosli fikrlarni bayon etishga harakat qiladilar va mustaqil faoliyat yuritish, ijodkorlik xislatlari shakllanadi. Bu narsa ko'proq muammo ancha notanish, savol murakkab yoki noaniq bo'lgan sharoitlarda qo'l keladi.

Tibbiy ta'limning bugungi kundagi vazifasi sohaga qo'yilgan davlat siyosatini amalga oshirish, kadrlar tayyorlash bo'yicha davlat talablarni sifatli bajarish, o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish, o'qituvchi-murabbiylarning metodikasini uzluksiz takomillashtirish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida dars berish kabi pedagogikaning metodologik ahamiyatga ega muammolari bilan bevosita bog'liq. Ushbu muammolarning hal qilinishi ta'lim mazmuniga qo'yilayotgan davlat talabining sifatli bajarilishini ta'minlaydi, ta'lim berishning asosiy masalalarining yechimiga olib keladi.

Shunday ekan bo'lajak hamshiralarning jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashi, jismonan va ma'nan yetuk insonlar bo'lib shakllanishi, ularning qobiliyat va iste'dodini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, yosh avlod qalbida Vatanga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini yuksaltirish borasida juda ko'p ishlar amalga oshirilib kelmoqda.

Bugun dunyoda yuz berayotgan globallashuv jarayonlarining jadal sur'atlarda kirib kelishi, axborot oqimining ko'pligi, innovatsion texnologiyalarning shiddatli rivojlanishi ta'lim sohasiga, shu jumladan, tibbiy ta'limiga, ayniqsa klinik fanlarni (Hamshiralik ishi, Gerantologiyada hamshiralik parvarishi, Pediatriyada hamshiralik ishi va h.k.) o'qitish jarayoniga mos o'zgarishlar tadbiq etilishini taqozo qilmoqda.

Shuningdek, bugungi kun jahon pedagogikasi va ta'lim-tarbiya psixologiyasi oldida turgan muhim masalalardan yana biri - nafaqat bilimli, balki ijodiy tafakkur sohibi bo'lgan, mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirishning yo'l, usul va vositalarini izlash asosiy masalalardan hisoblanadi. Ma'lumki, mustaqil fikrlovchi, aqlan etuk, ruhan tetik, ma'nan barkamol shaxsni shakllantirish g'oyasi insoniyatning paydo bo'lishi davridan boshlangan bo'lib, u shu davrlar oralig'ida bosqichma-bosqich rivojlanib kelmoqda.

Tibbiy ta'limda mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashda ta'limni tashkil etish, ta'lim jarayonida ta'limning interfaol usullaridan keng foydalanish ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalashning asosiy pedagogik-psixologik omillaridan biri sifatida qaraladi[2].

Tibbiyot oliygohlarida o'quv jarayonini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini qo'llash va zamon talabiga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashga innovatsion ta'limlar zarurati bugungi pedagogikani oldida turgan dolzarb masaladir.

Ta'kidlash joizki, tibbiyotda mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalash bo'yicha bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimidagi ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiruvchi, talabalarni mustaqil fikrlashga undovchi interfaol ta'lim metodlari bilan boyitish maqsadga muvofiqdir. Zero, dars jarayonini oqilona tashkil etish, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ta'lim jarayonidagi faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda turli xil zamonaviy ta'lim

[2] Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojiboeva R.N. Mustaqil fikrlash. / Akademik litseylar va kasb hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent.: Sharq, 2000. – 92.b.

texnologiyalaridan foydalanish va ta’lim oluvchilarni amaliy ko‘nikmalarni mustaqil bajarishga undash mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxslarni tarbiyalash imkon beradi.

Mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalash bilan bog‘liq ibtidoiy tushunchalar bugungi kunda ham qadimiy reliktlar tarzida talqin etilmoqda. Tibbiy ta’limda mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalash masalasi tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, islomgacha bo‘lgan qadimiy reliktlarning mazmuni insonni ruhan va jismonan yovuz ruhlardan xalos etish, saqlash, ularda yaxshilikning doimo g‘alabasiga ishonch hissini shakllantirish, qalb pokligi, jism sog‘lomligiga da’vat etuvchi dastlabki tassavvurlardan iborat bo‘lgan[3].

Yangi tibbiy ta’lim paradigmasining asosiy xususiyati - malaka xarakteristikasi bilan belgilangan faoliyat uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalarni egallash tushunchasidan shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tushunchasiga o‘tishdir. Yangi konsepsiya tibbiy ta’limning fundamentalligi, individualizatsiyasi va amaliy yo‘nalishi tamoyillarini sintez qilish asosida aqlning ustuvor rivojlanishini kafolatlaydigan har qanday muhitda samarali harakat qilish imkonini beradigan kasbiy kompetensiya darajasiga erishishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, u shaxsiy o‘zini-o‘zi rivojlantirish mexanizmlarini ishga tushirish, ijodiy qobiliyatlarni ro‘yobga chiqarish va kasbiy va hayotiy o‘zini - o‘zi anglash uchun sharoit yaratishni o‘z ichiga oladi.

Oliy malakali hamshiralar tayyorlaydigan ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya ishlarini yanada takomillashtirish, o‘qitish sifati va samaradorligini oshirish uchun ta’lim-tarbiyaning ilg‘or va zamonaviy texnologiyalaridan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi ilm-fan, texnika jadal rivojlanayotgan davrda tibbiy oliy ta’lim muassasalarida samarali o‘qitishni tashkil etishda qo‘llaniladigan texnologiyalaridan biri - shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasi hisoblanadi. Chunki u talabalarda tafakkur, kreativ yondashuv, ijodiy qobiliyat va faoliyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’limdir. Shuning uchun shaxsga yo‘naltirilgan

---

[3] Lavinia D. A History of Nursing.The Evolution of Nursing Systems from the Earliest Times to the Foundation of the First English and American Training Schools for Nurses. -New York: Public library publishing. 2022. -P.358.

ta'limning asosiy vazifasi - faol bilim olishga yo'naltirilgan, ijod qilishga undaydigan, muammoga turli xildagi ratsional-evristik yondashuvlarni keltirib chiqaradigan, ilmiy–tadqiqot uslubini shakllantiradigan, idrok qilish qobiliyatlarini o'stiradigan texnologiya sanalib, u ta'lim manfaati uchun xizmat qilishni nazarda tutadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, jamiyatning bosh maqsadi hisoblangan ijodiy faol, tashabbuskor shaxsni voyaga etkazib, uni faoliyatga, tajribaga tayyorlashga olib keladigan metodlardan biridir.

Ma'lumki, tibbiy ta'lim jarayonining zamonaviy tendensiyalari shaxsga yo'naltirilgan ta'limga murojaat qilishni nazarda tutadi, qaysiki uning o'quv tarbiyaviy tizimi markazida talaba shaxsi, tabiiy rivojlanishi va iste'dodi, ijtimoiy, ijodiy hamda kasbiy o'z- o'zini namoyon etishini shakillantirish turadi[4].

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning asosiy mohiyati - o'rganilayotgan mavzu bo'yicha ta'lim oluvchining ta'lim jarayoni markaziy subyekti sifatida shaxsiy tajribasini ochib berish, berilayotgan bilimlar bilan moslashtirib borish va mos ilmiy mazmunga o'tkazishdan iborat[5].

AQSHlik professor A.Juditning fikricha, shaxsga yo'naltirilgan - tibbiy ta'limda yaxlit holatda o'qitishda, shuningdek, ta'limning asosiy vazifalarini yechishga yordam beradi, jumladan, kasbiy kompetentli, ijtimoiy faol, shaxsning o'zini rivojlantirishi uchun sharoitlarni yaratadi. Ta'limning yetakchi motivi bo'lib, ta'lim muhitida shaxsning o'zini – o'zi namoyon etishi va rivojlanishiga turtki beradi. Bu esa sifatli bilim, ko'nikma va malakalarini shakillantirish, ta'lim jarayonida talabaning subyektiv tajribasini kiritish, ular kompetentligini ta'minlashning muxim sharti hisoblanadi[6].

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda talaba ta'lim jarayonida bosh xarakatlanuvchi shaxs hisoblanadi. O'qituvchi esa faqat axborot manbai va nazoratchi bo'lmasdan, balki talaba shaxsining rivojlanishida tashxis qo'yuvchi va yordamchi bo'ladi.

[4] Fisher A. Developing person centered learning environments in Nursing education. – New York: Springer Publishing company. 2024. – P.78.
[5] Martha J. Innovative Teaching Strategies in Nursing and Related Health Professions. -London: Jones and Bartlett Publishing house, 2017. . – P. 125.
[6] Judith A. Pathways to a Nursing Education Career: Educating the Next Generation of Person centered Nurses. – New York: Springer Publishing company. 2021. – P 96.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, ta’lim jarayonining markazida talabaning maqsadi, motivi, qiziqishi, intilishi, qobiliyatlari yotadi. Ta’lim jarayonida talabaning bilimi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

Talabalarida mustaqil fikrlash va ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonlarini kuzatishlarimizdan ma’lum bo‘lishicha, mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalash jarayonida voqelashtirish usullari juda ko‘p va rang-barangdir.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida didaktik materiallarni dars jarayonida qanday va qaysi vaqtlarda, joyini konstruksiyalaydi. Tibbiy ta’limda shaxsga yo‘naltirilagan ta’lim jarayonida har bir talaba noyob qobiliyat egasi sifatida gavdalanadi. O‘qituvchi tomonidan talabaga o‘z potensialini amalga oshirishga, dars davomida shaxsiy fikrlarini rivojlantirishga yordam beradi. Talabaning o‘z ustida ishlashga undaydi, imkoniyat beradi. Talabaning fikri inobatga olinib, qo‘llab quvvatlanib o‘qituvchi tomonidan rag‘batlantiriladi. Talabaning faol haraktini stumillashtiriladi. Har bir talabaning yutuqqa erishishi uchun sharoit yaratiladi.Talabaning ilmiy izlanish uchun yo‘naltiriladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim oluvchi shaxsidagi mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash kabi sifatlarini tarbiyalaydi. Bunda talabani ta’lim tizimiga moslashtirmay, balki talabaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlanishi uchun imkon beriladi, uning o‘z-o‘zini rivojlantirish, mustaqil o‘qish, o‘zligini namoyon etish, faollashtirish xususiyatlari asosida anglash, mushohada qilish, o‘z amaliy faoliyatida sinab ko‘rish, yangi g‘oya va fikrlarni bildirish, mavjud muammolar yechimining samarali yo‘llarini qidirish uchun erkinlik berish, talabaning ijodiy, tanqidiy tafakkurini rivojlantirish uchun sharoit yaratiladi. Har qanday talaba o‘ziga xos takrorlanmas tabiati, xarakter xususiyatini faollashtirish, namoyish qilishga intiladi[7].

---

[7] Karimova G.Q. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida pedagogik monitoringni amalga oshirish imkoniyatlari // Zamonaviy ta’lim. № 4 (77), 2019. - B.39.

Buyuk Britaniyalik professor K.Neilning takidlashicha, o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, insonning shaxsi, faqat uning intellekt rivojlanishi haqida g‘amxo‘rlik qilmasdan, balki fuqorolik javobgarlik hissini, emotsional, estetik, ijodiy rivojlanish imkoniyatlari haqida ham qayg‘uradi[8]. Bugungi zamonaviy sharoitda raqobatdosh mutaxassislarni tayyorlashda, talabalarga individual ta’lim dasturlarini tanlash hamda ularning o‘z hayotiy rejalarini amalga oshirishlari uchun keng imkoniyatlar berish, keyingi ta’limga talabalarni tayyorlashni ta’minlashga imkon beruvchi qator fanlarni chuqur o‘qitish hamda mustaqil ta’limga e’tiborni kuchaytirish lozim.

Bo‘lajak hamshiralarni tayyorlashning an’anaviy shakllari va usullarining imkoniyatlari cheklangan bo‘lib, ular ijodiy mentalitetni rivojlantirishga qaratilgan sifatni ta’minlay olmaydi, ular talabalarning ijodiy tafakkuri va mustaqilligini rivojlantirishga yetarlicha e’tibor qaratmaydi. Zamonaviy jamiyatning faol, mustaqil odamlarga bo‘lgan ehtiyoji boshqa pedagogik tushunchalar qatorida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning ustuvorligini belgilaydi.

Darhaqiqat, hamshiralik ishi faoliyatda pedagogik - psixologik ta’lim asosida insonlar orasidagi munosabatlarni va ijtimoiy muhitning insonga ta’sirini tadqiq etuvchi fan sifatida insoniyatni har tomonlama rivojlanishining o‘ziga xosligi hamda ularning inson shaxsi shakllanishiga ta’sirini o‘rganadi. Shu bilan birga, sog‘liqni saqlash tizimining tashkiliy jihatlaridagi ko‘pgina masalalarni hal etishga, oila va jamoatchilikning o‘zaro hamkorlikda ish olib borishiga va shaxs bilan muloqotda bo‘lishida yordam beradi.

Tibbiy tarbiya mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash ma’lum pedagogik hodisaning muayyan vaziyatlarda namoyon bo‘lish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi va uning umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun bir qator fanlarning imkoniyatlariga tayaniladi. Ana shu nuqtai nazardan tibbiy pedagogika bilan falsafa, etika, estetika, tibbiy fanlar va boshqa fanlar o‘rtasida yaqin aloqadorlik mavjud. Ushbu fanlar hamshiralik faoliyatida muammoli vaziyatlarda muammolarni hal

[8] Carol Neil. Nurse teachers in higher education without clinical competence, do they have a future? // Nurse Education in Practice. Volume 10, Issue 4, July 2020. - P.191.

qilishda, aniq masalalarini ishlab chiqishda pedagogika, psixologiya va hamshiralik falsafasi katta ahamiyatga egadir.

Shifokor madaniyatini uning xulq – atvori va madaniyati belgilaydi. Hamshiraning kasbiy axloqi inson salomatligi va hayotini himoya qilish va uning maqsadlariga amal qilish bilan belgilanadi. Shifokor axloqi nima? Bu shifokorning o‘z faoliyati sohasidagi xulq-atvorining axloqiy qadriyatlari haqidagi fan sifatida ta’riflanishi mumkin bo‘lgan umumiy axloqning bir qismidir, ya’ni hamshiralik ishi fani bo‘lajak hamshiralar xulq-atvor standartlari to‘plamini o‘z ichiga oladigan, hamshiraning burchini, vijdoni va vijdoniy qadrini belgilaydigan fandir.

Etika – hamshiralik ishida shaxs ma’naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma’naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o‘rin tutuvchi nazariy g‘oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o‘rin tutadi.

Kasbiy etika - bu shaxsning o‘z kasbiy burchiga munosabatini belgilovchi axloqiy me’yorlar yig‘indisidir. Kasb etikasi mazmuni, odamlar o‘rtasidagi ma’lum turdagi axloqiy munosabatlarni va kasbiy etika kodekslarini asoslash usullarini belgilaydigan xulq-atvor qoidalaridir.

Tibbiy etika - umumiy etikaning bir qismi sifatida hamshiraning odob axloqi, shu jumladan uning xulq-atvori va axloqiy me’yorlari, kasbiy burch va sha’ni, vijdon va qadr-qimmat tuyg‘usi bilan bog‘liq. Biroq, hozirgi vaqtda tibbiyot fani va texnologiyasining so‘nggi yutuqlari bizni an’anaviy tibbiyot deontologiyasi me’yorlariga biroz boshqacha nuqtai nazardan qarashga majbur qiladi. Eski “shifokor-bemor” tamoyili o‘rniga yangi “shifokor, shifokor-bemor” tamoyili paydo bo‘ldi. Shuni inobatga olib bemorlarning tibbiyot xodimlariga bo‘lgan ehtiyoji kuchaygan. Shu sababli bugungi kun hamshiralaridan o‘z kasbiga professionallik darajasida yondoshishni talab qilinmoqda.

Tibbiy deontologiya tibbiy etika bilan belgilanadi. Tibbiyot xodimining o‘z kasbiy vazifalarini bajarishdagi axloqiy me’yorlari va xatti-harakatlari tamoyillaridan iborat. Tibbiyot etikasi va deontologiyasi - bemor va tibbiyot

xodimlari o‘rtasidagi o‘zaro ishonchga asoslangan bo‘lib, bemor o‘z sog‘lig‘ini, ba’zan esa hayotini ixtiyoriy ravishda tibbiyot xodimiga ishonib topshiradi.

Qadimgi dunyo estetikasi yunon falsafasiga monand holda vujudga keldi. Shu asosda tartibga solingan ko‘plab estetik nazariyalar shakllanib, shaxs estetik madaniyatining turli-tuman estetik g‘oyalari va fikrlari rivojlanishiga zamin bo‘lib xizmat qildi. Mana shunday estetik madaniyatni yunon falsafiy maktablari Milet, Eley va faylasuflari Pifagor, Geraklit, Empedokl, Anaksagor, Demokrit, Suqrot, Aflotun, Arastu kabilar ilgari surishdi[9].

Estetika - shaxs tomonidan go‘zallikning idrok etilishi, uni yaratishga intilishi, shuningdek, estetik didni tarbiyalashda muhim yo‘nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Bo‘lajak tibbiyot xodimlarini axloq – odob qoidalariga e’tibor qaratishi ularning egallamoqchi bo‘lgan kasbiy faoliyatining muhim belgilaridan biridir, bo‘lajak hamshiraning etiketi o‘z mohiyatiga ko‘ra, xulqning belgilangan tartibi bo‘lib, o‘z ichiga har bir insonning boshqalar bilan o‘zaro kommunikativ munosabatlarini tartibga soluvchi eng muhim odob-axloq qoidalarini oladi. O‘zaro aloqalarning mazkur kommunikativ shakli asosida insonlarning bir-birlarini hurmat qilishi hamda muloqot ishtirokchilarida o‘ziga nisbatan ijobiy yondashuvni vujudga keltirishga bo‘lgan intilishi yotadi. Bunda etiket kishilarning xulqi va tashqi ko‘rinishida namoyon bo‘lib, hayotiy odob-axloq normalarini yuzaga keltiradi.

Tibbiy ta’lim muassasalarida odob-axloq qoidalariga amal qilish qoidalari quyidagicha shakllantiriladi:

- ✓ bo‘lajak mutaxassislarda axloqni tasvirlash orqali. Ya’ni, jamiyatning axloqiy madaniyati tushunchasi tapkibiga kiruvchi – axloq tarixi, tamoyillari, mezonlari, ideallarini tasvirlash;
- ✓ axloqni tushuntirish – axloq mohiyati, tuzilishi, ishlash mexanizmini uning shart bo‘lgan va real mavjud variantlarini tahlil qilish;

---

[9] G‘aybullaev O.M. Estetik madaniyat. Monografiya. –Toshkent: Navrozi, 2020. – 16 bet.

- ✓ axloqni o‘rgatish – insonlarga ezgulik va yovuzlik haqida zarur bilim berib, ularga to‘g‘ri hayot strategiyasi hamda taktikasini ishlab chiqish va o‘z-o‘zini takomillashtirishga imkon yaratish[10].

AQSHlik olim J.Bur takidlaganidek “hamshiralik ishida kommunikativ muomala, yurish-turish deganda nafaqat gapirish jarayoni, ma’lumotlarni yetkazish, shuningdek o‘zaro munosabatlar tabiatiga ta’sir ko‘rsatuvchi nutqni tashkillash, pedagog va talabalar munosabatini emotsional (his-tuyg‘u) - psixologik muhitini vujudga keltirish, ularning ish uslublarini, ya’ni alohida madaniy-axloq odobga oid munosabatlarni yaratishni nazarda tutiladi[11].

Falsafa - shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g‘oya, qarash hamda ta’limotlarning falsafiy jihatlari kabi masalalarni tahlil etishga imkon beradi. Tibbiyot falsafasi tushunchasi bu yangilik emas. Qadim zamonlardan ma’lumki, ko‘pgina tibbiyot namoyondalari faqat davolash qobiliyatiga ega bo‘libgina qolmasdan, musiqa yaratish, asarlar yozish, astronomiya, fizika, matematika fanlariga qiziqish bilan birga buyuk faylasuf ham bo‘lganlar. Masalan Abu Ali ibn Sino o‘z davrida «Shifo kitobi» deb nomlangan falsafiy tibbiyot ensiklopediyasini yozgan. Tibbiy falsafiy qarashlar to‘g‘risida Platon, Sokrat, Gippokrat, Abu Ali ibn Sino, Galen va Goratsiylar fikr yuritganlar.

Falsafa olamni aloxida va qismlari o‘zaro bog‘liq, bir butun holda o‘rganadigan fandir. Shu nuqtai nazardan hamshiralik ishi - bu oddiy bir ilm emas, balki munosabatlar, muloqotlarni amalga oshirish san’atidir. Bu bemor hayotini uyg‘unlashtirishga bo‘lgan urinishdir. Hamshiralik ishi falsafasi umumiy falsafaning bir qismi bo‘lib, tibbiyot hamshirasi, bemor, jamiyat va atrof-muhit orasidagi qarashlar va o‘zaro munosabatlar sistemasidir.

Hamshiralik ishi falsafasi dunyoqarash, umum axloqiy, tibbiy-axloqiy prinsiplarining hamshiralik amaliyotiga bo‘lgan bir ilovasi. Bu olamshumul falsafa markazida, albatta, faqat oddiygina bir odam emas, balki bir shaxs turadi. Bu degani

---

[10] J. Smart . Ethics, Persuasion and Truth. - New York, Taylor & Francis 2020. -P.247
[11] J.Boore. Nursing education: Planning person centered education // Nurse Education Today. Volume 14, Issue 5, October 2014. - P.394-399.

ijodiy, insonparvar, ma’naviy rivojlangan va yuqori darajadagi zakovatli shaxs bo‘ladi.

Hozirgi zamon fanida shaxsning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi uch muhim omil: irsiyat, madaniy muhit va yashash sharoiti farqlanadi. Bu omillar o‘zaro ta’sirga kirishishi natijasida inson shaxs sifatida o‘ziga xos xususiyatlar majmuyi: tegishli ehtiyojlar, qiziqishlar, mijoz, qobiliyatlar, maqsadlar, mo‘ljallar, ma’naviyat va shu kabilarga ega bo‘ladi.

Sog‘liqni saqlash tizimida oliy ma’lumotli hamshiralarning faoliyat olib borayotganligi natijasida tizimda bu kasbning nufuzini sezilarli darajada oshdi. Hamshiralar endilikda shoshilinch vaziyatli holatlarda o‘zi mustaqil ravishda qaror qabul qiladigan malakali mutaxassisga aylandilar. Hamshira bemor ramzida faqat kasalni emas, balki butun bir shaxsni ko‘ra bilishi juda muhimdir. Bemor qatorida hamshiraning o‘zi ham bir shaxs bo‘lib qolishi lozim. Shaxs - bu, doimo insonning ma’naviy muayyanligi, mustaqilligi va takrorlanmasligidir. Shaxs-bu temperament, iroda, inon-ixtiyor, qiziqishlar, sezgi va emotsiyalar, oliy ma’naviy - ruhiy mezondir. Har bir shaxs uchun o‘zi va atrofdagilar bilan kelishish, hulq-atvorning yaxlitligi, ijtimoiy muhitga moslasha olish, ichki ozodlik, san’atni baholay olish qobiliyati, keng dunyoqarash va hazilkashlikka xos bo‘lgan holdir. Ma’naviylik bo‘lmasa shaxs ham bo‘lmaydi. Shaxsdagi hamma narsa ma’naviy ruhiy shaklga ega bo‘ladi. Qalb - bu sezgilarning, qiziqishlarning, fikr va oliy maqsadlarning shaxsiy tizimlaridir. Qalb - bu eng avvalo, ibtidoiy emas, balki anglashilgan, idrok etilgan kechinmalar, emotsiyalar olamidir, deb ta’riflasak bo‘ladi. Inson boshiga tushgan hamma ko‘rgiliklarni o‘z qalbi, o‘z dilidan o‘tkazadi. Unda hissiyotlar va zakovat bog‘lanuvi yuz beradi, insonning dunyoqarashi shakllanadi[12].

Hamshiralik ishi fanining maqsad va vazifalari odamning sihat-salomatligi va atrof muhitning mutanosibligini ta’minlaydi. Olamning bo‘laklarini o‘zaro bog‘liq, bir butun holda o‘rganadigan fan - falsafa. Bu olamshumul falsafa markazida, albatta, faqat oddiygina bir odam emas, balki bir shaxs turadi. Bu degani ijodiy, insonparvar, ma’naviy rivojlangan va yuqori darajadagi zakovatli shaxs bo‘ladi.

[12] Haydarova B.A. Xamshiralik ishi texnikasi. o‘quv qo‘llanma. -Farg‘ona, 2022. – 158.b.

Shuning uchun “hamshira - bemor” tizimining faoliyati “shaxs - shaxs” tizimi kabi, hamshiraik ishi falsafasining eng muhim muammosi boʻlib qolaveradi. Aynan ana shu tizim doirasi ichida maʼnaviy (sezgilar, emotsiyalar) komponentlar eng asosiy oʻringa chiqib oladi.

Hamshira salomatlik meʼyorlarini va bemorlarni parvarishlash asoslarini bilibgina qolmasdan balki ruhiy va ijtimoiy holatini baholay bilishi lozim. Hamshira oʻz faoliyati davomida bemor hamda uning oila aʼzolari va yaqin kishilari bilan muloqotda boʻluvchi shaxs hisoblanadi.

Tibbiyot xodimining kasbiy kompetensiyasi oʻz kasbiy bilim koʻnikma va malakalariga ega boʻlishi, bemor bilan muloqotga kirishish jarayonida bemornining ruxiyatiga taʼsir oʻtkaza olishidadir. Hamshira bemor va uning yaqinlari bilan muloqot jarayonida - turli xil emotsional, ruhiy va ijtimoiy aspektlariga duch keladi. Har qanday yoshdagi bemorlar bilan yumshoq va doʻstona munosabatda boʻlish kerak. Kasalxonada qolishning birinchi kunlaridan boshlab bu qoidaga rioya qilish kerak. Bemorlar bilan muomula qilishda tibbiyot xodimlari koʻpincha xissiy stressni boshdan kechiradilar. Bunday hollarda xotirjamlikni saqlash, hozirgi kayfiyatga berilmaslik, asabiylashish va haddan tashqari emotsionallikni bostirish kerak. Hamshiralar aholi salomatligini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan koʻp va rang-barang faoliyati ham oʻzaro bogʻliq va turli darajada bogʻliq boʻlgan huquqiy va axloqiy meʼyorlar bilan tartibga solinadi.

Bemor va uning yaqinlari bilan boʻlayotgan jarayonda hamshira etika va deontologiya qonun qoidalariga rioya qilgan holda, uning odobi, xatti-harakati, aytayotgan gaplari, tovush intonatsiyasi, undagi vazminlik, qatʼiylik va shu bilan bir qatorda iliq yoki muloyim tabassum ham katta ahamiyat kasb etadi. Uning zamitida insonga boʻlgan mehr, uning salomatligini saqlash xuquqlarini va insoniylik fazilatlarini hurmatlash yotadi. Bunga erishish uchun hamshira yurak haroratini, bor bilimini, vaqtini ayamasligi kerak. U har doim insonlarga yaxshilik qilishga intilib yashashi va tibbiy qasamyodiga, xalol kasbiy burchiga sodiq boʻlishi lozim. Shunday ekan hamshiralarning yuqori kasbiy bilimga va yuqori darajadagi

madaniyat va aqliy salohiyatga ega bo‘lishida tibbiyot xodimlarining o‘zaro munosabatlari me’yori - kommunikatsiya asoslarining ahamiyati kattadir.

Yuqoridagi tadqiqotlarga tayanib shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, bo‘lajak hamshiralarni tibbiy madaniyatini rivojlantipish ularni estetik tarbiyalarini hamda ma’naviyatini rivojlantirish tibbiy ta’limning oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Pedagogik psixologiyada mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashda ta’limni tashkil etish, ta’lim jarayonida ta’limning interfaol usullaridan keng foydalanish ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalashning asosiy pedagogik-psixologik omillaridan biri sifatida qaraladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali hamshiralik ishini o‘qitish jarayonida quyidagi ijobiy o‘zgarishlarga erishish mumkin:

- shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitishning amalga oshirilishi, ta’lim sifatini oshirishni ta’minlaydi.

- samarali pedagog muloqot – o‘quv faoliyatining ijodiy xususiyati va motivatsiyaga erishishni rivojlantirish uchun zamin yaratuvchi qulay muxitni yaratadi.

- pedagog talabaning rivojlanish imkoniyatidan kelib chiqib, o‘quv manbasini tanlash bilan ularga individual ta’limni amalga oshiradi. Ishning taxilili, o‘qituvchiga talabalarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasi, ularning shaxsiy rivojlanishi, o‘z mexnati natijasini bilishi haqida xulosa chiqarishiga imkon beradi.

Hamshiralik ishi fanini o‘qitish davomida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning diqqat e’tibor markazida talaba bo‘lishi lozim. Uning individual, fiziologik, psixologik, emotsional, etnomadaniyat, yosh xususiyatlarini hisobga olish tibbiy ta’lim jarayonida juda muhimdir.

Shaxga yo‘naltirilgan ta’lim - bu talaba shaxsi, uning o‘ziga xosligi, qadriyati qo‘yiladi, har birining subektiv tajribasi ochib beriladi, so‘ngra ta’lim mazmuni bilan moslashtiriladi[13].

---

[13] Martha J. Innovative Teaching Strategies in Nursing and Related Health Professions. -London: Jones and Bartlett Publishing house, 2017. -178.p.

Hamshiralik ishi fanini o‘qitish davomida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv – talaba va uning individualligini tashkil qiluvchi psixik xususiyatlarning birligiga tayangan holda o‘zining texnologiyasi bilan individual yondashuvning muhim psixologik-pedagogik tamoyilini amalga oshiradi, unga ko‘ra talabalar bilan o‘qitish jarayonida, ya’ni dars va o‘quv mashg‘ulotlarida har bir ta’lim oluvchining individual xususiyatlari hisobga olinadi. Buning hammasi bizning nazarimizda yosh yetakchi o‘quv faoliyati orqali ta’lim oluvchi shaxsi rivojlanishiga ko‘maklashuvchi optimal sharoitlarni yaratadi. Shuning uchun, talaba rivojlanishining kamida ikkita darajasini belgilash zarur, ularni bilmasdan turib ta’lim oluvchi rivojlanishining real darajasi va har bir aniq holatda uning o‘qitilishining potensial imkoniyatlari orasidan to‘g‘ri munosabatni topa olmaymiz.

Birinchisi – bu talaba psixik funksiyalarining rivojlanish darajasi bo‘lib, u uning rivojlanishini belgilagan va yakunlangan davrlari natijasida hosil bo‘lgan. Bu erda gap ta’lim oluvchi mustaqil ravishda, kattalarning yordamisiz qaysi topshiriqlarni bajara olishi mumkinligi bilan tavsiyalanadi.

Ikkinchisi – bu talaba rivojlanishining psixik potensialini aks etiruvchi darajadir, bu «Eng yaqin rivojlanish doirasidir». Ushbu daraja talaba nimani mustaqil bajara olmaydi, ammo, kichik yordam bilan u uddalay oladi[14].

Agar biz dars jarayonida mavzu bo‘yicha biron - bir ta’lim texnologiyasidan foydalanishni istasak, bu jarayonda talabalarning psixik imkoniyatlarini ham inobatga olishimiz kerak. Bu o‘z navbatida ularning bilish faoliyatini tashkil etish jarayonida samaradorlikni oshiradi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, motivatsiyani nazarda tutadi, ya’ni bilish faoliyatida talabaning shaxsiy fikrini inobatga olish bilan birga, uning potensialini ochish uchun imkon yaratib beradi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning asosini ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalardir. U quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi: insonparvarlik, ya’ni insonga har tomonlama hurmat va muhabbat ko‘rsatish, unga yordamlashish, uning

[14] M.Tojiev, B.Ziyomuxamedov, B.Sh.Usmonov, A.J.Xurramov. O‘qituvchi faoliyatini loyihalash. Monografiya. Toshkent: Turon-Iqbol 2017. – B.87-88.

ijodiy qobiliyatiga ishonch bilan qarash, zo‘ravonlikdan to‘la voz kechish, shuningdek, hamkorlik, ya’ni o‘qituvchi va talaba munosabatidagi demokratiya, tenglik, sheriklik, qolaversa, erkin tarbiyalash, ya’ni shaxsga uning hayot faoliyatini keng yoki tor doirasida tanlab olish erkinligi va mustaqillikni berish, natijalarni tashqi ta’sirdan emas, ichki hissiyotlardan keltirib chiqarish.

Hamshiralik ishi fanini o‘qitish davomida shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarning kommunikativ asosi − pedagogik jarayonda ta’lim oluvchiga «shaxsga yangicha qarash», ya’ni insoniy-shaxsiy yondashuv hisoblanib, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi: pedagogik jarayonda shaxs obyekt emas, balki subyekt hisoblanadi, ya’ni har bir ta’lim oluvchi qobiliyat egasi, ko‘pchiligi esa iste’dod egasi hisoblanadi; yuqori etik qadriyatlar (saxiylik, muhabbat, mehnatsevarlik, vijdon va boshqalar) shaxsning ustuvor xislatlari hisoblanadi.

Hamshiralik ishi fanini o‘qitish davomida munosabatlarni demokratlashtirish (o‘qituvchi − ta’lim oluvchi) quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ta’lim oluvchi va o‘qituvchi huquqlarini tenglashtirish, ta’lim oluvchining erkin tanlab olish huquqi;
- xatoga yo‘l qo‘yish huquqi;
- o‘z nuqtai-nazariga ega bo‘lish huquqi
- ta’qiqlamaslik;
- boshqarish emas, birgalikda boshqarish;
- majburlash emas, ishontirish;
- buyurish emas, tashkil etish;
- chegaralash emas, erkin tanlab olishga imkon berish[15].

Dars jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasini qo‘llash jarayonida o‘qituvchi tomonidan talabalarning shaxsiy manfaatlari, ularning extiyojlarini nazarda tutiladi. Bunda ta’limning mazmuni talaba shaxsining qiziqishlarini inobatga olgan holda ularni qiziqtirish, qo‘llab quvvatlash lozim.

---

[15] M.Tojiev, B.Ziyomuxamedov, B.Sh.Usmonov, A.J.Xurramov. O‘qituvchi faoliyatini loyihalash. Monografiya . - Toshkent: Turon-Iqbol, 2017. - 90 bet.

Hamshiralik ishi fanini o‘qitish davomida har bir darsning maqsadi ta’lim oluvchilarning bilish, o‘rganish va bajarish faolligini oshirish uchun sharoit yaratishdan iborat. Buning uchun quyidagilar muhim deb hisoblanadi:

- ta’lim oluvchilarning subyektiv tajribasini ochib berish uchun darsni tashkil etishning har-xil usullarini qo‘llash;

- individual, guruhiy va jamoaviy ishlarni tashkil etishda ta’lim oluvchilarning erkin ishlashi, qiziqishi va intilishlari uchun muhit yaratish;

- ta’lim oluvchilarda topshiriqlarni bajarishda, savollarga javob berishda «noto‘g‘ri» javob berib qo‘yishdan qo‘rqish holatini yuzaga keltirmaslik, qo‘rqmasdan bemalol va erkin fikrni bayon eta oladigan muhitni yaratish va javoblarni rag‘batlantirib borish («javob noto‘g‘ri bo‘lsa ham intilish bor», «xato qilishga haqi bor – xatolaridan o‘rgansin»);

- taqdim etiladigan didaktik materiallarning shakli va ko‘rinishi ta’lim oluvchi uchun ahamiyatli bo‘lishini ta’minlash (zamonaviy bilimlarga ega bo‘lish, yaxshi mutaxassis bo‘lib etishish kelgusida shaxsiy hayotning yaxshi bo‘lishini ta’minlaydi);

- ta’lim oluvchilar faoliyatini yakuniy natija bilangina emas, unga erishish bosqichlari bilan birgalikda baholanishini ta’minlash;

- ta’lim oluvchilarning o‘z ish uslubini tanlashi, dars jarayonida boshqalarning ishlarini tahlil va muhokama qilishi hamda o‘zi muhim deb hisoblaganlarini tanlashi va o‘zlashtirishini rag‘batlantirib borish;

- har bir ta’lim oluvchi tashabbusi bilan erkin va mustaqil ishlash mumkin bo‘lgan muloqot muhitini yaratish;

- ta’lim oluvchining o‘zini erkin va tabiiy ko‘rsata bilishi hamda namoyon etishi uchun imkoniyatlar yaratish zarur. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda dars jarayonining didaktik ta’minoti ham o‘ziga xos xususiyatda bo‘lishi lozim, jumladan:

- o‘quv materiali ta’lim oluvchining oldingi olgan bilimlarini hisobga olgan holda uning shaxsiy tajribasi mazmunini ochib berishga yo‘naltirilishi;

- bilimlarni berish ta’lim oluvchining bilimlar hajmini boyitishgagina emas, balki shaxsiy tajribasini orttirishga ham xizmat qilishi;

- o‘quv materialini shunday taqdim etish kerakki, ta’lim oluvchi berilgan masala va topshiriqlarni bajarish, taqdim etishda sidqidildan xohish bilan yondashishi va tanlash imkoniyatiga ega bo‘lishi;

- ta’lim oluvchi o‘quv materialini o‘zlashtirishning o‘zi uchun ahamiyatli va qulay usullarini mustaqil tanlashi, ijodkorligini rag‘batlantirib borishi;

- baholash va nazoratning faqat natija bilan emas, balki bilish va o‘rganish jarayoni bilan birgalikda amalga oshirilishi;

- mustaqil ishlarni ta’lim oluvchining shaxsiy hayotiga, tanlagan kasbiga, yashash manziliga bog‘liq holda tashkil etish kabi xususiyatlariga ega bo‘lishi zarur[16]. Bu jarayonda ta’lim beruvchi taklif etilgan variant, fikr va takliflarning qaysi birlari darsning maqsadi va mazmuniga mos kelishini tahlil qilib borishi, ajratib ko‘rsatishi va qo‘llab-quvvatlashi alohida mohiyat kasb etadi.

Hamshiralik ishi fanini o‘qitish davomida shaxga yo‘naltirilgan ta’lim maqsadi, Talabani quyidagi funksiyalarini to‘liq rivojlantirish uchun sharoitni yaratishdan iborat:

- tanlash qobiliyati;

- refleksiya; turmush tarzi;

- “Men” obrazini shakillantirish;

- javobgarlik funksiyasi shaxsning avtonomligi[17].

Darhaqiqat, har bir dars mashg‘ulotlari davomida talabaga tushintirib o‘tgan bilimlarni asosida talabadan yangi bilim hosil bo‘lishini ta’minlashi lozim. Dars jarayonida o‘qituvchining ta’lim oluvchiga beradigan izlanish va fikrlash yo‘llanmasi shunday bo‘lishi kerakki o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriq mohiyatan bir yo‘nalishda bo‘lib, lekin shaklan har - xil bo‘lishi mumkin. Guruhdagi talabalarning izlanish va ijod mahsuli aynan bir xil bo‘lmasligi mumkin. O‘qituvchi

---

[16] Богданова Е. Потенциал сестринского дела и современные стандарты подготовки медиков высшего звена // Современные проблемы науки и образования. – 2016. – № 5 – С. 65

[17] Таинкин А. Активные методы обучения в преподавании дисциплины «Сестринское дело» на лечебном факультете // Pedagogics and education, 2019. -С. 119-125.

tomonidan talabaga beriladigan imkoniyat motivatsiya har bir ta’lim oluvchini fikrlash yordamida bilishga intilish ya’ni o‘z ustida ishlashga, izlanuvchilikga, qiyosiy tashxishlashga, muammoli vaziyatlarda biror xulosa va hukmga kelar ekan, u o‘z fikrini asoslash va isbotlashga, himoya qilishga intiladi. O‘zligini mumkin qadar yorqinroq ifoda etishga, imkoniyat beradi. Bunday ta’lim usuli talabada mustaqillik, mas’uliyat, o‘z menligini anglash, ijod, bunyod qilish ruhini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasini qo‘llash jarayonida talabalarning shaxsiy manfaatlari, ularning ehtiyojlarini nazarda tutiladi. Bunda ta’limning mazmuni talaba shaxsining qiziqishlarini inobatga olgan holda ularni qiziqtirish, qo‘llab quvvatlash lozim.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim talabaga o‘zini shaxs deb anglashga, o‘z imkoniyatlarini aniqlash va ochishga, o‘z-o‘zini namoyish qilish shaxsiy axamiyatli motivlarini amalga oshirishga yordam beradi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosida yaratilgan tibbiy ta’lim tizimi va unda foydalanilgan texnologiyalar, talabaga bo‘lgan munosabatni ijobiy tomonga o‘zgartiradi, talabani ilmiy izlanishga undaydi, talabada mustaqil qaror qabul qilishni o‘rgatadi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim talabaning shaxs sifatida ta’lim jarayonida shakillanishiga va kelajakda etuk hamshira bo‘lib etishishlarida muxim axamiyat kasb etadi.

Hamshiralik ishi fanini o‘qitish davomida talabaning mustaqil-ijodiy fikrlash sifatlarini faollashtirishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim muhim o’rin tutadi, chunki xuddi shu davrda shaxs, uning qiziqishlari, moyilliklari shakllanishi uchun poydevor yaratila boshlaydi. Jamiyat uchun mustaqil, tanqidiy fikrlaydigan, harakat qila oladigan hamshiralar juda asqotayotgan hozirgi kunda talabalar ijodiy qobiliyatlarini, analitik kompetentligini rivojlantirish - tibbiy pedagogikaning eng asosiy vazifa hisoblanadi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim talabalarni faqat bilim, ko’nikma, malakalar bilan qurollantirishni ko’zda tutmasdan, balki darsda vujudga keltiradigan muammoli vaziyatlarni avval o’zlashtirgan bilim, ko’nikma, malakalarni kutilmagan vaziyatlarda qo’llash orqali ularning ijodiy faoliyat

tajribalari, talabalarning mustaqilligi, o'quv - bilish motivlarini, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga, mustaqil izlanish yo'lini o'zlashtirishga imkon beradigan murakkab jarayondir.

## 1.2-§. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali Hamshiralik ishi fanini o'qitishning didaktik asoslari

Mamlakatimizda tibbiy ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish, tibbiy ta'lim sifatini tubdan yaxshilash, tibbiyot oliy ta'lim muassasalari faoliyatini ilg'or xorijiy tajriba asosida tashkil etish, tibbiyot kadrlarining salohiyatini oshirish, faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, sog'liqni saqlash tizimidagi o'zgarishlar, texnologik taraqqiyot, zamonaviy inovatsion texnologiyalarni tibbiyotga kirib kelishi hamshiralarni amaliy faoliyatlarida ularni murakkabroq muolajalar kutayotganligidan dalolat beradi.

Bugungi kun hamshiralik ta'limi talabani rivojlantirishga yordam beradigan yangi pedagogikadan foydalanishi lozim. Bo'lajak hamshiralarni Sog'liqni saqlash soxasida ishlashga tayyorlashning innovatsion usullarini izlash lozim. Hamshiralik ta'limida yangi innovatsion pedagogik yondoshuv va amaliyotni hamkorlikda olib borish talab etilyapti. Bu esa tibbiy pedagogikaning oldida turgan muhim vazifa qilib belgilanyapti.

Tibbiy ta'limning bugungi vazifasi ta'lim oluvchilarni kun sayin oshib borayotgan axborot-ta'lim muhiti sharoiti, yuqori-ilmiy texnik rivojlanish, globallashuv, ekologik muammolar ko'payib borayotgan davrda mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iborat bo'lib, buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur bo'ladi.

Hamshiralik ishi fani bo'lajak hamshirani shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga alohida hissa qo'shadi. Bunday maqsad va vazifalarning belgilanishida ijtimoiy munosabatlar

mazmuni, davlat va jamiyat qurilishi, uning hayotida yetakchi oʻrin tutuvchi gʻoyalar mohiyati muhim ahamiyatga ega.

Shundan kelib chiqqan holda, tibbiy taʼlimda professor-oʻqituvchilarning taʼlim-tarbiya sohasidagi vazifasi nafaqat bilim berish, balki talabalarning mustaqil izlanish, ishlash va fikrlash, tahlil qilish, taqqoslash, oʻzgartirish, hayotiy muhim vazifalarni hal etishga qoʻllash, barchaga hayot yoʻli davomida bilimlarini tezkor yangilash va toʻldirishni oʻrgatish, jamiyat rivojlanishining yuksalish darajasiga bogʻliq boʻlmagan holda mustaqil faoliyat koʻrsata oladigan va jamiyat rivojlanishiga moslasha oladigan kadrlarni tayyorlashdan iborat boʻladi. Ushbu dolzarb vazifalarni hal etishda esa «Shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim»ning imkoniyatlari beqiyosdir[18].

Anʼanaviy taʼlimdan farqli ravishda, shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim talabalarning imkoniyat va qobiliyatlarini toʻlaligicha hisobga olgan holda, ularning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat.

Shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim - bugungi kunda eng samarali pedagogik texnologiyalardan biri boʻlib, shaxsga yoʻnaltirilgan oʻqitish xisoblanadi. Lekin uni dars jarayonlarida qoʻllashda yagona bir tushinishning yoʻqligi pedagogik jarayonga oʻz salbiy taʼsirini oʻtkazmoqda. Shuning uchun bugungi kunda eng asosiy vazifalardan biri, bu shaxsga yoʻnaltirilgan texnologiya va usullarini takomillashtirish va tibbiy taʼlimda qoʻllashdir.

Bugungi kunda oliy hamshiralik ishiga qoʻyilgan malakaviy talablar Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-martdagi "Shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada takomillashtirish boʻyicha chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PQ-4985 - sonli Qarori[19], Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-martdagi "Oʻzbekiston Respublikasida birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatini tashkil etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisidagi" PQ-2857-sonli Qarori[20], Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining

[18] Моршинин А. Формирование профессиональной устойчивости будущего специалиста сестринского дела. Дисс... канд. мед. наук. -Оренбург, 2019.- 75.с.
[19] Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 16.03.2017 y https://lex.uz/docs/-3135434
[20] Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 29.03.2017 y https://lex.uz/docs/3177800

2017-yil 5-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida tibbiy ta’lim tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4310-sonli Qarori[21], O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 27-sentyabrdagi “Tibbiy xodimlarni tayyorlashni yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar haqida”gi 769-sonli Qarorlari[22]asosida tuzilgan bo‘lib, o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi – oliy ma’lumotli mutaxassis hisoblanadi va sog‘liqni saqlash tizimi muassasalarida, aholi o‘rtasida o‘tkir va surunkali kasalliklarning tarqalishini oldini olish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ibot qilish, zamonaviy usullardan keng foydalangan holda bemorlarni sog‘lomlashtirish bo‘yicha asosiy muammolarni hal qilish, sog‘liqni saqlash tizimining birlamchi bo‘g‘inida tibbiy-ijtimoiy vazifalarni bajarish bo‘yicha kompleks masalalar majmuasini olib borish uchun etarli nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi talab etiladi.

Shu bilan bir qatorda, Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi o‘z professional faoliyatini Sog‘liqni saqlash vazirligining tibbiy-profilaktika muassasalarining tegishli yo‘nalish bo‘g‘inlarida olib boradi, ya’ni oilaviy poliklinikalar, Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi filiallari, tez tibbiy yordam stansiyalarida olib borishlari mumkin.

Mazkur muassasalarda to‘laqonli faoliyat yuritish uchun malaka talablarida oliy hamshira quyidagi bilimlarga ega bo‘lishi lozimligi ko‘rsatilgan:

- aholi salomatligini muhofaza qilish, sog‘liqni saqlashni boshqarish, tibbiyot xodimlarining javobgarligi, ularning huquqlari va majburiyatlari sohasidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligining asoslari;
- O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining me’yoriy-huquqiy aktlari;
- sog‘liqni saqlashni birlamchi tizimida tibbiy faoliyatni tashkil etish;
- etika va deontologiya tamoyillari, kasbiy kommunikatsiya va muloqat asoslari, pedagogika asoslari;

[21]Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 05.05.2017 y https://lex.uz/ru/docs/-4323169
[22] Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 27.09.2017 y https://lex.uz/ru/docs/-3367359

- hamshiralik ishini boshqarishning tamoyillari va asoslari;

- aholi salomatligini asosiy statistik ko‘rsatkichlari va ularni hisoblash;

- aholi orasida keng tarqalgan o‘tkir va surunkali kasalliklar bo‘yicha barcha turdagi profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va tadbiq etish;

- aholi orasida sog‘lom turmush tarzi targ‘ibotiga qaratilgan chora tadbirlarini o‘tkazish;

- reabilitatsiya choralari talab qilinadigan holatlarda, ularni aholiga zarur bo‘lgan darajada qo‘llash chora-tadbirlarini o‘z vaqtida amalga oshirish;

- aholini ijtimoiy muhofaza qilishda uning uchun ma’sul bo‘lgan tashkilotlar bilan hamkorlikda mavjud resurslardan unumli foydalanish;

- sog‘liqni saqlash birlamchi tizimining mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va ularni samarali boshqarishda ishtirok etish;

- ixtisoslashtirilgan, yuqori texnologik hamshiralik parvarishini va muolajalarini amalga oshirish;

- “Valeologiya” tibbiy ixtisosligi bo‘yicha sog‘liqni saqlash tizimining birlamchi muassasalarida tibbiy faoliyatni amalga oshirish;

- tibbiyot sohasida dolzarb bo‘lgan muammolar bo‘yicha ilmiy-tadqiqot faoliyatini talab darajasida olib borish ko‘nikmalariga va bilimlarga ega bo‘lishlari qayd etib o‘tilgan.

Oliy hamshiralik ishi yo‘nalishidagi talabalarga qo‘yilgan bilim va ko‘nikmalardan kelib chiqqan holda quyidagi kompetensiyalarni egallashi lozim:

- umumiy kompetensiyalar: abstrakt fikrlash, analiz, sintez qobiliyatlari, o‘qish va dalillarga asoslangan zamonaviy tibbiyot bilimlarni o‘zlashtirish qobiliyati; amaliy vaziyatlarda bilimlarni qo‘llash qobiliyati; kasbiy faoliyatni moxiyatini tushunish qobiliyati; yangi sharoitga moslashish va faoliyat yuritish qobiliyati; asoslangan qarorlar qabul qilish, jamoada ishlash, shaxslararo muloqot qilish qobiliyatlari; axborot va kommunikatsiya texnologiyalardan foydalana olish qobiliyati; ijtimoiy mas’uliyat bilan va ongli ravishda xarakat qilish qobiliyati; biologik, psixologik, madaniy va mafkuraviy omillarni hisobga olgan holda muloqot qilish qobiliyatlari kiritilgan.

- kasbiy kompetensiyalar: ijtimoiy javobgarlik va kasbiy faoliyat; ijtimoiy sharoit va jamoat sog‘liqni saqlashni hisobga olgan hamshiralik faoliyatni amalga oshirish; bemorlar, mijozlar va hamkasblar oldida ma’suliyat hamda kasbiy standartlarga muvofiq kasbiy faoliyatni olib borish; hamshiralik ishi kasbini rivojlantirishga hissa qo‘shish; vaziyatni chuqur o‘rganish hamda ehtiyoj va imkoniyatlarni hisobga olgan holda qaror qabul qilish.

Mustaqil faoliyat bilan shug‘ullanish imkoniga ega bo‘lgan hamshiralarni tayyorlash uchun ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi ta’lim muassasalari qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash barobarida ularni zamonaviy o‘quv va laboratoriya jihozlari, kompyuter texnikasi, o‘quv-metodik qo‘llanmalar bilan ta’minlash hamda zamonaviy o‘qitish texnologiyalarni ega bo‘lgan va ularni o‘qitish jarayonida qo‘llay oladigan malakali kadrlarni tayyorlash jarayonida integratsiyadan keng foydalanish nazarda tutilgan.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasi orqali Hamshiralik ishi fanini o‘qitishning asosiy maqsadi - har bir talabaning alohida individual bilish imkoniyatlarini, ehtiyoj va qiziqishlarini hisobga olgan holda, dars jarayonida imkon beruvchi psixologik-pedagogik sharoit yaratish orqali har bir talabada takrorlanmas individuallikni tan olishdan iborat.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim talabalarni rivojlanish, o‘qitish va tarbiyalash subyekti, o‘zaro munosabat hamda subyekt – subyekt munosabati jarayonida tashqi dunyoga munosabati bo‘yicha o‘z intilishlarini amalga oshirishni tan olishni nazarda tutadi[23].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugungi kun tibbiy ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalashning asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

---

[23] Екимова Н. Научное обоснование непрерывного профессионального развития специалистов сестринского дела в условиях оказания высокотехнологичной медицинской помощи. Дисс... канд.мед.наук. -Самара, 2020. -147.с.

– «tibbiy ta’limni industrlashtirish», ya’ni kompyuterlashtirish va texnologiyalashtirish asosida hozirgi zamon jamiyatining aqliy faoliyatini kuchaytirish;

– tibbiy ta’limning hozirgi vaqtgacha ustunlik qilgan axborot beruvchilik shakllaridan faol o‘qitish metodlari va shakllariga o‘tish. Bu yo‘nalish «xotira maktabi»dan «tushunish maktabi», «tafakkur maktabi»ga o‘tishdan iborat;

– o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish va boshqarishda qat’iy belgilangan nazorat usullaridan rivojlantiruvchi, faollashtiruvchi, takomillashtiruvchi usullarga hamda o‘yin usullariga o‘tish.

– ta’lim oluvchi va pedagog o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish, ya’ni ta’lim oluvchilarni birgalikdagi jamoa faolligi sifatidagi ishtirokini ta’minlash. Bunda asosiy urg‘u o‘qituvchining bilim berish faoliyatidan talabaning bilim olish faoliyatiga o‘tkaziladi.

Insonning aqliy rivojlanishi qirralarini, jihatlarini o‘rganadigan boshqa fanlardan farqli o‘laroq, Hamshiralik ishi fani talabaning shaxsi, uning taraqqiyot bosqichlari bilan shug‘ullanadi. Shu bilan birga u pedagogika, psixologiya va fiziologiya bilan ham bevosita va bilvosita bog‘liq bo‘lib, mutaxassislik fanlarining oliy asab (nerv) faoliyatining rivojlanishi, asab sistemasining o‘ziga xosligi, birinchi va ikkinchi signal sistemalar haqidagi, shuningdek sezgi organlarining, tayanch harakat apparatlarining, yurak qon-tomir hamda nafas olish sistemalarining faoliyati, rivojlanishi haqidagi ma’lumotlarga suyanadi.

Psixologik hodisalarning hamshiralik asoslarini bilish tibbiy pedagogika uchun tarbiya va ta’limning ba’zi bir omillarini yaqqol, aniq bilib olish, tushunish imkoniyatini yaratadi hamda ta’lim-tarbiya jarayonini samaradorligini oshirishning ko‘pgina muammolarini muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradi.

O‘quv muassasasidagi o‘quv jarayonida ta’lim, tarbiya va ma’lumot o‘zaro bog‘liq ravishda amalga oshiriladi. Har qanday fan o‘rgatilishi mobaynida pedagog tarbiyalanuvchilar dunyoqarashini shakllantiradi, madaniy xulq-atvorini tarbiyalaydi.

Hamshiralik ta'limi - bu bilim va ko‘nikmalarning etishmasligi bilan bog'liq

bemorlarning muammolarini hal qilish uchun hamshira tomonidan tashkil etilgan jarayon. Hamshiralik ta'limining vazifalari bemorlarni buzilgan ehtiyojlarni qondirish uchun o‘z-o‘zini parvarish qilishga tayyorlash, ularning hayot sifatini yaxshilash, sog'lig'ini yaxshilash yoki o‘zgargan holatga moslashishga qiziqishlarini rivojlantirishdir.

Bemorga va uning qarindoshlariga hamshiralik parvarishi elementlarini o‘rgatish mazmuni bemorning sog'lig'ining ma'lum darajasini, kasallik bilan bog'liq bo‘lgan bemor uchun yangi sharoitlarda munosib hayotni ta'minlaydigan hayot sifatini saqlashdan iborat. Psixologik jarayonlarning ta’siri bemor va uning qarindoshlari bilan hissiy va psixologik munosabatlarni o‘rnatish qobiliyati bilan bog‘liq maqsadlarni amalga oshirishda namoyon bo‘ladi: psixologik xavfsizlik muhitini yaratish; salbiy baho berishdan bosh tortish; muloqot uslubidan teng (sheriklik sifatida) foydalanish; psixologik-ekspress diagnostika o‘tkazish; bemorlarni psixologik muammolarini ko‘rish, tushunish va agar kerak bo‘lsa tibbiy psixologlar uchun vazifani belgilab berish.

Yo‘qotilgan tana funksiyalarini tiklash, shaxsning atrof-muhit bilan uyg'unligi uchun shart-sharoit yaratish uchun hamshira va o‘quv jarayoniga jalb qilingan barcha shaxslar yordamida shakllantirilgan ko‘nikma va qobiliyatlar alohida ahamiyatga ega. Hamshira o‘qituvchi-pedagog vazifasini bajarib, hamshiralik ishining ajralmas elementlari - tibbiy etika, deontologiya va hamshiralik falsafasini doimo yodda tutishi, muloqot madaniyati va yuksak ijodiy salohiyati bilan ajralib turishi kerak.

Hamshiralik ta’limidagi islohotlar davrida hamshiraning vazifalari kengaymoqda. Jamiyatimizning turli sohalarida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar hamshiralik strategiyasini belgilaydi. Hamshira o‘z vazifalarini qanchalik malakali va professional tarzda bajarishi, ma’lum bir tibbiyot muassasasida hamshiralik parvarishi va hamshiralik jarayoni shunchalik samarali bo‘ladi.

Hamshiralik jarayoni kelajakdagi hamshiralik ishining rasmini shakllantiradi, bu yerda hamshiralik faoliyati (aralashuvi) usullaridan biri bemorlar va ularning qarindoshlarini tarbiyalash, bevosita muloqot qilishdir.

Bemorni kasallik tufayli yo‘qolgan o‘ziga xizmat qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan harakatlarni bajarishga o‘rgatish uchun hamshira bemorning tarbiyalash sohalarini bilishi kerak. Ushbu sohalar Hamshiralik ishi fanini o‘rganish davomida yanada rivojlanadi:

- kognitiv soha - bemorning atrof-muhitdan olingan bilim va ta’surotlardan foydalangan holda tahlil qilish va sintez qilish, shuningdek, mavhum fikrlash qobiliyatiga qaratilgan.

- emotsional soha - kayfiyatni tavsiflaydi, shaxsning hissiy xususiyatlariga bog'liq: ta'sirchanlik, sentimentallik, sezgirlik, qo‘pollik va boshqalar. Bemorni kuzatgan holda, hamshira tashqi ko‘rinishdagi o‘zgarishlarni qayd etadi:

jaxldorlik - hissiy sohaning buzilishi, ruhiy kasalliklar, xarakter va tarbiyadagi nuqsonlar, yomon sog'liq tufayli muloqot qilish zarurati buzilganligini ko‘rsatadi;

qo‘rqib ketgan - qo‘rquvni, psixikadagi o‘zgarishlarni (fobiya, nevroz va boshqalar), temperament xususiyatlarini (melanxolik), shubhalilikni, labillikni ko‘rsatadi;

apatik - temperamentda ko‘pincha "flegmatik", sohada patologik o‘zgarishlar (apatiya), iroda patologiyasi (abuliya yoki gipobuliya), shuningdek individual xarakter xususiyatlari bo‘lishi mumkin; chalkash - qo‘rquvni ko‘rsatadi (bo‘lajak tekshiruvlarning mohiyatini bilmaslik, davolash rejasi, kasallikning prognozi va boshqalar);

o‘zi uchun joy topa olmaydi - psixomotor qo‘zg'alish, yaqinlashib kelayotgan tekshiruvlar, operatsiyalar, manipulyatsiyalar va boshqalardan qo‘rqish, og'riq, hissiy shok deb talqin etiladi; ta'sir holati - qisqa muddatli hissiy sohaning chaqnashi;

muvozanatli - xulq-atvor normasi, barqaror hissiy holat; tashvish belgilari - qo‘llarning ishqalanishi, holatdagi zo‘riqish, ovoz - beqaror hissiy holat yoki xarakter xususiyatlari (shubhalilik) belgilari bo‘lib, manipulyatsiyadan qo‘rqish, bo‘lajak tekshiruv va boshqalar mavjudligini ko‘rsatadi.

Ko‘pincha bemorlar faol ishora qiladilar, bu suhbatning borishiga to‘g'ri kelmaydi va faol gestikulyatsiya ichki kuchlanishga javoban sodir bo‘ladi. Bunday holat nevrologik kasallikni, motor-ixtiyoriy sohaning patologiyasini, hissiy sohani

(eyforiya, isteriya) ko‘rsatishi mumkin. Mushak-skelet tizimining patologiyasi, ong patologiyasi (sopor, stupor), hissiy sohaning patologiyasi (depressiya, tushkunlik), somatik va ruhiy kasalliklarning natijasi bo‘lishi mumkin. Bemor aytilganlarning so‘zlarni ma’nosini tushinib qaytarib ayta olsa, buyirilgan imo-ishoralar va xatti-harakatlarni takrorlasa bu norma xisoblanadi. Nutq бузилиши ham bemorning psixomotor sohasiga tegishli. Hamshira nutq buzilishini ajrata olishi kerak va unga izoh bera olishi kerak.

- ijtimoiy-psixologik soha bemorning fuqarolik pozitsiyasini, uning shaxsiy va ishbilarmonlik qobiliyatini, aql-zakovati, o‘zini-o‘zi qadrlashi, ishlashi, o‘qishga munosabati va boshqalarni aks ettiradi. Shaxsiy rivojlanish oiladan boshlanadi. Bemorning ruhiy holatining shakllanishiga oila ta'sir ko‘rsatadi. Zamonaviy ijtimoiy vaziyatda oila eng oliy qadriyat bo‘lib, uni yo‘qotish oila a’zolari uchun qiyin sharoitlarga olib keladi. Ularning hayoti va taqdirini izdan chiqadi. Oila hamshirasi oilaga kirib borar ekan, har bir oila a’zolariga individual pedagogik psixologik tomondan yondoshib, bemorning ijtimoiy-psixologik sohasini baholab, uning o‘zini-o‘zi qadrlashini belgilaydi.

Psixologiya eksperimental tadqiqot sohasi sifatida 1854-yilda Germaniyaning Leyptsig shahrida Gustav Fexner hissiy tajribalar haqida hukm chiqarish va ular ustida qanday tajriba o‘tkazish haqida birinchi nazariyani yaratgandan so‘ng boshlangan. Bugungi kunda Signalni aniqlash nazariyasi sifatida e’tirof etilgan Fexner nazariyasi qiyosiy mulohazaning statistik nazariyalari va uning g‘oyalari asosida minglab tajribalar rivojlanishini bashorat qildi. Keyinchalik, 1879-yilda Vilgelm Vundt Germaniyaning Leyptsig shahrida faqat psixologik tadqiqotlarga bag‘ishlangan birinchi psixologik laboratoriyaga asos soldi. Vundt o‘zini psixolog deb atagan birinchi odam ham edi. Vundtning muhim kashfiyotchisi Ferdinand Uebervasser (1752-1812) edi, u 1783-yilda o‘zini empirik psixologiya va mantiq professori etib tayinladi va Germaniyaning eski Myunster universitetida empirik psixologiya bo‘yicha ma’ruzalar o‘qidi[24].

[24] Schwarz, K. Pfister, R. Scientific psychology in the 18th century: a historical rediscovery. Perspectives on Psychological Science. № 11 (3). 2016. -P. 399.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugungi kunda ta’lim jarayonida mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalashda Hamshiralik ishi fani oldida turgan quyidagi dolzarb muammolarni belgilash mumkin:

– tibbiy ta’lim maskanlarida talabalarni o‘qitish, shaxs sifatida shakllantirish (ijtimoiylashuv) jarayonini hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan metodlar (uslublar, shakllar), vositalar, usullarni yangi mazmun bilan boyitish, monologik o‘qitish tizimidan dialogik, innovatsion (yangilikka asoslangan), hamkorlik (o‘qituvchi bilan talabalar faoliyatini uyg‘unlashtirish) singari ta’limning yangi turlariga o‘tish;

– hamshiralik ishi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha o‘quv rejasi, dasturi va ularga asoslanib chop qilinadigan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, ishlanmalar, ma’ruza matnlarini qaytadan ko‘rib chiqish, ularni mamlakatimiz hududlari xususiyatlarini hisobga olgan holda takomillashtirish, yanada puxtalashtirish, mutaxassislikka bevosita aloqasi bo‘lmagan o‘quv fanlarini (materiallarini) oqilona qisqartirish va ta’limda inson omilini hisobga olish;

– tibbiy ta’lim-tarbiya jarayonida talaba -talabalarda fikrlashni shakllantirish, ularni ijodiy izlanishga o‘rgatish, tanqidiy tafakkurni tarkib toptirishga erishish;

– tibbiy ta’lim muassasalarida iste’dodli talabalar faoliyatini tashkil qilish, ularda iste’dod topshiriqlari rang-barangligini ta’minlash va ularni echishni uddalash layoqatini shakllantirish, ijodiy unsurlarning mavjudligi va uzluksizligini anglab etish, bashorat qilish layoqatini rivojlantirish, talaba -talabalarni nostandart topshiriqlarni bajarishga yo‘naltirish, ijodiy izlanishni xohish, layoqat, mayl va motividan kelib chiqqan holda tashkil qilishni yo‘lga qo‘yish;

– tibbiy ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish.

– tibbiy ta’limni faol uslublar negizida qurish lozim, toki bunda o‘qituvchi bilan talaba hamkorligi ustuvor o‘rin egallaydi. Test, bahs, ishbilarmonlik o‘yinlari, murakkablashtirilgan pedagogik muammo, evristika, trening, psixodrama,

boshqotirma, fikrlar jangi kabi faol, mustaqillikka etaklovchi o‘qitish metodlari va shakllari ta’limning negiziga aylanishini ta’minlash lozim[25].

Ta’kidlash joizki, shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar orqali hashiralarni tarbiyalash bo‘yicha bugungi kunda ta’lim-tarbiya tizimidagi o‘rni kelganda, ayrim an’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiruvchi, talabalarni mustaqil fikrlashga undovchi interfaol ta’lim metodlari bilan boyitish maqsadga muvofiqdir. Zero, dars jarayonini oqilona tashkil etish, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ta’lim jarayonidagi faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda turli xil zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxslarni tarbiyalash garovidir.

Bugungi kunda raqobatchilikka asoslangan bozor iqtisodiyoti tezkor, tadbirkor, sharoitga ko‘ra ish tuta biladigan, maqsadga erishish yo‘l, usul va vositalarini zudlik va oqillik bilan yangilay oladigan faol shaxslarga muhtojlik sezmoqda. Shuning uchun G‘arb davlatlarida ta’lim va tarbiya tizimiga bixevioristik yondashuvdan kognitiv yondashuvga qarab siljish kuzatilmoqda. Inson faoliyatini baholashda kognitivizm o‘tgan asrning 60-yillarigacha bo‘lgan pedagogika va psixologiyada hukmron bo‘lgan bixevioristik yondashuvdan quyidagicha farqlanadi:

a) bixevioristik yondashuvda inson xatti-harakatlari tashqi muhit ta’siri bilan belgilanadigan, ko‘p hollarda ongsiz reaksiyalar majmuasi sifatida tushuniladi;

b) kognitiv yondashuvda bu xatti-harakatlarda onglilik, ta’lim asosida hosil qilingan malaka va ko‘nikmalar ustunligi tan olinadi[26].

Bulardan ko‘rinib turibdiki, bixevioristik yondashuvda inson ta’lim-tarbiyasi sust, kognitiv yondashuvda esa ular faoldir. Bozor iqtisodiyotida yashash sharti esa insoniy faollikni talab qiladi. Shuning uchun ham AQSH va boshqa G‘arb

---

[25] Schwarz, K. Pfister, R. Scientific psychology in the 18th century: a historical rediscovery. Perspectives on Psychological Science. № 11 (3). 2016. -P. 407.

[26] Борисов Ю.Инновационные технологии обучения в системе подготовки бакалавров сестринского дела // Международный журнал экспериментального образования. – 2021. № 4 – С. 60.

davlatlarida o‘tgan asrning 60-yillaridayoq kognitivizm zudlik bilan pedagogika, pedagogik psixologiya va didaktika tizimlariga kirib kela boshladi[27].

O‘sha davrda ancha ommalashgan ta’limning verbal (ya’ni, ta’lim-tarbiya jarayonidagi kommunikativ muloqotda ta’lim oluvchining faolligi va o‘zligini namoyon qilishga yo‘naltirish) usullari bilan birlashib, pedagogik psixologiyada ongli, verbal, kognitiv ta’lim yo‘nalishlari shakllandi. Mazkur yo‘nalishda ta’limni tashkillashtirish, ta’lim usullarini to‘g‘ri tanlash va qo‘llash, ta’lim sifatini oshirish, ta’lim jarayonida mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalashda quyidagilar ta’lim markaziga ko‘tarildi:

– kognitivlik – shaxsni fikr yuritish jarayoniga yetaklaydigan, bilish faoliyatini noaniq, noma’lum yangi unsurli masala mohiyatiga kirishga undaydigan va ularni hal qilishga yo‘naltiradigan hamda bilim va ma’lumotlarning shaxs ongi, mustaqil fikr yuritishi, ijodkorlik qobiliyatining o‘sishiga va aqliy jihatdan taraqqiy etishiga olib keladigan ta’limiy faoliyatdir;

– dialogli ta’lim – o‘quv mavzusi yoki muammoni guruh sharoitida o‘qituvchi bilan birgalikda va hamkorlikda muhokama qilish orqali ta’lim oluvchilarni nafaqat faollashtirish, balki ijodiy muhit yaratish va fikrlar almashinuvini ta’minlash orqali har bir ta’lim oluvchining manfaatdorligini ta’minlash. Bu orqali talaba -talaba o‘quv jarayonining ob’ektidan uning subyekt iga aylanadi;

– onglilik – ta’lim jarayoniga ongli munosabatni namoyon qilish, berilgan topshiriq yoki vazifalarni fikriy jarayondan o‘tkazish orqali induktiv xulosalar chiqarishga layoqatlilik[28].

Tabiiyki, yuqoridagi mezonlar talabalarda mustaqil va erkin fikrlash, faollik va o‘z nuqtai nazarini tahlil qilishga imkon yaratib, ularda tashabbuskorlik, bilimdonlik hamda o‘z aqliy imkoniyatlaridan to‘liqroq foydalanish imkoniyatini ta’minlaydi.

---

[27] Богданова Е. Потенциал сестринского дела и современные стандарты подготовки медиков высшего звена // Современные проблемы науки и образования. – 2016. – № 5 – С. 63

[28] Carol Neil. Nurse teachers in higher education without clinical competence, do they have a future? // Nurse Education in Practice. Volume 10, Issue 4, July 2020. - P.192

Hamshiralik ishi orqali mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashda ta'limni tashkil etish, ta'lim jarayonida ta'limning interfaol usullaridan keng foydalanish ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalashning asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi.

O'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish va boshqarishda qat'iy belgilangan nazorat usullaridan rivojlantiruvchi, faollashtiruvchi, takomillashtiruvchi usullarga hamda o'yin usullariga o'tish. Bu esa ta'lim oluvchilarning tashkiliy-ijodiy, mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlash va uni rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.

Hayotni bugun ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Shu bilan bir qatorda, globallashuv sharoitida ta'lim shaxsni har tomonlama voyaga yetkazish, unda komillik va malakali mutaxassisga xos sifatlarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Bugungi tezkor davr esa talabalarni ham qisqa muddatda va asosli ma'lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan turli fan asoslarini puxta o'zlashtirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda. Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda. O'zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta'lim shaxsga yo'naltirilgan ta'lim deb nomlanadi.

Bugungi kunda tibbiy ta'lim muassasalarning ta'lim berish faoliyati yanada takomillashtirilib, xalqimizning asrlar davomida shakllangan ilm sari intilish fazilati yana bir bor namoyon bo'lmoqda. Yoshlarimiz sog'lom hamda go'zal turmush kechirish, egallagan kasbi bo'yicha doimiy ish o'rniga ega bo'lish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, insoniy qadr-qimmatini kamsitishga yo'l qo'ymaslik, ya'ni, komillikka erishish uchun harakat qilyapti va bu jarayonda ta'lim olishni eng asosiy shart sifatida ko'rmoqda.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlar jamiyat hayotining barcha soxalari uchun, shu jumladan tibbiyot soxasida ham, kadrlar tayyorlash ishini zamonaviy darajada olib borishni talab qiladi. Shu munosabat bilan mutaxassislar tayyorlash jarayonida ilgor ta’lim texnologiyalaridan unumli foydalanishni tashkil etish dolzarb vazifalardan biri xisoblanadi.

Tibbiy ta’lim jarayonining bugungi vazifalaridan biri talabalarni kun sayin oshib borayotgan axborot-ta’lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o‘rgatishdan iborat. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur. Bundan esa, ta’lim jarayonida ta’lim oluvchining diqqat markazida bo‘lishini hamda yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta’minlash ta’lim samaradorligini oshirish uchun muhim ekanligi ma’lum bo‘ladi. Ta’lim jarayonida ta’lim oluvchining diqqat markazida bo‘lishini ta’minlash uchun ta’lim muassasalariga o‘z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol ta’lim metodlarini biladigan, ulardan o‘quv va tarbiyaviy mashg‘ulotlarni tashkil etishda samarali foydalana oladigan o‘qituvchilar kerak.

Tibbiy ta’lim metodlaridan Hamshiralik ishi fanida tegishli maqsadlarda samarali foydalanish uchun har bir metodning tarkibiy tuzilishi to‘g‘risida zarur tushunchalarga ega bo‘lish talab qilinadi. Ta’lim metodlari ta’lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishning tegishli pedagogik psixologik va ilmiy-metodik asoslariga ega. Ular ko‘zlangan maqsadlarga erishish yo‘lidagi murakkab, ko‘p qirrali, ko‘p sifatlarga, xususiyatlarga ega bo‘lgan faoliyat turidir. Shu munosabat bilan ta’lim metodlarining tarkibiy tuzilishiga doir umumiy ma’lumotlarni qisqacha keltirib o‘tamiz. Ta’lim metodlari turli tarkibiy tuzilishga ega bo‘lib, ular usul, yo‘l, bosqich, bo‘lak, qism, modul, algoritm kabi tushunchalar bilan ifodalanadigan tarkibiy elementlarni o‘z ichiga oladi. Ular orasida usullar alohida ajralib turadi.

Tibbiy ta’limda Hamshiralik ishi fanidagi eng muhim yangiliklardan biri oliygohlar va ta’lim tizimining quyi bo‘g‘inlari o‘rtasidagi uzviylikni kuchaytirish maqsadida akademik litsey oliy o‘quv yurtlari tasarrufiga o‘tkazilishi, shuningdek,

texnikum ham o‘z yo‘nalishi bo‘yicha turdosh oliygoh va tarmoq korxonalariga biriktirilishi bo‘ldi.

Shuni aytib o‘tish lozimki, tibbiyot oliy ta’lim muassasalaridagi o‘qitish metodlari o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, nafaqat dars berish usullari va uslublarini birlashtiradi, balki ular bilimlarni o‘zlashtirishning o‘quv va ilmiy faoliyatga yo‘naltirilgan tizimini ham anglatadi. Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida Hamshiralik ishi fanida talaba zamonaviy fanni o‘rganadi va ixtisoslik bo‘yicha ta’lim oladi. Shuning uchun ham tibbiyot oliy ta’lim muassasalaridagi o‘qitish usullari bilimlarni yetkazish va anglashning usullarigina emas, balki fan taraqqiyoti jarayoniga tobora kirib borish, uning metodologik va g‘oyaviy asosini ochib beruvchi yo‘nalish ham hisoblanadi.

Tibbiyot oliy ta’lim muassasalaridagi o‘qitish metodlarini asoslashda didaktika bilan shug‘ullanuvchi qator olimlar oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari va talabalarning bilish faoliyatini o‘rganagan holda talabalarning kasbiy va shaxsiy tayyorgarligi masalalariga katta ahamiyat beradilar. Talabalarning faol ijodiy bilish faoliyati hamda ularning mustaqil ishlaridan iborat kasbiy ta’lim jarayoni ta’lim metodlari ikki guruhga farqlanadi: o‘qitish metodlari va o‘rganish metodlari.

O‘qitish metodlari bilimlarni berish usullari sifatida qaraladi va talabalarning ilmiy bilish faoliyatiga rahbarlik qilishga qaratilgan bo‘ladi hamda o‘quv jarayonida pedagogning talabalarga ta’sir ko‘rsatish usullarini shakllantiradi.

O‘rganish metodlari o‘qitish metodlaridan farqli ravishda bilim, malaka va ko‘nikmalarni ijodiy egallashga hamda metodik va g‘oyaviy-siyosiy e’tiqodlarni ishlab chiqishga qaratilgan talabalarning ilmiy bilish faoliyati usuli sifatida o‘rganiladi.

Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida o‘qitish metodlari va shakllari qo‘shilib ketadi, ya’ni oliy ta’lim muassasalaridagi dars berish metodi ayni zamonda o‘qitishning tashkiliy shakli ham hisoblanadi.

Tibbiyot oliy ta’lim muassasalaridagi o‘qitish metodlari o‘ziga qo‘shimcha yuklama-mashg‘ulotni tashkil etishni ham qamrab oladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni inobatga olgan holda shuni ta'kidlashimiz kerakki, tibbiyot oliy ta'lim muassasalaridagi o'qitish metodlari tasnifi masalasi o'zining dolzarbligini xozirgacha saqlab qolgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tibbiy ta'limdagi Hamshiralik ishi fanini o'qitish metodlari tasnifiga didaktik yondashuvlar, umumdidaktik yondashuvlarga monelik qilmaydi, balki ularni rivojlantiradi. Ular o'quv jarayonining xususiyatlari, ularning didaktik vazifalari xarakteriga asoslanadi. Bu jarayonda Hamshiralik ishi fanini quyidagi tasniflarga bo'lish maqsadga muvofiq sanaladi:

1. Bilimlarni berish, idrok etish va o'zlashtirish hamda e'tiqodni shakllantirishni ta'minlovchi metodlar. Bu metodlarga ma'ruza, talabalarning mustaqil ishlari, mustaqil ta'lim olish bo'yicha ishlari, ishlab chiqarish jarayonlarini kuzatish, maslaxatlar, ko'rsatma berish, ommaviy axborot vositalari, dasturlashtirilgan materiallarni idrok etish va boshqalar kiradi.

2. Bilimlarni tadbiq etish va mustahkamlash, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish hamda e'tiqodni chuqurlashtirish metodlari: Bunga seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, nazorat ishlarini bajarish, o'quv xonalaridagi dasturlashtirilgan mashg'ulotlar va ishlab chiqarish amaliyoti kiradi.

3. Bilimlar, e'tiqodlarni shakllantirish va talabalarning kasbiy tayyorgarligini aniqlash metodlari. Bu o'quv jarayonining reyting baholari, suxbat o'tkazish, kurs va diplom ishlari loyixalari hamda davlat attestatsiyasi natijalarini baholashdir.

Bunda talabalarning mustaqil ishlari, vazifalari, ularning ishga ijodiy yondashuvi hal qilinadi, talabalarning shaxsiy sifatlari, bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashga bo'lgan ehtiyojlari shakllanadi hamda ularning diqqati, irodasi, xissiyoti, xotirasi, tafakkuri o'sadi.

### 1.3 - §. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali Hamshirlik ishi fanining o'qitishning zamonaviy tendensiyalari.

Hamshiralik ishi fanida pedagogik nazariya va amaliyot muammolarini tadqiq qilish ta'lim dasturlarining barcha jihatlarini qamrab olishi blan muhimdir. Hamshiralik ishi fanida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarni qo'llash - jamiyat

extiyoji va rivojlanayotgan shifokor qiziqishiga hamohang holda sun’iy tarbiyaviy jarayonni ko‘rish qonuniyatlarini o‘rganish va bu jarayonni amalga oshirish hisoblanadi. Ana shu sun’iy tarbiyaviy tizim “pedagogik tizim”, unda kechadigan jarayonlar esa “pedagogik texnologiya” deb ataladi. Pedagogik tizim tashqarisida hech qanday maqsadli ta’lim-tarbiya jarayoni kechmaydi yoxud pedagogik texnologiya bu amaliyotga joriy etish mumkin bo‘lgan pedagogik tizim loyixasidir. Uning asosida “tashxisli maqsad”, “ta’lim-tarbiya mazmuni”, “didaktik jarayonlar”, “obyektiv nazorat”, “ta’lim standartlari” kabi nazariy tushunchalar yotadi.

Bu nazariyalar tibbiyotga oid pedagogik texnologiyaning metodologik jihatlarini o‘zida aks ettiradi va yangi tadqiqot yo‘nalishlarini belgilab beradi.

Tibbiyotga oid pedagogik texnologiyaning asosiy xususiyati shuki, u ma’lumot texnologiyasini, jumladan shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasini joriy etish taktikasini ifodalab beradi va «o‘qituvchi-pedagogik jarayon – talaba” funksional tizim qonuniyatlariga tegishli bilimlar asosida quriladi. Shu nuqtai nazardan pedagogik tadqiqotlar maqsadi ana shu tizimga yo‘naltirilishi kerak, ya’ni:

- ta’limni rivojlantirishning yangi bosqichida pedagogik texnologiya mohiyati va muammolarini ko‘p bosqichli ta’lim tizimi uchun tabaqalashtirilgan yondashuv asosida ishlab chiqish:

- ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyalarini tahlil qilish asosida pedagogik texnologiyalar loyihalarini yangilab va boyitib borish;

- o‘qituvchi faoliyatini yangi pedagogik texnologiya qonuniyatlariga moslashtirish[29].

Tibbiy pedagogika fani va amaliyotida qo‘llanilayotgan «pedagogik texnologiya” atamasi inglizcha olingan bo‘lib, aynan tarjimasi “ta’lim texnologiyasi” degan ma’noni bildiradi. Hamshiralik ishi fanini o‘qitish jarayonida talabalar bilim, ko‘nikma va malakalar egallaydilar. Bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash murakkab psixologik jarayondir.

---

[29] Раҳманова Н. Педагогические основы учебно-познавательной деятельности ВУЗа.-Тошкент: Гафур Гулям, 2018. -98.б.

**Bilim** – bu obyektiv reallikning ongimizda aks etishidir. Bu bilimlar tasavvur, tushuncha shaklida bo‘lib, har bir kishining nutqida ma’lum bir tizimda aks etadi. Haqiqiy bilimlar bilish faoliyati, mustaqil fikr yuritishning natijasidir. Ular hech qachon qotib va o‘zgarishsiz qolmaydi. Formal bilimlargina ana shunday bo‘lishi mumkin. Haqiqiy bilimlar-rivojlanib boruvchi bilimlardir. Bilish jarayonida bilimlarning rivojlanishi, ularni aniqlash, oydinlashtirish, to‘ldirish va chuqurlashtirish yo‘li bilan boradi.

**Ko‘nikma**–bu bilimning harakatga kelishidir. Ko‘nikma–u yoki bu harakatni ongli va mustaqil bajarishni ta’minlaydigan uslubdir O‘qish jarayonida talaba tomonidan egallanadigan ko‘nikmalar turli-tumandir: kuzata bilish va kuzatganlardan to‘g‘ri xulosa chiqara bilish ko‘nikmasi; texnik chizmalarni tuza bilish va uni o‘qiy bilish ko‘nikmasi; o‘z fikrini yozma va og‘zaki bayon eta bilish ko‘nikmasi; masalalar echa bilish ko‘nikmasi; mexanizmlarni bo‘laklarga bo‘lish va uni ega bo‘lish ko‘nikmasi. U yoki bu ko‘nikma tarkibiga kiruvchi usullar avtomatlashib malakaga aylanadi. Masalan, harfni yozish, o‘qish va hokazolar.

**Malaka**– bu ko‘nikmaning avtomatlashgan komponenti bo‘lib, u ko‘nikmani shakllanishini muvaffaqiyatli va tez ta’minlaydi.

Bilim, ko‘nikma va malakalar murakkab o‘zaro munosabatda bo‘ladilar. Bilimlarni tegishli ko‘nikma va malakalarsiz egallash mumkin emas. Masalan, hamshiralik ishi bilimiga ega bo‘lish uchun bemor bilan muloqat qila olish ko‘nikmasiga ega bo‘lish zarur. Umuman bilimlarni egallash uchun kuzata bilish, eshita bilish, o‘qish va bayon eta bilish ko‘nikmasiga ega bo‘lish kerak.

Boshqa tomondan, ko‘pgina ko‘nikma va malakalarni egallash tegishli bilimlarsiz bo‘lishi mumkin emas. Masalan, bemorga tashxis qo‘yish va uni to‘g‘ri parvarishlash uchun tibbiy bilimga ega bo‘lish kerak.

Pedagogik amaliyotlarda tibbiy pedagogik texnologiya tushunchasiga berilgan ta’riflarni va uning muhim belgilari, xususiyatlarini quyida umumlashtirilgan holda keltiramiz.

Tibbiy pedagogik texnologiya – bu, tibbiy ta’lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning o‘zaro ta’sirini inobatga

olib, o‘qitish va bilim o‘zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo‘llashning tizimili metodidir[30].

Hamshiralik ishida qo‘llaniladigan pedagogik texnologiya – o‘qituvchi mahoratiga bog‘liq bo‘lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan talaba shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir. Bu jamiyat ehtiyojidan kelib chiquvchi oldindan belgilangan kishi ijtimoiy sifatlarini samarali shakllantiradigan va aniq maqsadga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonini majmua sifatida ko‘rib, uni tashkil qiluvchi qismlari bo‘lgan o‘qituvchining o‘qitish vositalari yordamida talabalarga ma’lum bir sharoitda muayyan ketma-ketlikda va ma’lum bir pedagogik usullardan foydalanib, ko‘rsatgan ta’sirini nazoratda tutuvchi va ta’lim natijasini baholab beruvchi texnologiyalashgan ta’limiy tadbirdir.

Professor Karol Neil Hamshiralik ishi fanida qo‘llaniladigan texnologiyaga quyidagicha ta’rif beradi:

pedagogik texnologiya – amaliyotda joriy etish mumkin bo‘lgan ma’lum pedagogik tizimning loyihasidir;

pedagogik texnologiya – ta’lim-tarbiyadan ko‘zlangan maqsadga erishish uchun o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan usullar, vositalar majmuidir;

pedagogik texnologiya oldindan belgilangan, loyihalashtirilgan o‘quv-tarbiya jarayonini izchil oshirish kabilar[31].

Yuqorida keltirilgan ta’riflar pedagogik texnologiya usulining mazmunini anglash va aniqlash jarayoni hali poyoniga etmaganligidan dalolat beradi. Bu masalaga oydinlik kiritish uchun avvalo, pedagogik texnologiya usulining muhim belgilarini aniqlash talab etiladi.

Hamshiralik ishi fanini o‘qitish davomida ta’lim sifatini yaxshilash, talabalarning intellektual faolligini oshirish bugungi kunda tibbiyot pedagogikaning bosh vazifasi hisoblanadi. Intellektual faollikni oshirishda interaktiv usullardan

---

[30] Fisher A. Developing person centered learning environments in Nursing education. – New York: Springer Publishing company. 2024. - 200.p.

[31] Carol Neil. Nurse teachers in higher education without clinical competence, do they have a future? // Nurse Education in Practice. Volume 10, Issue 4, July 2020, P.195

foydalanish yaxshi samara beradi. Bu esa ta’lim jarayonida yangiliklarni joriy etishni talab etadi.

Interaktiv usullar – o‘zaro harakat, yoki hamkorlik asosida harakatni bildiradi.

Interaktiv usullarning bir qancha turi mavjud:

- “fikriy hujum” (“fikr janggi”), mojaro metodi,
- “muzokaralar stoli”,
- “uch bosqichli intervyu”,
- muammolarni hal qilish metodi,
- “stol o‘rtasidagi ruchka”,
- “galeriyani aylanish”,
- “akademik munozara”,
- “qor bo‘ron” metodi,
- “asalari galasi”,
- “munozarali vaziyatni tahlil qilish” va boshqalar kiradi[32].

Bu metodlar bo‘yicha ishlash uchun bir necha kishidan iborat guruhlar tuzib, ishonch vaziyatini vujudga keltirish, oshkora muhokama uchun xalal beradigan psixologik keskinlikni bartaraf etishh zarur.

Hamshiralik ishi fanini o‘qitish davomida ushbu guruh metodlari fikrlash doirasini kengaytirib, mavjud cheklovlarni nazardan qochirib turish, fikrlash faoliyati harakatchanligini rivojlantirish, o‘quv faoliyatini jadallashtirishga qaratilgan. Ularning samarasi yangi o‘quv axborotini ishlab chiqish va mustahkamlashdan iborat.

Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiya asosida o‘tiladigan dars jarayonida, talaba asosiy harakatlantiruvchi kuch, ta’lim jarayoni subyekti bo‘lishi kerak, ya’ni o‘qish, o‘rganish, mutolaa qilish talaba zimmasiga o‘tishi kerak.

O‘qituvchi esa o‘qitishdan o‘qishni o‘rgatishga, bilim berishdan talabalarning bilimlarini mustaqil egallashlariga ko‘maklashishi zarur. U talabani ehtiyoj tug‘dirishdan, muhit yaratishga va undan mas’uliyatni sezishga yo‘llashi kerak.

[32] Rahimov B. Pedagogik texnologiyalar sxemalarda. -Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2019. -121.b.

Har bir dars uchun ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi, ya’ni bir-biri bilan uzviy aloqada bo‘lgan uch yoqlama maqsadlar qo‘yiladi. Darsni tashkil qilish shakli uning qatnashchilarining o‘zaro aloqalariga bog‘liq bo‘lib, u maqsadlarga, o‘quv materiali xususiyatlariga, ta’lim metodlariga va o‘quv imkoniyatlariga bog‘liq. Bunga erishish uchun o‘qituvchi rahnamoligida o‘qituvchi bilan talabalar birgalikda harakat qiladilar. Xuddi mana shu jarayonni didaktikada talaba jarayoni deyiladi.

O‘quv jarayoniga bunday yangicha qarashning tub mohiyati shundan iboratki, o‘qitishda ichki motivatsiyadan diqqatni tortish, ichki tuyg‘u, istak, zaruratni shakllantirish kelib chiqish kerak.

O‘quv jarayonida asosiy harakatlantiruvchi kuch talaba uchun ham, o‘qituvchi uchun ham ichki motivatsiya bo‘lishi kerak. Bunda talabalar bilim olishga intilish va bilim olishga extiyoj bo‘lishi kerak, o‘qitish maqsadlari ichki ehtiyojga aylanishi kerak. Talaba real hayotga kirib borishi uchun bilim, ko‘nikma va malakalar bilan birga ilmiy bo‘lim metodlariga ega bo‘lishi kerakligini ongli ravishd tushunib etishi lozim. Chunki ochiq jamiyatning asosiy belgisi – bu dunyoni anglab etish va unda o‘zining munosib o‘rnini topish uchun erkin izlanishdir.

Hamshiralik ishi fanini shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar asosida o‘qitishga quyidagi asosiy tamoyillar xos bo‘ladi:

- insonparvarlik, ya’ni insonga har tomonlama hurmat va muhabbat ko‘rsatish, unga yordamlashish, uning ijodiy qobiliyatiga ishonch bilan qarash, zo‘rlashdan to‘la voz kechish;
- hamkorlik, ya’ni pedagog va talabalar munosabatidagi demokratizm, tenglik, sheriklik;
- erkin tarbiyalash, ya’ni shaxsga uning hayot faoliyatini keng yoki tor doirasida tanlab olish erkinligi va mustaqillikni berish, natijalarni tashqi ta’sirdan emas, ichki hissiyotlardan keltirib chiqarish. Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarning kommunikativ asosi - pedagogik jarayonda talabaga insoniy-shaxsiy yondashuv hisoblanadi[33].

[33] Борисов Ю.Инновационные технологии обучения в системе подготовки бакалавров сестринского дела // Международный журнал экспериментального образования. – 2021. – № 4 – С. 57.

Hamshiralik ishi fanini shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar asosida o‘qitishda ta’limga, o‘quv dasturlariga, dars jarayonlariga qat’iy ravishda OTM, uni nazorat qiluvchi tashkilot va o‘qituvchi hohishi nuqtai nazaridan yondashiladi. Bunda talabalar nimani, qancha, qanday usulda o‘rganishi kerakligi masalalarini belgilashda mehnat bozori vakillariva talabalarning extiyojlar, fikrlari ko‘p ham e’tiborga olinmaydi. Ta’lim jarayonini boshqarish va tashkil etish ancha markazlashgan tarzda amalga oshiriladi. Bunda yana o‘qituvchiga bilimning yagona manbai sifatida qaraladi. Talabalar asosan nofaol tinglovchi sifatida shakllanadi chunki ta’lim jarayonlari unlarni faollikka undamaydi (darslar asosan ma’ruza shaklida tashkil etiladi). Bunday ta’lim tizimida talabalarda mustaqil fikrlash, o‘z fikrlarini ifoda etish, munozaraga kirishish, muammolarga tanqidiy yondashish, o‘zlari uchun o‘zlari qaror qabul qilish saloxiyatlari shakllanmaydi.

Talabaga yo‘naltirilgan ta’lim bu o‘qituvchiga yo‘naltirilgan ta’limning teskarisi desak to‘g‘ri bo‘ladi. Ushbu tizimda ta’limga OTM, uni nazorat qiluvchi tashkilot yoki o‘qituvchilar nuqtai nazaridan emas balki talabalar nuqtai nazaridan yondashishni talab etadi. OTMlar, ularni nazorat qiluvchi tashkilotlar va o‘qituvchilar ta’lim jarayonlarini tashkil etuvchisi bo‘lsalarda, ular asosan muvofiqlashtiruvchi vazifasini o‘taydilar, ya’ni o‘quv dasturlari, hususan talaba nimani, qancha, qanday usulda o‘rganishi kerakligi talabalarning qiziqishlari, ehtiyojlari, mutahasislik va mehnat bozori talablarini chuqur tahlil qilgan holda, ya’ni “pastdan tepaga” qarab (bottom up) shakllantiriladi. Bunda yana o‘qituvchiga bilimning yagona manbai sifatida qaralmaydi. Talabalar ta’lim jarayonlariga faol jalb etiladi.

An’anaviy ta’limda o‘qituvchiga yo‘naltirilgan o‘qitish katta ag‘amiyat kasb etadi. Bunda muhokama mazmuni va tuzilishi ustidan nazorat olib boriladi. Kimningdir mutaxassis bo‘lishi zarurligiga asoslanadi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda bu fikr inkor etilmaydi; o‘qituvchining mutaxassis ekanligini tan oladi, ammo talaba markaziy ob’ekt sifatida qaraladi.

An’anaviy ta’limda talaba mutaxassis va ma’lumot manbai sifatida ko‘riladi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasining asosiy tamoyili talaba

shaxsiyatidagi individuallikni tan olishdir. Shaxs yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvi variantlilik va aql tavsifi tamoyillari asosida ish ko‘radi. Bunda variantlilik talabalarning individual xususiyatlari va tajribalariga qarab barcha uchun bir xil bo‘lmagan ta’limning turli modellaridan foydalanishni anglatsa, aql tavsifi bu talabalarning bilish, birgalikda harakat qilish va borliqni emotsional o‘zlashtirish jarayoniga qaratilgan texnologiyadir.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim modeli talabaning shaxsiy xususiyatlarini ochib berish va rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan. Bu modelda asosiy tushunchalar quyidagilar: talabaning sub’ek sifatidagi tajribasi, shaxsiy rivojlanish traektoriyasi va aqliy tanlov.

**1.3.1-jadval**

| **An’anaviy yondashuv** | **Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv** |
|---|---|
| Ta’limga muayyan qolipga tushirilgan jarayon sifatida qaraladi (o‘zining aniq tartib qoidalariga ega) | Ta’lim talabaga individual munosabat, uni shaxs sifatida takomillashtirish bo‘yicha pedagogik qo‘llab-quvvatlashga qaratiladi |
| Talabaning rivojlanish vektori oldindan o‘rnatilgan bo‘ladi | O‘qitish uchun zarur bo‘lgan rivojlanish vektorini oldindan belgilamaydi, balki rivojlanish vektori uchun barcha zarur shart sharoitlarni yaratish |
| Barcha uchun umumiy, yagona va majburiy bo‘lgan aqliy rivojlanish yo‘li belgilanadi | Har bir talabaning mavjud salohiyatidan kelib chiqib individual qobiliyatlarini takomillashtirish, shaxs sifatida rivojlanishiga ko‘maklashish |
| Ta’limning rivojlanish vektori oldindan belgilanadi | Rivojlanish vektori talabaning rivojlanishiga yordam beruvchi pedagogik ta’sirlarni aniqlashga quriladi |
| Ta’limga oldindan belgilangan xususiyatlarga ega shaxsni shakllantirish vazifasi qo‘yiladi | Ta’limga talabaning shaxsiy rivojlanishini ta’minlash, strategic faoliyat qobiliyatini rivojlantirish, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash |

| | |
|---|---|
| | tizimi, o‘z-o‘zini aniqlash qobiliyati, o‘z-o‘zini rivojlantirish, ijobiy “Men”ini anglash vazifasi qo‘yiladi |

Shaxsga yo‘naltirilgan dars mashg‘uloti an’anaviy darsdan, avvalo, o‘qituvchi-talabalarning o‘zaro munosabatlar turini o‘zgartirishi bilan farqlanadi. Jamoaviy yondashuv uslubidan o‘qituvchi hamkorlik uslubiga o‘tadi, talabaning faoliyat jarayoni sifati natijalarning ko‘pligiga emas,balki tahlilga ko‘proq e’tibor qaratilishi bilan ajralib turadi. Talaba dars jarayonida tirishqoq ta’lim oluvchidan ijodkor ta’lim oluvchiga o‘zgaradi. Dars jarayoni rivojlantiruvi maqsadining xususiyatlari ham o‘zgaradi. Eng asosiysi, o‘qituvchi vazifasi nafaqat bilim berish, balki talabalar shaxsining rivojlanishi uchun munosib sharoit yaratishdan ham iborat bo‘ladi.

Quyida jadvalda an’anaviy va shaxsga yo‘naltirilgan darslar o‘rtasidagi asosiy farqlar ko‘rsatilgan.

**1.3.2-jadval**

| An’anaviy dars | Shaxsga yo‘naltirilgan dars |
|---|---|
| Barcha talabalarga bilim, ko‘nikma va malakalarning belgilangan miqdorini o‘rgatadi | Har bir talabaning o‘z shaxsiy tajribasining samarali to‘planishiga ko‘maklashadi |
| O‘quv vazifalarini, talabalarning ish shaklini belgilaydi va ularga topshiriqlarni to‘g‘ri bajarish namunasini ko‘rsatadi | Talabalarga turli tarbiyaviy vazifalar va ish shakllarini tanlashni taklif etadi, talabalarni bu vazifalarni hal etish yo‘llarini mustaqil topishga undaydi |
| Talabalarni o‘zi taklif etayotgan o‘quv materialiga qiziqtirishga harakat qiladi | Talabalarning real manfaatlarini aniqlash va ular bilan o‘quv materialini tanlash va tashkil etishni muvofiqlashtirishga intiladi |
| Iqtidorli talabalar bilan individual mashg‘ulotlar olib boradi | Har bir talaba bilan individual ish olib boradi |

| | |
|---|---|
| Talabalar faoliyatini rejalashtiradi va boshqaradi | Talabalarning o‘z faoliyatini rejalashtirishiga yordam beradi |
| Talabalarishi natijalarini baholaydi, yo‘l qo‘yilgan xatolarni qayd etadi va tuzatadi | Talabalarni o‘z ishlari natijalarini mustaqil baholashga va yo‘l qo‘yilgan xatolarni tuzatishga undaydi |
| Guruhdagi xulq-atvor qoidalarini aniqlaydi va ularning talabalarga mosligini nazorat qiladi | Talabalarni xulq-atvor qoidalarini mustaqil ishlab chiqishga va ularning muvofiqligini nazorat qilishga o‘rgatadi |
| Talabalar o‘rtasida paydo bo‘lgan nizolarni hal qiladi: aybsizlarni rag‘batlantiradi va aybdorlarni jazolaydi | Talabalarni ular o‘rtasida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarni muhokama qilishga va ularni hal qilish yo‘llarini mustaqil izlashga undaydi |

Bunday dars mashg‘ulotlarida foydalaniladigan didaktik materialning maqsadi o‘quv dasturini ishlab chiqish, talabalarga kerakli bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘rgatishdan iborat. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda didaktik materialning turlari o‘quv matnlari, topshiriq kartochkalari, didaktik test kabilardan iborat. Vazifalar mavzu bo‘yicha, murakkablik darajasi bo‘yicha, foydalanish maqsadi bo‘yicha ko‘p darajali, tabaqalashtirilgan, individual yondashuv, talaba o‘quv faoliyatining etakchi turini (kognitiv, kommunikativ, ijodiy) hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Bu yondashuvning markazida bilim, ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirishda erishilganlik darajasini baholash qobiliyati turadi. O‘qituvchi talabalar o‘rtasida vazifalarni tarqatadi, ularning bilish xususiyatlari va imkoniyatlarini bilib oladi, nafaqat bilim olish darajasini aniqlaydi, balki har bir talabaning shaxsiy xususiyatlarini hisobga oladi, faoliyatning shakl va usullarini tanlash orqali uning rivojlanishi uchun eng munosib sharoitni yaratadi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasi o‘quv matni, undan foydalanish uchun didaktik va metodik materiallar, o‘quv muloqoti turlari, talabaning shaxsiy rivojlanishini nazorat qilish shakllarini o‘z ichiga oladi. Talabalarning olgan bilimlari kundalik hayotning real vaziyatlarida foydalanishlari uchun kerak.

Bugungi kunda oliy ma’lumotli hamshiralarni tayyorlashda qo‘llaniladigan asosiy o‘qitish usullari kelib chiqishiga ko‘ra bixeviorizmga ega. Aksariyat o‘qituvchilar o‘zlariga o‘rgatilgandek dars berishadi, ya’ni bilim berishadi va keyin baholash uchun test o‘tkaziladi.

Faqat an’anaviy usullardan foydalangan holda hamshiralik ishni o‘rgatish ulardan statistlarni keltirib chiqaradi. O‘qitish va baholashda esa xulq-atvor ma’lum o‘rin tutadi. Tez o‘zgaruvchan sog‘liqni saqlash muhitiga moslashish uchun hamshiralarda moslashuvchanlik va egiluvchanlik qobiliyatini rivojlantirish zarur[34]

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida talabalar o‘z tajribalari va bilimlarini shakllantirishlari katta ahamiyatga ega. Ularga o‘rgatilganda, o‘qituvchilar ushbu xususiyatdan o‘rganish tajribasini loyihalashda foydalanishlari mumkin.

Talabalarga yo‘naltirilgan o‘qitish hamshiralik ishi bo‘yicha talabalarga tushunchalarini sinab ko‘rishga yordam beradi o‘qituvchi, boshqa talabalar va amaliyotchi hamshiralar bilan o‘zaro munosabatlar o‘rnatishga yordam beradi.

Hamshiralik ishi fanida talabaga qaratilgan ta’lim orqali o‘qitish turi guruhli ish yoki muammoli o‘rganish kabi o‘ziga xos o‘qitish usulini anglatadi. Shuning uchun bu olimlar tomonidan talaba ga yo‘naltirilgan o‘qitish turli xil o‘qitish strategiyalarini o‘z ichiga olgan ramka deb qaraladi. An’anaviy usullar ko‘pincha asosan ma’ruza sifatida tavsiflanadi. Shu bilan bir qatorda u munozara, ish tadqiqotlar sifatida tavsiflangan boshqa o‘qitish usullari ham bir qismi bo‘lishi mumkin.

Hamshiralik ishi fanini ananaviy ta’lim orqali o‘qitish talabalarga beriladigan vaziyatli masalalar olingan bilimlarni mustahkamlash va malakalar hosil qilish uchun xizmat qilsa, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda talabalarga qo‘yilgan muammoli masalalar esa talabani o‘z ustida ishlashga faqat yangi echimlar va ilmiy izlanishlar olib borishga qaratiladi. O‘quv materialini muammoli taqdim etilishining mohiyati shundaki, unda o‘qituvchi bilimlarni tayyor holda taqdim etmasdan, talabalar oldiga muammoli masalalar qo‘yadi, ular yechimining yo‘llari va vositalarini izlashga

---

[34] Boore J. Nursing education: Planning person centered education // Nurse Education Today. Volume 14, Issue 5, October 2014. - P.396.

undaydi. Muammo, yangi bilimlar va harakat usullar sari, oʻzi yoʻlga boshlaydi. Shuni qat'iyatlik bilan ta'kidlash lozimki, bu erda yangi bilimlar ma'lumot uchun emas, balki muammo yoki muammolarni echimi uchun beriladi. Bundan koʻrinib turibdiki, an'anaviy ta'lim jarayonida bilimlardan muammoga qarab talabalar mustaqil ilmiy izlanish koʻnikma va malakalarini hosil qila olmaydi, chunki ularga oʻzlashtirish uchun tayyor natijalar taqdim etiladi.

Hamshiralik ishi fanida muammoning yechimi ijodiy fikrlashni taqozo etadi. Oʻzlashtirilgan bilimlar shablonlarini takrorlash bilan bogʻliq boʻlgan reproduktiv psixik jarayonlar, muammoli vaziyatlarda hech qanday samara bermaydi. Agar inson muntazam tayyor bilim va koʻnikmalarni oʻzlashtirishga oʻrgatilgan boʻlsa, uning tabiiy ijodiy qobiliyatini soʻndirish ham mumkin; u mustaqil fikrlashni "esdan chiqaradi". Fikrlash jarayoni muammoli masalalarni echishda a'lo darajada namoyon boʻladi va rivojlanadi.

Muammoli oʻqitishda kechadigan jarayonlarning psixologik mexanizmi quyidagicha boʻladi:

inson ziddiyatli, yangi, noma'lum muammoga (muammo – murakkab nazariy yoki amaliy masala boʻlib, yashirin ziddiyatlarni qamrab oladi, uning echimi turli, hatto muqobil vaziyatlarni talab etadi) duch keladi, unda hayratlanish, ajablanish holati paydo boʻladi, «gap nimada?» degan savol tugʻiladi. Talaba noma'lum echimni topish uchun mustaqil yoki oʻqituvchi yordamida izlanadi. Muammoni jamoaviy hal etishda paydo boʻluvchi, subyekt-obekt-subyekt munosabatlari ijodiy fikrlashni faollashtirishga olib keladi.

Muammoli oʻqitishning asosiy belgisi, bu ilmiy, oʻquv yoki barcha faoliyat turlarida paydo boʻladigan zaruriy obyektiv qarama-qarshiliklar aksi hisoblanadi. Bu esa barcha sohalarning harakatlantiruvchi va rivojlantiruvchi manbaidir. Shu sababli muammoli oʻqitishni rivojlantiruvchi deb atash mumkin, zero uning maqsadi – bilimlarni, farazlarni shakllantirish, ularni ishlab chiqish va echishdan iboratdir. Muammoli oʻqitishda fikrlash jarayoni faqat muammoli vaziyatni echish maqsadida joriy etiladi, u nostandart masalalarni echish uchun zarur boʻlgan fikrlashni shakllantiradi.

Hamshiralik ishi fanida muammoli o‘qitish samaradorligining to‘rtta bosh sharti mavjud:

• muammo mazmuniga qarab etarli qiziqish uyg‘otishni ta’minlash;

• muammo yechimidagi har bir bosqichda paydo bo‘ladigan ishlarni bajara olish mumkinligini ta’minlash (ma’lum va noma’lumlar nisbatining maqbulligi);

• muammo yechimida olinadigan axborotni talaba lar uchun muhimligi;

• pedagog va talaba orasidagi munosabat xayrixohlik ruhida kechishi, ya’ni talaba lar tomonidan bildirilgan barcha fikr va farazlar e’tibor va rag‘batsiz qolmasligi zarur[35].

Muammoli o‘qitishning bosh psixologik-pedagogik maqsadlari quyidagilardan iborat:

• talabaning fikrlash doirasini va qobiliyatlarini o‘stirish, ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantirish;

• muammoni mustaqil echishda va faol izlanish davrida olingan bilim va ko‘nikmalarni talabalar tomonidan o‘zlashtirilishi, buning natijasida ushbu bilim va ko‘nikmalar an’anaviy o‘qitishdagidan ko‘ra ancha mustahkam bo‘ladi;

• nostanart muammolarni ko‘ra oluvchi, qo‘ya oluvchi va echa oluvchi talabaning faol ijodiy shaxsini tarbiyalash;

• kasbiy muammoli fikrlashni rivojlantirish – har bir aniq faoliyatda o‘zining xususiyatlariga ega[36].

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida ta’lim oluvchi butun ta’lim jarayonining asosiy ishtirokchisi, ta’lim beruvchi bilan teng huquqli mustaqil bilim oluvchi subyektdir, ta’lim beruvchi esa nafaqat «ma’lumot manbai» va «nazoratchi», balki ko‘proq ta’lim oluvchi shaxsni rivojlanishiga yordam beruvchi, qo‘llab-quvvatlovchi, rag‘batlantiruvchi va tashxis qo‘yuvchi hamdir.

Bunday o‘quv jarayonini tashkil etish M.Montessori ta’limotidan olingan «Men mustaqil bajarishimga yordam bering» tamoyiliga asoslangan rahbarlikni

---

[35] Avliyakulov N. X., Musaeva N. N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. -Toshkent: Fan. 78-79 bet.

[36] Judith A. Pathways to a Nursing Education Career: Educating the Next Generation of Person centered Nurses. – New York: Springer Publishing company. 2021. - 265.p.

taqozo etadi. Montessori pedagogikasi yoki Montessori tizimi deb nomlangan nazariya XX asrda italyan pedagog-olimi Mariya Montessori tomonidan ishlab chiqilgan va har bir talabaga individual yondashuv, talabaning shaxsiy rivojlanish ritmi va yo‘nalishini qo‘llab-quvvatlashga asoslangan[37].

Shaxsga yo‘naltirilgan dars ta’lim beruvchi tomonidan maqbul ijodiy muhitni tashkil etishdan iborat bo‘lib qolmasdan, ta’lim oluvchining shaxsiy tajribasiga ularning hayotiy faoliyati tajribasi sifatida tayanish, murojaat qilish va dars jarayonida foydalanishdan ham iborat.

Ta’lim beruvchi dars jarayonida ta’lim oluvchini turli bilim sohalariga ta’lluqli tarqoq tasavvurlar shaklidagi shaxsiy tajribasining chegaralanganligini engib o‘tishga undash orqali bu tajribani ilmiy ahamiyatli shaklga o‘tkazishga erishishi zarur.

Ta’lim beruvchi dars jarayoniga tayyorlanar ekan, qanday materialni berishini emas, balki oldingi o‘zlashtirilgan va beriladigan bilimlarning mazmuniy xususiyatlarini ta’lim oluvchining shaxsiy hayot faoliyati bilan bog‘lashni ham rejalashtirishi talab etiladi. Bunda ta’lim oluvchilar taklif etgan fikr va variantlarning muhokama qilinishi ham ahamiyatli bo‘lib, fikrlar qat’iy («to‘g‘ri»,«noto‘g‘ri») baholanmasligi, balki to‘g‘ri fikrlar va takliflar rag‘batlantirilishi, noto‘g‘rilari esa birgalikda tuzatilishi («xato qilishga haqi bor – xatolaridan o‘rgansin»)ni nazarda tutishi kerak. Bu jarayonda ta’lim beruvchi taklif etilgan variant, fikr va takliflarning qaysi birlari darsning maqsadi va mazmuniga mos kelishini tahlil qilib borishi, ajratib ko‘rsatishi va qo‘llab-quvvatlashi alohida mohiyat kasb etadi.

Hamshiralik ishi fanida «Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim» asosida dars jarayonini tashkil etish ta’lim oluvchilarning ta’lim jarayonining markaziy subyekti sifatida faollashishiga, mantiqiy va mustaqil fikrlash qobiliyatlarining o‘sishiga, dars jarayoniga doimiy qiziqishining oshishiga, mustaqil ishlashga bo‘lgan intilishlarining rivojlanishiga hissa qo‘shadi hamda ta’limning sifat va samaradorligini oshiradi, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning g‘oyaviy asoslari va

---

[37] Theodate Louise Smith. The Montessori System in Theory and Practice: an Introduction to the Pedagogic Methods of Dr. Maria Montessori. - New York: Harper & brothers, 2020. -P.125.

asosiy tushunchalarini o‘rganishi, bu g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etish yo‘llarini mustaqil ko‘rsatib berishi talabalarga individual topshiriqlar berish imkonini yaratadi[38].

Bu maqsadga erishish uchun pedagogik faoliyatning mavjud qirralarini yaxshi bilib olish kerak. O‘qituvchidagi ruxiy o‘ziga xoslik va xususiyatlarni markazlashtirish, bir nuqtaga jamlash, pedagogning kasbiy mehnatini integrallashtirish, izchil tizimga solish imkonini beradi.

Hamshiralik ishi fanida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tizimini tashkil etuvchi omil sifatida talaba, uning extiyojlari, motivlari, maqsadlari, qobiliyatlari, faolligi va boshqa individual- psixologik xususiyatlarini metodologik tan olishga asoslanadi.

Faoliyatni tashkillashtirish va bajarishda funksiyalarni taqsimlash jarayonida ushbu xususiyatlarning hisobga olinishi uning samaradorligini ancha oshiradi.

Hamshiralik ishi fanida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim - talabaning rivojlanishi, o‘ziga xos xususiyatiga maksimal darajada yo‘naltirilgan ta’lim jarayoni hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlarni tahlil qilgan xolda, quyidagi xulosalarni chiqarishning imkoni yaratildi:

1. Talabaning shaxsiy sifatlari va qobiliyatlarini shakllantirish hamda rivojlantirish masalasini hal etishda shaxsiy-faoliyatli yondashuvning shaxsiy komponenti shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda monitoringni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

2. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim talaba shaxsidagi mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash kabi sifatlarini tarbiyalaydi.

3. Talabani ta’lim tizimiga moslashtirmay, balki uning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlanishi uchun imkon beradi, uning o‘z-o‘zini rivojlantirish, mustaqil o‘qish, o‘zligini namoyon etish, faollashtirish xususiyatlari asosida anglash, mushoxada qilish, o‘z amaliy faoliyatida sinab ko‘rish, yangi g‘oya va fikrlarni bildirish, mavjud muammolar echimining samarali

---

[38] Tolipov O. Pedagogik texnologiya: nazriya va amaliyot. -Toshkent: Fan, 2015. – 143.b

yo‘llarini qidirish uchun erkinlik berish, ijodiy, tanqidiy tafakkurini rivojlantirish uchun sharoit yaratiladi[39].

Hamshiralik ishi fanida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasida insonparvarlik g‘oyasi pedagogika va psixologiya bilan birlashib, muayyan uyg‘unlikni namoyon qiladi.

Hamshiralik ishi fanida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasining samarali ishlashi uchun talaba iqtidori muhim ahamiyatga ega. An’anaviy pedagogik texnologiyalardan farqli ravishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasining markazida o‘zining maksimal imkoniyatlarini ishga solib bilim olishga intilish, yangi tajriba-sinovlarni qabul qila olish, har-xil vaziyatlarda mustaqil qaror qila olish, nostandart fiklash kabi fazilatlarga ega talaba shaxsi turadi. Hamshiralik ishi fanida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim quyidagi xususiyatlarga ega:

- talabalarning ta’limdagi mustaqilligini ta’minlash, ular uchun ma’qul bo‘lgan usullarni tanlash;
- talabalarning mavjud bilim hamda salohiyatlariga, tajribalariga ishonch bildirish;
- talabalarning ijtimoiy xususiyatlari va turmush tarzini hisobga olgan holda o‘zligini namoyon qilishga bo‘lgan intilishini rag‘batlantirish;
- talabalarning emotsional holati, shuningdek, ularning ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini hisobga olish;
- talabalarning ta’lim olish strategiyasiga xos bo‘lgan o‘quv ko‘nikmalarini maqsadli shakllantirish;
- ta’lim jarayonida o‘qituvchi va talaba vazifalarini qayta taqsimlash: o‘qituvchining etakchilik rolini cheklash, unga yordamchi, maslahatchi sifatida qarash.

O‘qitish texnologiyasi pedagogik strategiya sifatida talaba va o‘qituvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish vositalariga ega bo‘ladi.

Bunday texnologiyalarga quyidagilarni keltirish mumkin:

[39] Turg‘unov S. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari. – Toshkent: Standart, 2012. - 86.b

1. Hamkorlik pedagogikasi

2. Pedagogik jarayonda shaxsni ko‘zda tutishga asoslangan pedagogik texnologiya;

3. O‘quv materialini sxemalar va modellar ishorasi asosida o‘qitishni jadallashtirish texnologiyasi;

4. O‘quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil etish asosiga, qurilgan texnologiya;

5. O‘qitshini individuallashtirsh texnologiyasi[40].

Pedagogik jarayonda shaxsni ko‘zda tutishga asoslangan pedagogik texnologiyaning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

1.Talabaning shaxsiy xislatlarini namoyon qilish orqali unda oliyjanob insonning shakllanishi, rivojlanishi va tarbiyalanishiga imkon tug‘dirmoq;

2. Talabaning qalbi va yuragini ulug‘lamoq;

3. Talabadagi bilishga bo‘lgan kuchlarni rivojlantirish va shakllantirish;

4. Keng va chuqur bilim hamda malaka olish uchun sharoit tug‘dirmoq;

5. Ideal tarbiya – bu o‘z-o‘zini tarbiyalamoq.

Ushbu texnologiyani amalga oshirish uchun quyidagi metodika va metodik usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir: insonparvarlik; shaxsiy yondashuv; oila pedagogikasining qo‘shimcha imkoniyati; o‘quv faoliyati. Muloqot maxorati.

Pedagogik jarayonda shaxsni ko‘zda tutishga asoslangan pedagogik texnologiyasida talaba faoliyatini baholash alohida ahamiyatga ega. Baholardan foydalanish o‘ta cheklangan. Miqdoriy baholashdan ko‘ra sifatli baholashga urg‘u beriladi, ya’ni tavsif, natijalar paketi, o‘z-o‘zini baholash.

O‘quv materialini sxemalar va modellarish orasi asosida o‘qitishni jadallashtirish texnologiyasi – o‘qitishning an’anaviy sinf-dars usulining hali ochilmagan katta imkoniyatlarini ko‘rsatib beradi. Asosiy maqsad: bilim, malaka va ko‘nikmalarni shakllaitirish, har qanday individual xususiyatlarga ega bo‘lgan barcha talabalarni o‘qitish, o‘qitshni tezlashtirish.

---

[40] Моршинин А. Формирование профессиональной устойчивости будущего специалиста сестринского дела. Дисс... канд. мед. наук. -Оренбург, 2019.- 28.с.

Tamoyillar esa: ko‘p marta takrorlash, majburiy bosqichma-bosqich nazorat, qiyinchilikning yuqori darajasi, katta bloklarda o‘rganish, faoliyatning dinamik qolipi, xatti-harakatning tayanchi, mo‘ljaldagi asosini qo‘llash; shaxsni ko‘zda tutish asosida yondashuv; insonparvarlik; zo‘rlab o‘qitmaslik; o‘quv vaziyatlarining konfliktsizligi, har bir talabaning muvaffaqiyatlaridan boxabarlik, tuzatish (yo‘lga solish), o‘qish, yutuqlarga istiqbolni ochish; o‘qitish va tarbiyani bog‘lash. Ushbu metodining o‘ziga xosligi: materiallar katta hajmda kiritiladi; barcha ma’lumotlar bloklar bo‘yicha joylashtiriladi; o‘quv material tayanch sxema - konspekt ko‘rinishida rasmiylashtiriladi.

Ushbu texnologiyada tayanch deganda talaba harakatlarining taxminiy asosini, ichki va tashqi fikrlash faoliyatining tashkil qilinish usulini tushuniladi. Tayanch signal o‘zaro uzviy bog‘lovchi ramzlar (ishora, so‘z, sxema, rasm va h.o) bo‘lib, qandaydir ma’noli mohiyatni almashtiradi. Tayanch konspekt – o‘quv materiallari o‘zaro bog‘langan usullarining butun qismlari sifatida faktlar, tushunchalar, g‘oyalar tizimi o‘rnida qo‘llanaoladigan ko‘rgazmali konstruksiyalardan iborat qisqacha shartli konspekt ko‘rinishidagi tayanch signallar sistemasidir.

Ushbu metodika 5 bosqichdan iborat bo‘lib, ular bir qancha usul va metodik yechimlarni o‘z ichiga oladi:

1. Nazariyani o‘quv xonada o‘rganish: doskada oddiy tushuntirish (bo‘r, ko‘rgazmali qurol, TV bilan); bo‘yalgan plakat – tayanch konspekt bo‘yicha qayta tushuntirish; plakat bo‘yicha qisqacha bayon qilish; talabalarning o‘z konspektlari ustida individual ishlashlari, konspekt bloklari bo‘yicha keng mustahkamlash.

2. Uydagi mustaqil ishlar: tayanch konspekt, darslik, ota-onalar yordami. Talaba larga o‘qtirish: konspektdan foydalangan holda o‘qituvchining tushuntirganlarini esla, berilgan materialni kitobdan o‘qi; o‘qiganlaringni konspekt bilan qiyosla; konspekt yordamida darslik materiallarini so‘zlab ber (kodlashtirish dekodlashtirish); konspektni so‘zlab berish uchun tayanch sifatida yodda saqla; konspektni qayta ishlab chiqib namunaga qiyosla.

3. Birinchi takrorlash – konspektni o‘zlashtirishni har tomonlama keng

nazorat qilish: barcha talabalar konspektni xotirasida qayta ishlab chiqadilar, oʻqituvchi ularni peshma-pesh tekshirib boradi; bir vaqtning oʻzida soʻrab boradi; yozma ishdan soʻng ogʻzaki soʻrash boshlanadi.

4. Tayanch konspektni ogʻzaki soʻzlab berish – oʻzlashtirishdagi tashqi nutq (ogʻzaki) faoliyatining eng muhim bosqichi, u turli savol-javoblar jarayonida yuz beradi.

5. Ikkinchi takrorlash – umumlashtirish va bir tizimga keltirish (tartibga tushirish): oʻzaro nazorat darslari; oldindan sinov savollari roʻyxatini nashr qilish; tayyorlash; barcha turdagi nazoratlardan foydalanish (doskada, yozma va b.); oʻzaro soʻrash va oʻzaro yordam; oʻyinli unsurlar (jamoalar bellashuvi, rebusni topishi va b.)[41].

Nazorat shakllari: tayanch konspekt boʻyicha yozma ish, mustaqil ishlar, ogʻzaki soʻrash, juftlikda ishlash, oʻzaro nazorat, guruhdagi nazorat, uy nazorati, oʻz-oʻzini baholash. Talaba tomonidan olingan har bir baho bilimlarni maxsus ochilgan koʻzguga qoʻyib boriladi. U goʻyo talaba ga xizmat qiladigan roʻyxat vazifasini bajaradi, baholar esa ijobiy shifrlangan tavsifnoma ahamiyatiga ega boʻladi. Bunday tavsifnomani e’lon qilish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega boʻladi. Bu tavsifnomaning eng muhim tomoni shundaki, talaba xohlagan vaqtida har qanday bahoni nisbatan yuqori bahoga oʻzgartirishi mumkin. Ochiq imkoniyat tamoyilining mohiyati ham shunda. Har bir baho, avvalam bor, talabada ijobiy e’tiborni qoʻzgʻatadigan vosita, turtki boʻlib xizmat qilishi lozim. Ikki baho salbiy hislarga sabab boʻladi, oʻqituvchi va fan bilan ziddiyatni keltirib chiqaradi. Ushbu metod bunday qarama-qarshi vaziyatlarni bartaraf qiladi.

Ushbu metodda oʻqitishning zamonaviy texnologiyalarini qoʻllash, oʻqitish jarayonini yagona shaklga keltirish va yuqori samaradorlikka erishishga imkon yaratadi.

Avtoritar oʻqitish texnologiyasida pedagogikaning talabaga munosabati avtoritar xarakterga ega, ya’ni ta’lim jarayonida u yagona subyekt sifatida namoyon

---

[41] Гарцуева, Оксана Александровна. Оптимизация подготовки медицинских кадров в системе высшего профессионального образования по направлению «Сестринское дело». Дисс... канд. мед. наук. -Махачкала, 2024.- 65.с.

bo‘ladi, talabalar esa faqatgina ob’ekt vazifasini bajaradi, xolos. Boshqacha qilib aytganda avtoritar o‘qitish texnologiyasida talabaning tashabbusi va mustaqilligi deyarli yo‘qoladi, o‘qitish majburiy yo‘sinda amalga oshiriladi. Hanuzgacha jahonda eng ko‘p tarqalgan o‘qitishning sinf-dars tizimida mashg‘ulotlari asosiy birligi dars bo‘lib, u bitta fanining bitta mavzusiga bag‘ishlanadi va o‘qituvchi tomonidan boshqariladi.

An’anaviy ta’lim texnologiyasida o‘qituvchi va talaba munosabatida majburiy itoatkorlik, ya’ni zo‘ravonlik pedagogikasi amal qiladi. O‘qitish ommaviy tarzda olib borilishi tufayli talabalarning tashabbusi va mustaqilligi o‘zidan-o‘zi so‘nib boraveradi. Shu bois bu texnologiya asosan talabalarda bilim, ko‘nikmalarni shakllantiradi, ammo ular shaxsini rivojlantirishni ko‘zda tutmaydi. O‘z-o‘zidan ko‘rinadiki, an’anaviy o‘qitish texnologiyasi o‘z tabiatiga ko‘ra ta’lim muassasalari oldiga jamiyatimiz tomonidan qo‘yilgan talablarga butunlay javob bermaydi.

Bundan farqli o‘laroq shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarda talaba ta’limning milliy modeli mohiyatiga ko‘ra pedagogik jarayon markaziga qo‘yiladi, uning rivojlanishiga va tabiiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga qulay shart-sharoitlar yaratib beriladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarining kommunikativ asosi – pedagogik jarayonda talabaga insoniy-shaxsiy yondashishdir. Bu yondoshuvlar bir-birini to‘ldiradigan, shaxsiy-insoniy munosabatlarni rivojlantiradi. Bu munosabatlarning asosiy mazmuni, hozirgi kunda natija bermaydigan va noinsoniy hisoblangan zo‘ravonlik pedagogikasidan voz kechishdir, chunki tarbiya jarayonida zo‘ravonlik aslo mumkin emas, jazolash insonni kamsitadi, ezadi, uning rivojlanishini susaytiradi.

Isloh qilinayotgan ta’lim muassasalarida talaba yoshlarni erkin, majburlashsiz o‘qitish, ularning shaxsiga individual yondashishning mazmun-mohiyatini namoyon qilish juda muhimdir.

Ko‘rinib turibdiki, kadrlar tayyorlash milliy dasturining bosh maqsadini, ya’ni mamlakatimizda rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashni, oliy va o‘rta maxsus tayyorlash tizimini, ularda o‘ziga xos va

nostandart fikrlash qobiliyatini o‘stirishni, o‘z ustida doimiy ravishda chidam va matonat bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishni an’anaviy o‘qitish texnologiyasi asosida amalga oshirish mumkin emas.

Ilmiy texnik taraqqiyotning keskin yuksalish davrida fan, texnika, texnologiyalar yuqori sur’atlarda rivojlanayotgan davrda, bir avlod hayoti davomida fanning rivoji insoniyatning butun tarixidagidan ko‘ra ko‘proq bo‘lgan bu davrda, o‘qitishning an’anaviy tizimi (shu jumladan zamonaviy an’anaviy o‘qitish) o‘z umrini oxiriga etdi deb aytsak bo‘ladi.

Hozirgi zamon avlodining rivojlanish sur’ati oldingilardan ko‘ra ancha yuqori bo‘lganligi sababli, o‘qitishning an’anaviy tizimi, rivojlanishga to‘sqinlik qila boshladi. Bunday sharoitlarda taraqqiyot, faqat har bir shaxsning mavjud imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarish asosida amalga oshirilishi mumkin. Axborotning hajmi, xilma-xilligi, egallashga moyilligi va vositalarining etarliligi samarali individual va mustaqil o‘qitishni tashkil etish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratadi. O‘qitishni jadallashtirish maqsadida, pedagogning talabaga bo‘lgan munosabati «sardor»likdan, uning «sherigi»ga aylanishi zarur.

O‘qitishning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalariga quyidagi asosiy tamoyillar xos bo‘ladi: insonparvarlik, ya’ni insonga har tomonlama hurmat va muhabbat ko‘rsatish, unga yordamlashish, uning ijodiy qobiliyatiga ishonch bilan qarash, zo‘rlashdan to‘la voz kechish, hamkorlik, ya’ni pedagog va talabalar munosabatidagi demokratizm, tenglik, sheriklik, erkin tarbiyalash, ya’ni shaxsga uning hayot faoliyatini keng yoki tor doirasida tanlab olish erkinligi va mustaqillikni berish, natijalarni tashqi ta’sirdan emas, ichki hissiyotlardan keltirib chiqarish. Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarning kommunikativ asosi – pedagogik jarayonda talabaga insoniy-shaxsiy yondashuv hisoblanadi.

Hamshiralik ishi fanini shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali o‘qitish quyidagilardan iborat bo‘ladi:

pedagogik jarayonda shaxs obyekt emas, subyekt hisoblanadi;

har bir talaba qobiliyat egasi, ko‘pchiligi esa iste’dod egasi hisoblanadi;

yuqori yetuk qadriyatlar (saxiylik, muhabbat, mehnatsevarlik, vijdon va boshqalar) shaxsning ustivor xislatlari hisoblanadi.

Hamshiralik ishi fanini shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali o‘qitishda talaba va pedagog munosabatlarni demokratlashtirish o‘z navbatida quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

talaba va pedagog huquqlarini tenglashtirish, talabaning erkin tanlab olish huquqi;

xatoga yo‘l qo‘yish huquqi;

o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lish huquqi pedagog va talabalar munosabati zayli: taqiqlamaslik;

boshqarish emas, birgalikda boshqarish;

majburlash emas, ishontirish;

buyurish emas, tashkil etish;

chegaralash emas, erkin tanlab olishga imkon berish[42].

O‘z navbatida erkin o‘qitish quyidagilar bilan belgilanadi:

ishonchga asoslangan erkin talabchanlik;

o‘quv materialiga qiziqish uyg‘otish, bilishga va faol ijodiy fikrlashga rag‘batlantirish;

talabalarning mustaqilligi va tashabbusiga tayanish;

jamoa orqali bilvosita usullar bilan talablarni amalga oshirishni ta’minlash[43].

Hamshiralik ishida yangi individual yondashuvning mohiyati shundaki, u ta’lim tizimida o‘quv fanidan talabaga emas, talabadan o‘quv fani tomonga harakatlanishni taqozo etadi, talabalarning mavjud imkoniyatlarni inobatga olib, ularni rivojlantirish, takomillashtirish va boyitishga qaratilgan bo‘ladi.

Ushbu individual yondashuvning zamonaviy yangi talqini quyidagilardan iborat:

o‘rtacha talabaga yo‘naltirishdan voz kechish;

---

[42] Борисов Ю.Инновационные технологии обучения в системе подготовки бакалавров сестринского дела // Международный журнал экспериментального образования. – 2021. – № 4 – С. 59.

[43] Моршинин А. Формирование профессиональной устойчивости будущего специалиста сестринского дела. Дисс... канд. мед. наук. -Оренбург, 2019.- 108.с.

shaxsning yaxshi xislatlarini izlash;

shaxs rivojlanishining individual dasturlarini tuzish[44].

Hamshiralik ishi fanini shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali o‘qitishda birinchi navbatda quyidagilar zarur bo‘ladi:

har bir talaba qiyofasida noyob shaxsni ko‘rish, uni hurmat qilish, tushunish, qabul qilish, unga ishonish. Pedagogda barcha talabalar iste’dodli degan ishonch bo‘lishi kerak. Shaxsga, yutuqni ma’qullovchi, qo‘llab-quvvatlovchi, xayrixoh vaziyatlar yaratish, ya’ni o‘qish qoniqish va xursandchilikni olib kelishi kerak.

bevosita majburlashga yo‘l qo‘ymaslik, qoloqlikka va boshqa kamchiliklarga urg‘u bermaslik, uning nafsoniyatiga tegmaslik. Pedagogik jarayonda, talabalarga o‘z qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishga imkoniyat yaratish va ko‘maklashish.

Hamshiralik ishi fanini o‘qitishning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

ishbilarmonlik o‘yinlari;

muammoli o‘qitish;

tabaqalashtirilgan o‘qitish;

dasturlashtirilgan o‘qitish;

kompyuterlashtirilgan o‘qitish;

modulli o‘qitish[45].

**Hamshiralik ishida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim** – talabaning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim.

Bu ta’lim o‘qitish muhitining talaba imkoniyatlariga moslashtirilishini nazarda tutadi. Unga ko‘ra ta’lim muhiti, pedagogik shart-sharoitlar, ta’lim hamda tarbiya jarayonini to‘laligicha talabaning shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, qobiliyatini rivojlantirish, shaxs sifatida kamolotga etishini ta’minlash, tafakkuri va dunyo qarashini boyitishni nazarda tutadi.

---

[44] Моршинин А. Формирование профессиональной устойчивости будущего специалиста сестринского дела. Дисс... канд. мед. наук. -Оренбург, 2019.- 117.с.

[45] Екимова Н. Научное обоснование непрерывного профессионального развития специалистов сестринского дела в условиях оказания высокотехнологичной медицинской помощи. Дисс... канд.мед.наук. -Самара, 2020. -62.с.

Hamshiralik ishida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning o‘ziga xos jihati ta’lim oluvchi shaxsini tan olish, uni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay, zarur muhitni yaratishdan iborat.

Bu turdagi ta’lim talabalarda mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu turdagi ta’limni tashkil etishda pedagoglardan har bir talaba imkon qadar individual yondashishni, uning shaxsini hurmat qilishni, unga ishonch bildirish taqozo etiladi. Qolaversa, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim o‘qitish jarayonining ishtirokchilari pedagog-talaba yoki talaba-talaba, talaba-talabalar guruhi, talaba-talabalar jamoasi tarzida o‘zaro hamkorlikda bilim olish, shaxs sifatida kamol toptirish uchun qulay pedagogik sharoitni yaratish zaruriyatini ifodalaydi. Pedagog ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim turlaridan foydalanar ekan, bir qator shartlarga qat’iy rioya etishi kerak. Ushbu talablar quyidagilaran iborat:

har bir talabani alohida, o‘ziga xos shaxs sifatida ko‘ra olishi;

talabani hurmat qilishi;

talabaning ruhiy holatini to‘g‘ri baholay olishi;

talabaning xohish-istak, qiziqishlarini inobatga olishi;

har bir talabaga tolerant munosabatda bo‘lishi;

talabaning kuchi, imkoniyati va intilishlariga ishonch bildirishi;

har bir talaba uchun qulay ta’lim muhitini yaratishi;

talabalarning mustaqil yoki kichik guruhlarga erkin ishlashlari uchun imkoniyat yaratish;

talabalarni o‘z faoliyatlarini mustaqil nazorat qilish, faoliyati samaradorligini aniqlash, yutuqlarning omillari va yo‘l qo‘yilgan xatolarning oqibatlarini tahlil qilish o‘rgatish;

ta’lim jarayonida hech bir talabaga tayziq o‘tkazmaslik;

alohida talabaning kamchiliklarini bo‘rttirib ko‘rsatmaslik;

bordi-yu, talaba tomonidan bilimlarni o‘zlashtira olmaslik, ta’lim jarayonida o‘zini odobsiz tutish holati qayd etilsa, u holda qat’iy xulosa chiqarmasdan, buning sabablarini aniqlash;

aniqlangan sabablar asosida talabaning sha’ni, g‘ururiga ziyon etkazmagan holda u tomonidan bilimlarni o‘zlashtira olmaslik, o‘zini odobsiz tutish kabi holatlarni bartaraf etish;

ta’lim jarayonida har bir talaba uchun “muvaffaqiyat muhiti”ni yarata olish;

har bir talabaga ta’lim olisha muvaffaqiyatga erisha olishiga yordam berish;

talabaning qobiliyatini o‘stirish, shaxs sifatida rivojlanishiga yordam berish;

Talabalar shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida o‘quv materialini o‘zlashtirishga ijodiy, tanqidiy yondashishni, yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni asoslash, o‘z fikrini himoya qilish, muammoli vaziyatlarda samarali echimni topish ko‘nikma, malakalarini o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Pedagog tomonidan ta’lim jarayonida innovatsion xarakterga ega turli faol metodlarning qo‘llanilishi talabalarni rivojlantirish, qobiliyatlarini yanada o‘stirishga xizmat qiladi.

Hamshiralik ishi mashg‘ulotlarini tashkil etishda pedagoglar o‘quv axborotlarining talabalar bilim, ko‘nikma, malaka va tajribalariga tayangan holda ularni qiziqtira oladigan, fikrlashga, ijodiy yondashishga undaydigan imkoniyatga ega bo‘lishini ta’minlashga alohida e’tibor qaratishlari zarur.

Hamshiralik ishi ta’lim jarayonida pedagoglar tomonidan:

turli shakl, metod, vosita va texnologiyalardan samarali, maqsadli foydalanish;

o‘quv topshiriqlarini bajarishda talabalarga usullarni mustaqil tanlash imkonini berish;

talabani juftlikda, kichik guruhda va jamoada ishlashini ta’minlash;

mashg‘ulotlarning loyihalashtirilishiga e’tiborning qaratilishi nafaqat o‘qitish sifatini yaxshilayi, samaradorligini oshiradi.

Eng muhimi pedagoglar o‘quv mashg‘ulotlarining nafaqat axborot berish, balki rivojlantirish xarakteriga ega bo‘lishlariga e’tiborni qaratishlari zarur. Shuningdek, muhokama qilinayotgan masala, muammo, o‘rganilayotgan mavzu

yuzasidan talabalarning mustaqil fikr bildirishlari (noto‘g‘ri bo‘lsa-da, fikr bilirishlari)ga imkon berish, nima bo‘lganda ham ularni o‘ylashga, fikrlashga undash shaxsga yo‘natirilgan ta’limga xos muhim belgilardan biri sanaladi.

Hamshiralik ishi ta’lim jarayonida quyidagilardan foydalanish shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning yana bir belgisi hisoblanadi:

ijodiy topshiriqlar;

kreativ yondashishni taqozo etuvchi vazifalar;

muammoli vaziyatlar;

rolli va ishbilarmonlik o‘yinlari;

bahs-munozara, debat;

musobaqa ko‘rinishidagi bellashuvlar.

Hozirgi kunda oliy ta’lim jarayoniga tadbiq qilinayotgan kredit-modul tizimi ham muayyan tamoyillar asosiga qurilgan.

Ular quyidagilardir:

talabaga yo‘naltirgan ta’limni tashkil etish;

ta’limda shaffoflikka erishish;

ta’limda moslashuvchanlikni kuchaytirishi;

talabalar mobilligini kuchaytirish.

# II – BOB. SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM ORQALI HAMSHIRALIK ISHI FANINING O‘QITISHNING METODIK TA’MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI

## 2.1-§. Tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida Hamshiralik ishi fanini o‘qitishning metodik ta’minotini takomillashtirish.

Jahonda tibbiy ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning natijalarini monitoring qilishning tarkibi va mazmunini takomillashtirish, uning asosida ta’limni rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini aniqlash, bilim sifatini oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya berishda kuzatuv, nazorat va tahlil qilish asosida olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tufayli, tibbiy ta’lim tizimida takomillashtirilgan monitoringli kuzatish dasturi va mexanizmini tatbiq etish bugungi kunda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda Respublikamizda tibbiy ta’lim tizimini rivojlantirishning asosiy strategik yo‘nalishlari aniqlanib, xorijiy tajribalar asosida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, innovatsion jarayonlarni faol qo‘llab-quvvatlash, ta’limni rivojlantirishning me’yoriy asoslari ishlab chiqilmoqda va takomillashtirib borilmoqda.

Zamonaviy ta’limni rivojlantirishning uslubiy asosi falsafiy, sotsiologiya, psixologiya va pedagogika fanlarining chambarchas birligida ushbu muammoni hal qilishni belgilaydigan tizimli, kompleks yondashuvdir. Uni pedagogik obyektlarga qo‘llash imkoniyati obyektiv voqelikning muhim sifatiga asoslanadi. Integratsiyalashgan yondashuv turli xil tabiiy va ijtimoiy obyektlarni ma’lum bir

umumiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqishga imkon beradi. Nazariy va amaliy muammolarni hal qilishda kompleks yondashuv zarurligini hayotning o‘zi va birinchi navbatda, "hamma narsa hamma narsa bilan bog‘liq" bo‘lgan ijtimoiy jarayonlarning yuqori darajada integratsiyalashuvi belgilaydi.

Tibbiyot oliy ta’lim muassasalari talabalarida Hamshiralik ishi fanini o‘qitishda mustaqil fikrlash va ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonlarini takomillashtirish orqali mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalash jarayonida ko‘p va turli usullardan foydalanib kelinmoqda. Masalan, har bir mashg‘ulotda o‘qituvchi yo‘naltiruvchi shaxs sifatida talabadan darslik talabi asosida unga bergan, etkazgan bilimlarni takrorlashni emas, balki yangi bilimlarni hosil bo‘lishini ta’minlab kelmoqda. Bunday yondashuv fikrlash yordamida bilim oluvchida bilishga intilishning amaliy ko‘nikmasining shakllanishiga olib keladi.

Har bir talaba dars jarayonida sust tinglovchi emas, balki izlovchi, qiyoslovchi, kashfiyotchi sifatida qaraladi va ularning og‘zidan chiqqan har bir so‘z, fikr, o‘ziniki bo‘lishi taminlanadi. Bunday ta’lim usuli talabada mustaqillik, mas’uliyat, o‘zligini anglash, ijod, bunyod qilish ruhini tarbiyalashga xizmat qiladi. Natijada o‘qituvchi bilan tinglovchilar orasida dars jarayonidagi aloqa – munosabat juda ko‘p hollarda jonli og‘zaki muloqot, qolaversa, bahs tusini olishi mumkin. O‘qituvchining ta’lim oluvchiga beradigan izlanish va fikrlash yo‘llanmasi shunday bo‘lmog‘i kerakki, guruhdagi talabalarni izlanish va ijod mahsuli aynan bir xil bo‘lmasligi – mohiyatan bir yo‘nalishda bo‘lib, lekin shaklan har-xil bo‘lishi kerak. Shundagina har bir ta’lim oluvchi o‘zligini mumkin qadar yorqinroq ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘ladi va ularda har bir mashg‘ulotda musobaqa ruhi etakchilik qiladi.

Dars jarayonida (uy vazifasini bajarish va uni auditoriyada tahlil etishda) talaba o‘qituvchi yo‘llanmasi asosida nafaqat izlanishi, fikr yuritishi, xulosaga kelishi, balki u o‘z fikrini asoslash va isbotlashga, himoya qilishga intilmog‘i zarur.

Bizning fikrimizcha, Hamshiralik ishi fanida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali pedagogik jarayonlarni tashkil etishda quyidagi omillarga e’tibor qaratish zarur:

- ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlashda talabalar faolligi va mustaqil faoliyatining ahamiyati;

- shaxslararo munosabatlarda tafakkurni rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi tarbiyaviy munosabatlarning mavjudligi;

- pedagogik jarayonlarning o'zaro bogliqligi va aloqadorligi;

- pedagogik jarayonlarda shaxsga yo'naltirilgan ta'sirni o'ziga xos ahamiyati va zaruriyati;

- motivlashtirishning samaradorligi pedagogik jarayonlarning natijaviyligini ifodalashi;

- pedagogik jarayonlarni motivlashtirishga bog'liqligi.

Hamshiralik ishi fanida shaxs-faoliyat yondashuvida shaxsning va faoliyatning komponentlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda o'rganiladi, chunki bu yondashuv asosida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarda talaba-talabalar subyekt sifatida faoliyat ko'rsatadi va o'z navbatida, talaba-talaba shaxsining subyekt sifatida rivojlanishi uning faolligi, mustakil, erkin, tanqidiy, taxliliy va samarali fikrlashining rivojlanishi orqali aniqlanadi[46].

Pedagogik jarayonlar va subyektlar faoliyatining tez o'zgaruvchan xususiyatlari yana bir metodologik yondashuvni joriy etishga e'tibor qaratish zaruriyatini belgilaydi, ya'ni boshqariluvchi obyektning ma'lum bir sharoitdagi ichki va tashqi vaziyatiga qarab boshqarishning ma'qul uslubini qo'llashni talab qiladi. Bu o'z navbatida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayonlariga vaziyatli yondashuvni tatbiq etishni nazarda tutadi.

Hamshiralik ishi fanida vaziyatli yondashuv - pedagogik jarayon samaradorligini aniq vaziyatlarga ko'ra aniqlashni ko'zda tutadi. Vujudga kelayotgan vaziyatlarga ko'ra subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirib borish eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Vaziyatli yondashuvda boshqariluvchi obyekt hisoblangan pedagogik jarayonning aniq sharoitdagi ichki va tashqi vaziyatiga qarab

---

[46] Каткасова Лариса Григорьевна. Новые подходы к формированию и развитию трудового потенциала специалистов сестринского дела. Дисс... канд. мед. наук. -Самара, 2021.- 145.с.

subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish mazkur jarayon samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Vaziyatli yondashuv jarayonida quyidagilarni inobatga olish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi:

- pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan omillarni aniqlash maqsadida pedagogik jarayonda vujudga kelayotgan vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish va obyektiv baholash;

- turli pedagogik vaziyatlarda erishish mumkin bo‘lgan natijalarning samaradorligini oldindan aniqlash;

- pedagogik jarayonlarni va subyektlar faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishni rejalashtirishda mazkur jarayonga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni hamda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarni oldindan tasavvur qilish asosida subyektlar faolligini ta’minlash yo‘llarini belgilash[47].

Shuning uchun ham, Hamshiralik ishi fanida shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonini amalga oshirishga tayyorlash uchun, fikrimizcha, o‘qituvchilar oldiga quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

- o‘qituvchilarda shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonining maqsadini aniqlash ko‘nikmasini hosil qilish, bunda talabalarning shaxsiy xususiyatlari va imkoniyatlarini alohida hisobga olishga erishish;

- talabaning hayotiy ehtiyojlari va qadriyatlaridan kelib chiqqan holda faoliyatni tashkil etish;

- o‘qituvchilarda rivojlanish vaziyatlarini modellashtirish tajribasini shakllantirish; shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayoni mazmuniga insonparvarlikka oid bilimlar, tushunchalar, tajribalarni singdirish;

- o‘zining va talabasining tajribalaridan ta’lim mazmunining uzviy qismi sifatida foydalana olishga erishish;

[47] Каткасова Лариса Григорьевна. Новые подходы к формированию и развитию трудового потенциала специалистов сестринского дела. Дисс... канд. мед. наук. -Самара, 2021. - 150.с.

- zamonaviy ta’lim texnologiyalari, o‘qitish shakllari vositasida o‘qituvchi faoliyatining dolzarbligini oshirish, o‘yin, muammoli o‘qitish metodlaridan foydalanish[48].

Bu jarayonda talaba o‘z qobiliyatlarini rivojlantirishi, mustaqil fikrlashi, tanqidiy fikrlashi va o‘z ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun ta’lim muassasalarida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etishda o‘qituvchi talabalar uchun shunday muhit yaratishi kerakki, har bir talaba bilim olishdagi xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olib, o‘z-o‘zini namoyon qila olsin. Ta’lim jarayoni nafaqat axborot, balki rivojlantiruvchi ham bo‘lishi kerak.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, bugungi kunda ko‘pgina darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar talabalarni mustaqil fikrlashga, ularda ijodkorlikni tarbiyalashga yo‘naltirilgan mazmunda tayyorlanmagan. Ular talabaning turmush tarzi va kundalik hayoti bilan bog‘langan narsa va hodisalar doirasidagi materiallarni aks ettirmagan, vaxolanki, darslik ta’lim oluvchilarning psixologik rivojlanishi darajasiga mo‘ljallangan bo‘lishi kerak.

Darsliklar o‘quv materialini tez, to‘liq va chuqur o‘zlashtirishga yordam beradigan o‘quv qo‘llanmalari bilan to‘ldirilishi mumkin.

Yo‘nalish va hal qilinishi kerak bo‘lgan vazifalarga ko‘ra darsliklarni quyidagilarga bo‘lish mumkin: o‘quv materialini chuqurlashtirish va uni mustahkamlashga hissa qo‘shish (talabalar, mashqlar to‘plamlari, ushbu mavzu bo‘yicha o‘qish uchun kitoblar va boshqalar); o‘rganilayotgan masalalarni tasvirlash va shu orqali yanada aniqroq g‘oyalarni shakllantirishga hissa qo‘shish (modellar, chizmalar, plakatlar, diagrammalar, shaffoflar, atlaslar va boshqalar); ko‘nikma va qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam berish (ishlash standartlari, topshiriq kartalari va boshqalar); ma’noni tushunishni osonlashtirish (lug‘atlar).

Hozirgi kunda yaratilayotgan yangi mazmundagi darsliklarda o‘quv materiali va topshiriqlarning berilishi bosqichli ketma-ketlik har bir mavzuni o‘rganish jarayonida talabaning aqliy faoliyatini rivojlantirish amaliyotining bir mavzudan

---

[48]Левина, Вера Александровна. Формирование профессиональной компетентности специалиста сестринского дела с квалификацией базового среднего профессионального образования.Дисс... канд. мед. наук. -Брянск, 2021.- 105.с.

ikkinchi mavzuga, murakkablasha borishi o‘rganish jarayonining faol kuzatishga olib keladi.

Shu bilan bir qatorda ko‘p maqsadli qo‘llanmalar ham qo‘llaniladi: filmlar, ensiklopediyalar va boshqa ma’lumotnomalar. Juda samarali vositalarga kompyuter, kinoteatr, videomagnitofon, bajarilayotgan harakat haqida ma’lumot beruvchi turli qurilmalar va boshqalar kiradi[49].

Shubhasiz, bunday ta’lim usulini amaliyotda izchil qo‘llash, bu yo‘nalishda tajriba orttirish unga tuzatish, to‘ldirish va aniqliklar kiritishni talab etadi.

Buning uchun uzluksiz ta’lim tizimi oldida turgan vazifalar sifatida quyidagilarni sanab o‘tishimiz mumkin:

– verbal kognitiv ta’lim usulini (bugungi kunda ta’limning yangi pedagogik texnologiyasi) o‘qituvchilar orasida keng ommalashtirish eng muhim vazifalarimizdan biri sanalishi lozim.

Chunki o‘qituvchilar bu usulni qo‘llash uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashni, ko‘rgazmali va texnologik qurollardan amaliy foydalanishni o‘rganib olmas ekanlar, ular bu sohada samarali natijaga erishga olmaydilar.

Darsliklar va ta’lim usuli bilan mashg‘ulotlarning samaradorligini oshirish uchun talabalar qo‘shimcha axborot manbalari bilan ta’minlangan bo‘lishlari shart, hozircha bu manbalar darslik, internet ma’lumotlari, elektron manbalar, talabaning xotirasi, kundalik turmush tarzidan, boshqa o‘quv fanlaridan, atrofdagilardan so‘rab-surishtirib olinadigan axborotlardan iborat bo‘lmoqda. Bu albatta, etarli emas. Shuning uchun o‘qituvchilar fan boyliklari va imkoniyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan va ularni ta’lim oluvchilarga etkaza oladigan qomusiy ma’lumotnoma, turli xildagi (izohli ma’lumotlar, vaziyatli masalalar, tasviriy materiallar va hokazo) ma’lumotlar bilan ta’minlangan bo‘lishlari shart. Bu

---

[49] Гарцуева, Оксана Александровна. Оптимизация подготовки медицинских кадров в системе высшего профессионального образования по направлению «Сестринское дело». Дисс... канд. мед. наук. -Махачкала, 2024.- 115.с.

masalada ta’lim tizimida yo‘lga qo‘yilayotgan fanning o‘quv moduli yordam beradi[50].

Oldingi ilmiy talqinlarga tayanish va so‘ngra ularni inkor etish yoki yangilash me’yordan ortiqdek tuyuladi. Bunday hollar ma’lumot turlari va qo‘shimchalar, ma’lumot tasniflari talqinida anchaginani tashkil etadi. Bunday hol ehtimol, o‘tish davri darsliklari uchun zarurdir, lekin psixologik va didaktik nuqtai-nazardan ularni oqlab bo‘lmaydi. Shuning uchun bunday chekinishlar darsliklardan bosqichma-bosqich chiqarilishi lozim. Buning uchun barcha ta’lim tizimida, ayniqsa, oliy ta’lim dasturlari va darsliklarini qayta ko‘rib chiqishi lozim. Bunda bosh omil sof pragmatik dasturda ko‘rsatilgandek, ommaviy amaliy tatbiqqa nozarur ilmiy bilimlar ortiqchaligidadir.

Darsliklarda xususan, takrorlash bo‘limlarida testlar beriladi. Bu testlar esa kognitivlik va verballikdan tamoman yiroq. Testlarni ijodiylashtirish ustida xam o‘ylashimiz va izlanishimiz kerak.

O‘quv-uslubiy majmua, elektron o‘quv-uslubiy majmua (sillabus) ko‘p jihatdan talabalarni turli xil qo‘shimcha ma’lumotlar bilan ta’minlash imkoniyatiga ega.

Qolaversa, bu orqali darsliklarning hozirgi hajmi keskin qisqarib, ular asosan, har bir mavzuni o‘rganish (har bir mavzu doirasida ijodiy fikrlash va nimanidir yaratish) topshiriqlari algoritmidan iborat. Verbal kognitiv ta’lim usuliga qadam qo‘yib, ijodkor va mustaqil fikrlovchi shaxs tarbiyasini o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ydikmi, buni amalga oshirishimiz mumkin.

Kompleks o‘quv-uslubiy ta’minot - bu keyinchalik amaliyotga tatbiq etiladigan ta’lim jarayonini tizimli tavsiflash loyihasi bo‘lgan barcha o‘quv-uslubiy hujjatlar (rejalar, dasturlar, metodlar, qo‘llanmalar va boshqalar) majmuidir. Kompleks o‘quv-uslubiy ta’minot - bu mutaxassislar tayyorlashni boshqarishning

[50] Левина, Вера Александровна. Формирование профессиональной компетентности специалиста сестринского дела с квалификацией базового среднего профессионального образования.Дисс... канд. мед. наук. -Брянск, 2021.- 180.с.

didaktik vositasi, tuzilmani oʻrnatadigan va uning elementlarini maʼlum tarzda aks ettiruvchi pedagogik tizimning murakkab axborot modeli[51].

Mutaxassislik, fan, boʻlim, mavzu, modulning oʻquv-uslubiy taʼminoti maʼlum bir kompleks sifatida taqdim etiladi, ular u yoki bu shaklda boʻlishi mumkin:

- mutaxassislik, fan yoki boʻlim, modul va boshqalar boʻyicha oʻqitish mazmunini aks ettirish, oʻzlashtirish darajasini asoslash;

- taʼlimning tashkiliy shakliga adekvat boʻlgan va talabaning kerakli oʻzlashtirish darajasiga erishishga imkon beradigan didaktik materialni oʻz ichiga olishi;

- talabaga istalgan vaqtda oʻz ishining samaradorligini tekshirish, oʻzini mustaqil nazorat qilish va oʻquv faoliyatini toʻgʻrilash imkoniyatini berish;

- maʼmuriyat va oʻqituvchilar tomonidan taʼlim sifatini nazorat qilishning obyektiv usullarini imkon qadar koʻproq kiritish[52].

Oʻquv-uslubiy hujjatlar va oʻquv qoʻllanmalar tizimi esa dastur materialining barcha asosiy mazmunini qamrab olishi kerak. Murakkablik shundan iboratki, oʻquv rejasining har bir mavzusi (boʻlimi) boʻyicha oʻquv mazmunining har bir asosiy masalasini oʻrganish zarur optimal minimal oʻquv jihozlari va zarur hujjatlar bilan taʼminlanadi, bu esa oʻquv jarayonini amalga oshirishga imkon beradi, jarayonni sifatli amalga oshiriladi.

Har tomonlama oʻquv-uslubiy taʼminotni shakllantirishdan maqsad:

- oʻqituvchi uchun: oʻquv qoʻllanmalari bilan taʼminlashdagi mavjud vaziyatni batafsil aks ettirish, turli mutaxassisliklar ish dasturlarida fanning ochib berish darajasini tahlil qilish va ularni keyinchalik mantiqiy tizimga qisqartirish.

- talaba uchun: oʻrganilayotgan fanning nazariy va amaliy asoslari boʻyicha bilim olish[53].

---

[51] Каткасова Лариса Григорьевна. Новые подходы к формированию и развитию трудового потенциала специалистов сестринского дела. Дисс... канд. мед. наук. -Самара, 2021.- 95.с.

[52] Каткасова Лариса Григорьевна. Новые подходы к формированию и развитию трудового потенциала специалистов сестринского дела. Дисс... канд. мед. наук. -Самара, 2021.- 160.с.

[53] Левина, Вера Александровна. Формирование профессиональной компетентности специалиста сестринского дела с квалификацией базового среднего профессионального образования.Дисс... канд. мед. наук. -Брянск, 2021.- 110.с.

O‘quv jarayoni uchta asosiy funksiyani bajaradi: ta’lim, tarbiya va rivojlantirish. O‘quv-uslubiy yordamga kompleks yondashuv pedagogik jarayonning barcha asosiy funksiyalarini jamlangan holda amalga oshirishni o‘z ichiga oladi.

O‘quv vositalariga quyidagicha tafsiflanadi:

1. O‘quv-uslubiy adabiyotlar: darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, ma’lumotnomalar, muammoli kitoblar, kataloglar, albomlar, shaxsiy metodlar, o‘quv qo‘llanmalari, uslubiy tavsiyalar, uslubiy ishlanmalar, uslubiy ko‘rsatmalar.

2. O‘quv va ko‘rgazmali qurollar: grafik, plakatlar, diagrammalar, chizmalar, fotosuratlar, chizmalar, grafiklar, jadvallar, diagrammalar,

3. Tabiiy: qurilmalar, mexanizmlar, asboblar, modellar, sxemalar, namunalar. O‘quv ma’lumotlarining bunday manbalariga turli xil topshiriq kartalari, mustaqil, amaliy, laboratoriya ishlarini bajarish uchun didaktik topshiriqlar va muammoli vaziyatlarni hal qilish uchun kurs loyihalari, vaziyatli topshiriqlar kiradi[54].

- o‘qitishning texnik vositalariga audiovizual (pleer, magnitafon, diaproektor, interfaol doska, televizor, kompyuter, multimedia tizimi, internet); dasturlashtirilgan ta’limning texnik vositalari kiradi.

Hamshiralik ishi kasbning o‘quv-uslubiy ta’minoti quyidagilarni o‘z ichiga quyidagilarni olishi kerak: ixtisoslikning normativ majmui; fanlarning o‘quv-uslubiy majmualari; kasbiy modulning o‘quv-uslubiy majmualari; o‘quv va ishlab chiqarish amaliyotining o‘quv-uslubiy majmuasi;

Hamshiralik ishi o‘quv fanining o‘quv-uslubiy majmuasi quyidagi bo‘limlarni (tarkibiy qismlarni) o‘z ichiga oladi:

- ta’lim va dasturni rejalashtirish hujjatlari;

- moddiy-texnikaviy, axborot va dasturiy ta’minot; ko‘nikma, qobiliyatga qo‘yiladigan talablarni ko‘rsatadigan kasb yoki oliy ta’lim mutaxassisligi bo‘yicha davlat ta’lim standartidan ko‘chirma; o‘quv fanidan bilim, amaliy tajriba;

---

[54] Гарцуева, Оксана Александровна. Оптимизация подготовки медицинских кадров в системе высшего профессионального образования по направлению «Сестринское дело». Дисс... канд. мед. наук. -Махачкала, 2024.- 125.с.

- idoraviy standartlashtiruvchi hujjatlar, o‘quv jarayonini tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar;

- o‘quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etish bo‘yicha uslubiy tavsiyalari, ko‘rsatmalari; o‘quv fanining namunaviy dasturi;

- o‘quv fanining ishchi dasturi;

- o‘qituvchining individual rejasi; barcha turdagi o‘quv mashg‘ulotlari rejalari, o‘quv, texnologik xaritalar to‘plami;

- ma’ruza matni (konspektlarga ruxsat beriladi);

- o‘quv adabiyotlari, shu jumladan elektron tashuvchilar;

- qo‘shimcha adabiyotlar, shu jumladan elektron tashuvchilar;

- kataloglar, albomlar; laboratoriya ishlari va amaliy topshiriqlarni bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar; o‘quv fanini, uning bo‘limlarini, mavzularini, alohida elementlarini o‘rganish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar; uslubiy ishlanmalar, mualliflik ishlanmalari;

- talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar;

- kurs ishlari mavzulari va ularni amalga oshirish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar; seminar mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rish, loyiha topshiriqlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, ilmiy-tadqiqot va ijodiy ishlar bo‘yicha mavzular va ko‘rsatmalar; o‘quv fanidan tanlovlar, viktorinalar, olimpiadalar, rolli va ishbilarmonlik o‘yinlarini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha nizom, yo‘riqnomalar;

- o‘quv fanidan o‘quv materialini o‘zlashtirish sifati bo‘yicha talabalar bilimini joriy, oraliq va yakuniy nazorat qilish uchun baholash vositalari majmui;

- o‘quv fanidan talabalar bilimini nazorat qilish tizimi; talabalar bilimini nazorat qilishning barcha turlari bo‘yicha malaka, ko‘nikma, amaliy tajriba, bilimlarni baholash mezonlari;

- o‘quv faniga oid asosiy va qo‘shimcha o‘quv-uslubiy adabiyotlar ro‘yxati; o‘quv va ko‘rgazmali materiallar - diagrammalar, jadvallar, plakatlar, chizmalar,

maketlar, maketlar, qo‘g‘irchoqlar; o‘quv fanining mavzulari, elementlari bo‘yicha multimedia taqdimotlari; video va interaktiv materiallar[55].

Fanning o‘quv-uslubiy majmuasini (fanlararo kurs, kasbiy modul) yaratish bo‘yicha ishlarni tashkil etish fan komissiyasining ish rejasi va o‘qituvchilarning individual ish rejalariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

Talabalarning mustaqil ishi ta’lim jarayonining bir qismi bo‘lib, uni amalga oshirish bilimlarni o‘zlashtirish, mustahkamlash va takomillashtirish, mutaxassislar tayyorlashning mohiyatini tashkil etuvchi ko‘nikma va malakalarni egallashni ta’minlaydi.

“Talabalarning mustaqil ishi” to‘plami fanlarni sinfdan tashqari o‘zlashtirish, kasbiy tajriba orttirish jarayonini tashkil etish uchun o‘quv-uslubiy materiallar to‘plamidir. Shu munosabat bilan, hujjatlarning aksariyati kundalik o‘rganiladigan fanlarni o‘quv va uslubiy ta’minlashning bir qismi sifatida ishlab chiqiladi. Bundan tashqari, to‘plam talabalarning ijodiy fikrlash va mustaqilligini rivojlantirishga hissa qo‘shadigan meta-fanlar (fanlararo) ishlanmalarni o‘z ichiga oladi. Masalan, mustaqil ish uchun testlar, topshiriqlar, mashqlar to‘plami; referatlar, ma’ruzalar, ijodiy ishlar mavzulari, ularni loyihalash bo‘yicha ko‘rsatmalar; mustaqil ta’lim uchun vazifalar va mavzular to‘plami.

Ta’lim jarayonining alohida elementlari, talaba, o‘qituvchi va ta’lim muassasasi ma’muriyatining dasturda belgilangan maqsadlarga erishishga qaratilgan harakatlarining batafsil tavsifi - bu har tomonlama o‘quv-uslubiy ta’minot. Ushbu tushunchani ikki ma’noda ko‘rib chiqish mumkin.

Jarayon sifatida ta’minlash o‘quv rejasi doirasida samarali ta’limni tashkil etish uchun zarur bo‘lgan o‘quv qo‘llanmalari va o‘quv-uslubiy materiallarning optimal tizimini rejalashtirish, ishlab chiqish va shakllantirishdir.

Sifatni baholash ikki jihatdan amalga oshirilishi kerak. Birinchidan, fanning o‘quv-uslubiy majmuasida kasbiy faoliyat sohasining namoyon bo‘lishi o‘rtasidagi

---

[55] Гарцуева, Оксана Александровна. Оптимизация подготовки медицинских кадров в системе высшего профессионального образования по направлению «Сестринское дело». Дисс... канд. мед. наук. -Махачкала, 2024.- 133.с.

muvofiqlik darajasi tahlil qilinadi. Ikkinchidan, oʻquv maqsadlarini amalga oshirish muvaffaqiyati baholanadi.

An'anaviy materiallar bilan bir qatorda innovatsion raqamli oʻquv materiallari ham keng qoʻllaniladi:

- elektron oʻquv uslubiy majmualar; nazariy material;

lugʻat;

amaliy topshiriqlarni bajarish va talabaning mustaqil ishini ta'minlash vositalari; bilimlarni oraliq va yakuniy nazorat qilish uchun testlar[56].

Elektron oʻquv-uslubiy majmualar telekommunikatsiya tarmoqlarida foydalanish uchun moʻljallangan va serverlarda saqlanishi yoki raqamli tashuvchilarda nusxa koʻrinishida tarqatish uchun moʻljallangan boʻlishi mumkin.

Elektron darsliklar oʻquv dasturiga mos keladigan nazariy va amaliy materiallarni oʻz ichiga olgan raqamli qoʻllanmalar boʻlib, taqdimotida multimedia texnologiyalaridan foydalaniladi.

Elektron ma'lumotlar bazalari tuzilgan tematik ma'lumotlarni saqlash uchun vositadir.

Virtual trenerlar va simulyatorlar - bular kompyuter modellari, laboratoriya mashgʻulotlarini oʻz ichiga oladi, bu bilimlarni mustahkamlash va ularni haqiqiylarni taqlid qiladigan vaziyatlarda qoʻllash koʻnikmalarini egallash imkonini beradi. Ushbu turdagi oʻquv materiallariga, shuningdek, nazariy bilimlarni amaliyot bilan vizual bogʻlash uchun tuzilgan, tipik masalalarni hal qilish algoritmlarini ishlab chiqish uchun moʻljallangan elektron muammoli kitoblar kiradi.

Test topshiriqlari banklari - auditoriya va mustaqil ishlash, bilimlarni avtomatlashtirilgan tekshirish uchun ishlatiladi.

Elektron oʻquv materiallari sizga quyidagilarga imkon beradi: zarur ma'lumotlarni qidirishni sezilarli darajada soddalashtirish; bosma shaklda butun kutubxonalarni egallagan katta hajmdagi oʻquv va uslubiy adabiyotlarni ixcham taqdim etish; nodir nashrlardan foydalanishni ta'minlash; virtual makonda real

---

[56] Левина, Вера Александровна. Формирование профессиональной компетентности специалиста сестринского дела с квалификацией базового среднего профессионального образования.Дисс... канд. мед. наук. -Брянск, 2021.- 150.с.

vaziyatlarni simulyasiya qilish; talabalarning tayyorgarlik darajasini xolisona baholash.

O‘quv materiali qaysi shaklda taqdim etilishidan qat’iy nazar, u faqat o‘rganilayotgan mavzularni har tomonlama qamrab oladigan tasdiqlangan faktlar va ma’lumotlardan foydalanishi kerak.

Shunday qilib, o‘quv jarayonini uslubiy ta’minlash tizimi dastur va ta’lim standartlarida nazarda tutilgan o‘quv materialining butun mazmunini qamrab olishi kerak.

Shaxsiy-faol yondashuv optimaldir, chunki uning asosiy e’tibori talabaning shaxsiyatiga qaratilgan. Bunday holda, o‘rganish asta-sekin murakkab bo‘lgan kasbiy vaziyatlar shaklida rivojlanadi, ular o‘quv kognitiv va kommunikativ vazifalar bilan ifodalanadi, bu erda har qanday mavzu ushbu muammolarni hal qilish vositasi sifatida ishlaydi. Vazifa – bu aqliy faoliyatni faollashtiradigan, potensial imkoniyatlarni ochib beradigan va amalga oshiradigan motivatsion omil; tashxis qo‘yadi, to‘g‘rilaydi va kasbiy yo‘nalish darajasini oshiradi; eng hal qilib bo‘lmaydigan muammolardan birini amalga oshiradi: nazariyani amaliyotga yaqinlashtirish.

Hamshiralik ishi fanini shaxsga yonaltirilgan ta’lim orqali o`qitish uchun eng muhim modellardan biri – bu **VARK ta'lim modelidir**. Bu Nil Fleming tomonidan ishlab chiqilgan model bo'lib, u talabalarni dars davomida to'rtta asosiy turga ajratadi:

Vizual o'rganuvchilar Visual: ko'rgazmali qurollar va rasmlar orqali bilim berish.

Eshitish qobiliyatini o'rganuvchilar (Auditory): Mavzuni tinglash va gapirish orqali o'rgatish.

O‘qish orqali o'rganuvchilar (Reading): O‘qish orqali o`rgatish.

Kinestetik o'rganuvchilar (Kinesthetic): tajriba orqali o`rgatish.

**VARK modeli** talabalarda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirish, ularning kuchli tomonlariga mos keladigan strategiya va resurslarni tanlashga yordam beradi, o‘quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Ushbu model

talaba bilan hamkorlikda ishlashga yordam beradi va o‘z ehtiyojlariga javob beradigan va ilmiy muvaffaqiyatni qo'llab-quvvatlaydigan o‘quv muhitini yaratadi.

**VARK modeli** shaxsiy va kasbiy rivojlanishni davom ettirish imkoniyatini beradi, doimiy o'rganishni yanada samarali qiladi.

**VARK modeli** - talabalarda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirish uchun aql xarita (spiritual map) orqali fikrlarni tartibga solish va g'oyalar o'rtasida aloqa o'rnatishga yodam beradi. Ushbu vizual tasvir ularga katta rasmni va turli tushunchalar o‘rtasidagi munosabatlarni ko‘rishga yordam beradi. Shuningdek, muhim ma'lumotlarni ajratib ko‘rsatish, toifalarga ajratish yoki asosiy tushunchalarni ta'kidlash uchun ushbu modeldan foydalaniladi. Ya`ni talabaga ma'lumotni samaraliroq qayta ishlash va eslab qolishga yordam beradi.

Oliy ta’lim talabalarida Hamshiralik ishi fanini shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali o‘qitishda keng qo‘llaniladigan modellardan biri-bu **Round Table** modelidir. Ushbu model Hamshiralik ishi fanini o‘rganish vaqtida umumiy tarzda talabaning turli ko‘rinish va shakllardagi mavzuni tanlash, foydalanish, tanqidiy tahlil qilish, baholash, yaratish va uzatish, sotsiumda faoliyatining murakkab jarayonlarini tahlil qilishga tayyorlikda namoyon bo‘ladigan integrativ sifati tarzida qaraladi. Bunda zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyot talablariga mos holda pedagogik oliy ta`lim muassasalari talabalarining shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim kompetentligini oshirish borasidagi bilimlarini takomillashtirish orqali rivojlantirish texnologiyasini yaratish pedagogik yo‘nalishdagi tadqiqotlar orasida alohida ahamiyat kasb etadi.

**Round Table** modeli talabaning intellektual-ijodiy kompetentligi uchun zarur bo‘lib, intellektual-ijodiy faoliyat turlari, ular orqali tarqatilayotgan axborotlar bilan tanishish, ularni tanlash, saralash, tahlil qilish va baholash asosida tegishli sohalar bo‘yicha nazariy bilim, amaliy ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirish, puxta egallash, ushbu bilimlarni kasbiy, kundalik, madaniy, ma’naviy va ma’rifiy (amaliy) faoliyatda mahorat bilan qo‘llay olishga undaydi. Model asosida talabalarda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim kompetentlik shakllanib, intellektual jihatdan ularning nutqini, muloqot qilish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Dars davomida talabalar shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirish

jarayonini to‘g’ri yo‘lga qo‘yish ularning individual va umumiy rivojlanishiga zamin yaratadi. Bir vaqtning o‘zida talabalar nazariy materialni tushunish, yodlash, tuzish, uni saqlab qolish va maqsadli amalga oshirishga erishadi. Bundan tashqari, har bir talabaning shaxsiy shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tajribasini shakllantirish va uni ilmiy bilimlar bilan bog‘lash imkonini beradi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirish vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish kelajakdagi mutaxassislarning ilmiy ish faoliyatini baholashning ishonchli mezonidir. Bu yerda nafaqat mavzuga oid bilim va munosabatlar, balki shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim ko‘nikmalar ham aniq namoyon bo‘ladi. O‘quv jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantiradigan ishlab chiqarish vazifalaridan foydalanish - o‘quv faoliyatining ma’no-mazmuni va maqsadli tarkibiy qismlarining rolini birinchi o‘ringa qo‘yadi, bu media makonda o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z-o‘zini boshqarish ta’limotiga o‘tishga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchi va talabalarning birgalikdagi samarali faoliyat holatlarini yaratish ta’limni samarali jarayonga aylantiradi, bu esa talabaning shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim kompetentligini rivojlantirish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

**Jot Thoughts** modeli ham bo‘lajak hamshira - o‘qituvchilarini turli axborotni tushunishga, uning ruhiyatga ta’siri oqibatlarini anglashga, texnik vositalar yordamida kommunikatsiyaning og‘zaki bo‘lmagan shakllari asosida muloqot usullarini o‘zlashtirishga o‘rgatadigan va talabalarni shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim kompetentligi rivojlantirishda asosiy rol o‘ynaydigan modeldir.

Modelning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

• bo‘lajak hamshiralarga nazariy ta’lim berish hamda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni shakllantirish;

• bo‘lajak o‘qituvchilarda tibbiy madaniyat bo‘yicha xulosa chiqarishga ko‘maklashish;

• mustaqil va uzluksiz ta’lim haqida xulosa chiqarishga yordam berish.

**Jot Thoughts** modeli orqali ta’lim jarayonida talabalarning shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosida kasbiy kompetentligini rivojlantirish quyidagilarga xizmat qiladi:

– talabalar o‘rganilgan bilimlarni tajribada sinab ko‘rish, qayta ishlash, izlanuvchanlik va ijodkorlik faoliyatlarini faollashtirish orqali shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosida kasbiy kompetentlik salohiyatini rivojlantiradi;

– kasbiy faoliyatda ko‘p uchraydigan har qanday nostandart vaziyatlarda mustaqil ravishda qaror qabul qila olishga, shuningdek, yaxlit jarayonning barcha voqea va hodisalarini, dalillarini tahlil qila bilishga asos yaratadigan ilmiy tafakkurni rivojlantiradi;

– kelajakda tahsil olayotgan sohasi bo‘yicha kasbiy faoliyatga tayyorlash orqali aqliy va amaliy faoliyatida o‘zining individual uslublariga ega bo‘lish imkonini beradigan media madaniyatni tashkil etishga ko‘maklashadi.

**"Flipped learning"** modeli ham tibbiy oliy ta’limda talabalarni shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali o‘qitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu model har bir talaba o‘rganilgan mavzu haqida o‘z fikrini yozib, boshqalar oldida chiqish qilishi kerak bolgan modeldir. Javoblar takrorlanmasligiga ishonch hosil qilish uchun yozib olishdan oldin javob og‘zaki bo‘lishish kerak. Shuningdek, har bir talabaga bir xil miqdordagi keyslar berish orqali teng navbat beriladi. Bu teng ishtirok etishni ta’minlaydi. Misol uchun, patogenez haqidagi savolga jamoaning har bir a’zosiga alohida varaq berilishi mumkin. Har bir jamoa a’zosi shu so‘zga aloqador ta’rifni yozib olishi, keyin uni stolga qo‘yishi kerak. Vaqt tugashidan oldin har bir talaba stoldan shu savolga oid ta’rifni olishi kerak.

**"Flipped learning**"da sifatni ta’minlashning yana bir usuli - bu barcha talabalardan doimiy ravishda hamshiralik ishi nazariyasiga oid yangi fikrni yozishni so‘rashdir. Unga ko‘ra, har bir talabaga o‘z lug‘atiga ko‘ra ko‘proq yoki kamroq yangi so‘z yozishga imkon beriladi, bu orqali har bir jamoa o‘z guruhdoshlaridan yangi so‘z yozishni so‘rashlari mumkin, bu jarayonga kommunikativlikni qo‘shadi. Cheklangan vaqt davomida jamoa a’zolari bir-birlarini vazifani bajarishga undaydi va “jamoaviy ruh”ni shkllantiradi.

Ushbu model ta’lim oluvchilarning shaxsga yo‘naltirilgan - hayotiy faoliyat, tarbiya, o‘z-o‘zini tarbiyalash va mustaqil ta’limdan iboratdir. Bunday muhit zamonaviy medianing vazifalarini bajarish va ularni amalga oshirishning asosiy

tamoyillarni namoyon etadi hamda o‘quv muassasasining yagona ta’limiy jarayonni tashkil qiladi. Bunda u bo‘lajak mutaxassislarni shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali kompetentligini rivojlantirishda qiziquvchi barcha subyekt va obyektlarning bor imkoniyatlarini birlashtiradi.

**"Flipped learning"** modeli orqali tibbiy ta’limda talabalarning shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali kompetentligini rivojlantirish quyidagi topshiriqlar asosida amalga oshirildi:

**1. Tayanch tushunchalarni aniqlashga oid topshiriqlar.** Talabalar bu turdagi topshiriqni bajarish uchun “Hamshiralik ishi nazariyasi va uslubiyoti manbalari va rivojlanish bosqichlari” deb nomlangan kichik mavzu tanlanadi.

Topshiriq quyidagi tartibda bajarildi:

- talabalarning e'tiboriga kichik mavzu taqdim qilinadi;
- ularning har biri mustaqil ravishda kichik mavzu mazmunida berilgan tayanch so‘z (tushuncha)larni aniqlaydi;
- talabalarning yechimlari akademik guruh ishtirokida muhokama qilinadi;
- talabalarning yechimlari umumlashtiriladi.

**2. Guruhlashtirishga oid topshiriqlar.** Odatda bu tushuncha “guruhlarga ajratish” tarzida ham qo‘llaniladi. Mohiyatiga ko‘ra, guruhlashtirish qandaydir belgilar, mazmuni hamda muayyan izchillikka muvofiq amalga oshiriladi.

Topshiriq quyidagi tartibda bajarildi:

- talabalar kichik guruhlarga biriktiriladi;
- guruhlarning e'tiboriga akademik jamoa ishtirokida umumlashtirilgan tayanch tushunchalar to‘plami taqdim qilinadi;
- kichik guruhlarga to‘plamga kiritilgan tayanch tushunchalarni muayyan shartga ko‘ra guruhlashtirish vazifasi topshiriladi;
- guruhlar tomonidan tayyorlangan yechim akademik jamoa ishtirokida tinglandi va baholanadi.

**3. Qayta bayon etishga oid topshiriqlar.** Mazkur topshiriq bundan avval ko‘rsatilgan topshiriqning mantiqiy davomi sanaladi va mavzu bo‘yicha ajratilgan tayanch tushunchalar asosida o‘quv materialining mohiyati yoritiladi.

Topshiriq quyidagi tartibda bajariladi:

- talabalar beshta kichik guruhlarga biriktiriladi;
- har bir guruhga muayyan mavzudagi tayanch tushunchalar to‘plami taqdim qilinadi;
- guruhlar o‘zlariga topshirilgan tayanch tushunchalar to‘plami asosida o‘rganilgan mavzuni qayta bayon qiladi;
- kichik guruhlarning faoliyati akademik guruh ishtirokida baholanadi.

**4. Umumlashtirishga oid topshiriqlar.** Ushbu topshiriqni bajarish chog‘ida talabalar muayyan tushunchalarni umumlashtiradi. Til iste'molida ko‘p holatlarda “tushunchalarni umumlashtirish” atamasi qo‘llaniladi. Mazkur atama lug‘aviy jihatdan shunday mazmunga ega: “tushunchalarni umumlashtirish oxir-oqibat mazmun jihatidan kam bo‘lmagan ko‘zga tashlanuvchi belgilarni istisno qilgan holda boshqa bir yanada keng hajmga ega bo‘lishni ifodalovchi mantiqiy operatsiya sanaladi.

Topshiriq bilan ishlash tartibi quyidagicha:

- talabalar kichik guruhlarga biriktiriladi;
- har bir guruhga mavzuga oid materiallar taqdim qilinadi;
- guruhlar tomonidan taqdim qilingan material o‘rganiladi;
- kichik guruhlarga topshiriqni bajarishga doir ma’lumot taqdim qilinadi;
- guruhlar tomonidan topshiriq bajarildi va yechim taqdim qilinadi;
- akademik jamoa ishtirokida kichik guruhlarning yechimlari muhokama qilinib, baholanadi;
- o‘qituvchi rahbarligida kichik guruhlarning yondashuvlari asosida yakuniy yechim shakllantiriladi.

O‘quv topshiriqlarining qolgan turlari – muammoli vaziyatlarni hal etish, tahlil qilish, qiyoslash hamda vizuallashtirishga oid topshiriqlar ham bo‘lajak o‘qituvchilar shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim kompetentligini takomillashtirishda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, bo‘lajak hamshiralarni shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim bo‘yicha “**Flipped learning”** modeli asosida takomillashtirishda talabalarni fikrlash, o‘ylash,

matn bilan ishlash, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim atamalarni aniqlash va izohlash, tayanch tushunchalarni ajratish hamda ular asosida mavzuni qayta bayon qilish, guruhlashtirish, turkumlashtirish kabi kompetensiyalarni o‘zlashtirishga undovchi o‘quv topshiriqlarini bajarishga jalb qilish ular tomonidan shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim kompetentlik sifatlarini samarali o‘zlashtirilishi uchun zarur sharoitni yaratadi. Buning uchun bu turdagi o‘quv topshiriqlari uchun metodik ishlanmalarni tayyorlash talab qilinadi. O‘quv materiallarining mohiyatidan kelib chiqqan holda matn bilan ishlash, reja tuzish, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim mediaga oid so‘zlarni aniqlash va izohlash, tayanch tushunchalarni aniqlash, ular asosida mavzuni qayta bayon qilish, guruhlashtirish hamda turkumlashtirishga oid topshiriqlarning ishlab chiqilishi talabalarning o‘quv-bilish faolligini oshiradi. Shu bilan birga, ularda bo‘lajak hamshira - o‘qituvchi sifatida nazariy manba bilan ishlash, o‘quv materialini muayyan izchillikda rejali tarzda bayon qilish, so‘zlarning mohiyatidan xabardor bo‘lish, ularning izohlay olish, tayanch tushunchalarning mohiyatini yoritish, ular yordamida o‘quv materialini qayta bayon qilish, guruhlashtirish hamda turkumlashtirish kabi kasbiy kompetentlik sifatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Mazkur jarayonning texnologik jihatdan yoritilishi esa pedagogik faoliyat samaradorligining yanada oshirilishini ta'minlaydi.

Fanlararo aloqalar tufayli Hamshiralik ishi fani talabalarga nafaqat bilimlar tizimi, balki metodlar tizimi sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Hamshiralik ishi fani falsafa, anatomiya va fiziologiya, klinik anatomiya, fiziologiya, mikrobiologiya, patologiya, klinik epidemiologiya, insoniyat taraqqiyoti, sog‘liq va kasallik sotsiologiyasi, jamoada hamshiralik ishi, valeologiya va boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bu fanlarning integratsiyalashuvi talabada shaxsga yo‘naltirilgan kompetensiyalarni va umumlashgan bilimlarni shakllantirish, ular mazmunini chuqurlashtirish va boyitish imkonini beradi.

Hamshiralik ishi fanini shaxsga yo‘naltitrilgan ta’lim orqali o‘qitish - hamshiralik ishi rivojlanishining tarixiy bosqichlari, shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimi reformalari, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish yo‘llari, salomatlik konsepsiyasini, hamshiraning burch va vazifalarini, aholining tibbiy madaniyatini

shakillashtirish va profilaktikani yangicha yondoshish usullarini, hamshiralik jarayonini va tibbiyot hamshirasi amaliyoti standartlarini, hamshiraning kasallik tarixi chizmasi va hamshiralik tashxisi shuningdek hamshiralik parvarishini olib borishni, anatomo-fiziologik xususiyatlariga bog‘lik holda sog‘lom va bemor bemorlarni subyektiv va obyektiv tekshirish, ratsional ovqatlantirish, tibbiy etika va deontologiyaning zamonaviy aspektlarini, sanalogiya va valeologiya, bioetika shuningdek, tibbiyot hamshirasi kasb etikasi bilan tanishtiriladi. Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu fanlar bir-biriga bog‘liqligi hamshiralarni bemorlardan obyektiv va subyektiv ma’lumotlar to‘plash, instrumental tekshiruvlar olib borish va differensial tashxis qo‘yishda, davolash va parvarishlash ishlarini olib borishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### 2.2- §. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali Hamshiralik ishi fanini o‘qitishning metodik ta’minotini takomillashtirish modeli

Tibbiy oliy ta’lim tizimida yuqori sifat va samaradorlikka erishish eng avvalo ta’lim jarayonining qanday tashkil etilganligi, o‘quv-uslubiy ishlarning zamonaviy talablarga qay darajada javob bera olishi bilan baholanadi. Darhaqiqat, tibbiy ta’lim tizimini doimo isloh etish, o‘qitish usul va vositalarini takomillashtirish, ta’lim mazmunini boyitish bugungi kunning muhim talabidir.

Oliy tibbiy ta’lim jarayoniga kredit modul tizimni joriy etishning asosiy talablaridan biri talaba (shaxs)ga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etishdir. Bu ta’lim tizimi talabalarda mustaqil fikrlash, o‘z bilimini boshqalar bilan ulashish, o‘zi uchun o‘zi qaror qabul qila olish salohiyatlarini shakllantirishga yo‘naltiriladi.

Ta’lim jarayonini tashkil etish - ideal va amaliy pedagogik faoliyatning u yoki bu turini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun zarur bo‘lgan tashqi olamning muhim ahamiyatli xossalari xususidagi axborotning o‘zlashtirilishidir, bu o‘z navbatida ta’lim usullarini va maqsadga muvofiq keladigan usullar va jarayonlarni to‘g‘ri tanlash va foydalanishga bog‘liq.

Har qanday ta’limning maqsadi – ta’lim oluvchilarda bilim, ko‘nikmalar va malakalarni shakllantirishdan iboratdir. Shuning uchun, ta’lim usuli, vositasi va

shaklini tanlashda eng asosiy omil bo‘lib aniq o‘quv mashg‘ulotining maqsadi va vazifasi xizmat qiladi.

Hamshiralik ishi fanini shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali o‘qitishda ta’lim vositalariga quyidagilar kiradi:

Kommunikativ vositalar: Pedagog nutqi (savodli, so‘z boyligi, obrazliligi);

Nutq texnikasi: intonatsiya, tembr, temp, diapazon, diksiya, pauza, ton (ohang);

Verbal ta’sir – so‘z orqali;

Noverbal ta’sir – so‘zsiz (mimika, pantomimika, jestlar, vizual kontakt);

Ko‘rgazmali vositalar: rasmlar, illyustratsiyalar, sxemalar, plakatlar, diagrammalar;

Didaktik vositalar: Darsliklar, O‘quv qo‘llanmalar, Uslubiy qo‘llanmalar, Tarqatma materiallar, Kartochkalar;

Texnik vositalar: Kompyuter, Planshet, Telefon, Videoproyektor, Ekran, Slayd-taqdimot, Audio va videomateriallar, Multimediyalar Trenajyorlar Doska (oddiy, markerli, flipchart);

Laboratoriya uskunalari, jihozlar, asboblar, anjomlar, simulyatorlar. Hozirgi pedagogika amaliyotida ta’lim shakllarining 10 dan ortiq turlari mavjudligi e’tirof etiladi.

Ushbu ta’lim shakllarini ta’lim jarayoniga tatbiq etishda turli yondashuvlar va usullar mavjud. Ammo bugungi zamonaviy ta’lim talabalarni ta’lim jarayonidagi faolligini oshirishga qaratilgan faol shakllarni qo‘llashni talab etadi. Shuni e’tiborga olish kerakki, faol o‘qitish shaklini tanlash nafaqat ta’lim maqsadiga, balki o‘quv materiali mazmuniga ham bog‘liq bo‘ladi.

Faol ta’lim shakllarini maqsadli yo‘naltirilgan tanlash belgilangan o‘quv maqsadga erishishni kafolatlaydi. Hamshiralik ishi fanida faol usulni tanlashda uning samaradorlik darajasini e’tiborga olish ham ahamiyatga ega. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘quv materiali og‘zaki bayon etilganda talabalar ma’lumotning 5-10 % ni eslab qoladilar. O‘quv adabiyotlaridan mustaqil o‘qish, ma’lumotning 10-15 % ni, ko‘rgazmali materiallar esa ma’lumotlarning 20-25 % ni

o‘zlashtirishga imkon beradi. Amaliy usullar eng samarali usul hisoblanib, talabalar ongida ma’lumotning 75%i saqlanib qoladi. Lekin, o‘quv-materiallarini talabalar tomonidan mustaqil o‘rganish, amaliy mashg‘ulotlarini mustaqil bajarish metodlari undan ham samaraliroq hisoblanadi, bunda 90 % bilim o‘zlashtiriladi va ko‘nikma shakllanadi.

Demak, Hamshiralik ishi fanida talabalarni mustaqil o‘rganish, izlanish, muammolarni mustaqil yechish, amaliy ko‘nikmalarni egallashga yo‘naltirilgan innovatsion usullarni qo‘llash yaxshi samara beradi. O‘qitish jarayonida guruhdagi talabalar soni muhim ahamiyatga ega. Agar guruhda talabalar ko‘pchilik bo‘lmasa, eng faol metoddan foydalanib, o‘qitishni tashkil etish mumkin. Agar talabalar ko‘p bo‘lsa, faol metodlardan foydalanish yaxshi natija bermasligi mumkin. Talabalarning har biri bilan ishlash uchun vaqt yetishmaydi. Ba’zi faol metodlarni qo‘llashda alohida sharoitlar talab qilinmaydi, ammo maxsus o‘quv-moddiy sharoitlar talab qiladigan faol metodlardan foydalanmoqchi bo‘lsak, u holda didaktik ta’minotni amalga oshirishimiz kerak. Ta’lim shakllarini tanlashda o‘quv guruhidagi ta’lim oluvchilarning soni muhim ahamiyatga ega. Katta guruhlar uchun o‘quv materialini og‘zaki bayon qilish usullari (ma’ruza, hikoya, tushuntirish) ko‘proq mos keladi.

Hamshiralik ishi fanida o‘qitishning innovatsion usullarini tanlashda ta’lim oluvchilarning o‘quv imkoniyatlarini hisobga olish juda muhim: yoshi, tayyorgarlik darajasi, hamda jamoadagi o‘zaro munosabatlarning o‘ziga xosligini, talabalarning o‘zo‘zini boshqarish qobiliyatini e’tiborga olish muhimdir. Dasturning yoki o‘quv kursi mavzularining davomiyligi tabiiyki, ta’lim usulini tanlashga ta’sir ko‘rsatadi. Ularning ba’zilari talabalarni tayyorlashga qancha ko‘p vaqt talab qilsa, bu faoliyatni bajarilishiga ham shuncha vaqt talab qiladi. Ta’lim muddati shunchalik chegaralangan bo‘lishi mumkinki, ko‘p vaqt talab qiladigan metodni siz o‘ylaganchalik tez-tez ishlatish imkonini bermaydi, bu holda bu metodlarni faqat maqsadga muvofiqroq joylarda qo‘llashingiz mumkin.

Hamshiralik ishi fanida shaxs (talabaga)ga yo‘naltirilgan ta’limda ta’lim oluvchilar o‘quv materialini o‘rganish muhimligini ongli ravishda tushunib

yetishlari, shuningdek samarali o‘zlashtirish uchun ularda xohish-istak, qiziqish va ishonch bo‘lishi kerak. Talabaga yo‘naltirilgan ta’limda o‘zlashtirilgan bilim, egallangan ko‘nikma va malakalar mazmunan tizimli va mantiqan tugallangan tarzda shakllantirilib turli vaziyatlarda qo‘llash va ta’lim oluvchilarni mustaqil o‘rganish qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi.

Tibbiy pedagogikada Hamshiralik ishi fanida integral yondashuvni, shuningdek modellashtirishni qo‘llash imkoniyati nafaqat pedagogik muammolarni o‘rganishda, balki tizimning alohida turi bo‘lgan ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda ham ilmiy jihatdan isbotlangan deb hisoblanishi mumkin.

Tizimli, yaxlit yondashuv bilan ta’lim o‘qituvchi va talabaning ikki tomonlama faoliyati sifatida qaraladi va o‘rganish predmeti o‘qituvchi va talabaning o‘zaro ta’siri hisoblanadi.

O‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi murakkab munosabatlar va aloqalar majmui ta’lim vositalari, usullari va tashkiliy shakllari tizimi orqali vositachilik qiladi. Boshqacha qilib aytganda, o‘quv jarayoni - bu umumiy maqsad va boshqaruv birligi bilan birlashtirilgan o‘zaro bog‘liq komponentlar majmuasidir. Ta’lim samaradorligi faqat o‘qituvchi va talabaning o‘zaro ta’siri asosida olib borilishi mumkin mumkin. Bu o‘zaro ta’sir o‘quv jarayonini tizimli tashkil etishda bilvosita ifodalanadi.

Mavjud o‘quv jarayoni tizimini jamlama bir butun sifatida rivojlantirish ushbu jarayonning barcha elementlarini umumiy maqsadlarga bo‘ysundirishdan yoki yetishmayotganlarini yaratishdan iborat.

Ta’lim mazmuni ostida B.C.Lednev "uchlik yaxlit jarayonning mazmunini, birinchidan, oldingi avlodlar tajribasini o‘zlashtirish, ikkinchidan, shaxsning tipologik fazilatlarini tarbiyalash, uchinchidan, shaxsning aqliy va jismoniy rivojlanishi bilan tavsiflanadi" deb tushunadi. Ta’lim mazmuni iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot omillaridan biri bo‘lib, jamiyat taraqqiyotiga, qonun ustuvorligini mustahkamlash va takomillashtirishga qaratilgan bo‘lishi kerak[57].

---

[57] Екимова Н. Научное обоснование непрерывного профессионального развития специалистов сестринского дела в условиях оказания высокотехнологичной медицинской помощи. Дисс... канд.мед.наук. -Самара, 2020. -113.с.

Ta’lim mazmuni, ya’ni mutaxassisning ta’lim muassasasidan chiqishida olinishi kerak bo‘lgan yakuniy natija davlat ta’lim standartlari bilan belgilanadi. Ta’lim mazmuni jamiyatning umumiy va kasbiy madaniyatining adekvat jahon darajasini, kasb-hunar va tegishli malakaga ega bo‘lishni ta’minlashi kerak.

Davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqishda - "Hamshiralik ishi" mutaxassisligi bo‘yicha tibbiyot xodimlarini tayyorlash mazmuni - bo‘lajak hamshiralarning kasbiy faoliyatini bashoratli tahlil qilish, muvaffaqiyatli ishlash uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni aniqlashga asoslangan ilmiy asoslangan faoliyat yondashuvidan foydalaniladi.

Kasb - bu ma’lum bilim va ko‘nikmalarni talab qiladigan barqaror mehnat faoliyati turi. Kasbiy guruh juda ko‘p sonli mutaxassisliklarni birlashtirishi mumkin. "Mutaxassislik" tushunchasini esa ta’lim sohasida "mutaxassislik" toifasi sifatida ko‘rib chiqish mumkin. Oliy ta’limi muassasasida ta’limning yo‘nalishi va mazmunini, mehnat sohasida - kasb doirasidagi mehnat mazmunining maxsus yo‘nalishi va o‘ziga xosligini tavsiflovchi toifa sifatida tavsiflaydi.

Mutaxassislikni shakllantirishda odatda malaka ham ko‘rsatiladi. Malaka - bu mutaxassisning kasbiy vazifalarning ma’lum sinflarini (masalan, hamshira, doya) hal qilish qobiliyatini tavsiflovchi kasbiy tayyorgarlik darajasi va turi.

Hamshiralik ishi ta’limi mazmuni Davlat ta’lim standarti asosida ishlab chiqilgan ta’lim dasturlari (namunali va ishchi) bilan belgilanadi.

Davlat ta’lim standarti. Davlat ta’lim standarti asosiy ta’lim dasturlarining majburiy minimal mazmunini, talaba larning o‘quv yuklamasining maksimal hajmini, mehnat va ijtimoiy vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo‘lgan bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilaydigan me’yoriy hujjatdir.

Oliy ta’limining davlat ta’lim standartlari kasbiy xususiyat va kasbiy ta’lim siklining tarkibiy qismidan iborat.

Kasbiy xususiyatlar – o‘qitish mazmunini aniqlash uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi; uning tuzilishi va parametrlari sifat va kasbiy tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarning ekvivalentligini ta’minlaydi.

Kasbiy siklning tashkilot komponenti tegishli darajadagi va sifatdagi kasbiy tayyorgarlikni ta’minlaydigan bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalar miqdorini belgilaydi.

Davlat ta’lim standarti ta’lim sifatini davlat darajasida boshqarishning asosiy vositasiga aylandi. U jamiyat a’zolarining milliy va jahon mehnat bozorida raqobatbardoshligining ijtimoiy kafolati bo‘lib xizmat qiladi, xorijiy ta’lim standartlari bilan hamohangdir.

O‘quv rejasi – bu ta’lim muassasasida o‘qitiladigan o‘quv fanlari ro‘yxatini ko‘rsatuvchi, ularning o‘quv yili bo‘yicha o‘tish ketma-ketligini va har bir o‘quv yili yoki har hafta uchun ajratilgan soatlar miqdorini ko‘rsatadigan davlat hujjati.

O‘quv intizomi (predmeti) tegishli fanning asoslarini o‘z ichiga oladi. Fanning asoslari tushunchalar tizimi, asosiy qoidalar yoki qonunlar, ulardan kelib chiqadigan oqibatlar, shuningdek, ushbu qoida va oqibatlarni ifodalashning lug‘at va ramziy vositalarini (atamalar, belgilar, formulalar va boshqalar) o‘z ichiga oladi.

Oliy ta’lim tizimida, jumladan Hamshiralik ishiga o‘qitishda o‘quv fanlarini tanlashda hamma narsa yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga bo‘ysunadi.

O‘quv rejasi kabi namunaviy dastur ham davlat hujjati bo‘lib, u har bir o‘quv fanining mazmunini ochib beradi va o‘quv yilida o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning taxminiy miqdorini ko‘rsatadi.

O‘quv fanining ish dasturi - ta’lim muassasasi ishchi o‘quv rejasining muayyan o‘quv intizomi bo‘yicha talabalarni tayyorlashning minimal mazmuni va darajasiga qo‘yiladigan talablarni amalga oshirish uchun mo‘ljallangan, ushbu ta’lim muassasasi tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqilgan va qabul qilingan hujjat.

Dastur odatda tushuntirishni o‘z ichiga oladi. Dasturda, qoida tariqasida, tushuntirish yozuvi, tematik reja (bo‘limlar, mavzular bo‘yicha soatlarni hisoblash), dasturiy material, tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati mavjud.

O‘qituvchi pedagoglarning xususiy fanlar asoslarini o‘qitishga yo‘naltirilgan. Mashg‘ulotlar jarayonini noan’anaviy shakllarda tashkil etish, ta’lim jarayonini mukammal andoza asosida loyihalashga erishish, mazkur loyihalardan oqilona foydalana olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi ta’lim oluvchilar tomonidan nazariy

bilimlarni puxta, chuqur o‘zlashtirilishi, ularda amaliy ko‘nikma va malakalarning hosil bo‘lishining kafolati bo‘la oladi.

Tadqiqot ishini olib borishda bo‘lajak hamshiralarda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni Peer feedback modeli asosida takomillashtirishga harakat qildik. Ma’lumki, Peer feedback modeli talabalarda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni takomillashtirishda turlicha yondashuvlar, voqea va hodisalar, yangi g‘oyalar va ulardan ta’lim jarayonida samarali foydalanishda, ta’sirchanligini oshirishda, konpitensiyaviyligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega sanaladi.

Peer feedback modeli bo‘lajak hamshiralarda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirishga yo‘naltirilgan faoliyat jarayonidagi turli yondashuv va munosabatlar bo‘yicha bir-biriga bog‘langan bosqichlardagi voqealarni tizimli tarzda yetkazib berish uchun zanjir vazifasini bajarishga qaratilgan. Mazkur jarayonni ahamiyati va zaruriyatini inobatga olib, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirishga yo‘naltirilgan Peer feedback modelini ishlab chiqdik.

Yuqorida bildirilgan fikrlarning har biri o‘z maqsadiga va xususiyatiga ega bo‘lib, ular voqealar turlarining majmui bilan tavsiflanadi. Bo‘lajak hamshiralarda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirish jarayonida talabalarning turli yondashuvlar asosida voqea-hodisani tahlil qilish, umumlashtirish, induktiv va deduktiv xulosalar chiqarish, taqqoslash, aniqlik kiritish, uning erkinligi, tashabbuskorligi voqea-hodisalarga shunchaki emas, tanqidiy yondashish, ijodiy va innovatsion fikr yuritish ta’sirchanligini oshiradi va o‘z faoliyatlarida ulardan samarali foydalanishga imkon beradi.

Hamshiralik ishi fanini shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning Peer feedback modeli orqali o‘qitishning ahamiyatli tomoni shundaki, u voqealar rivojida talabalarda tashabbuskorlik, tanqidiy yondashish, emotsionallik, kommunikativlik, kreativlik, innovatsion fikrlash, tashkilotchilik va liderlik sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Voqealar rivojida talabalarda, tashabbuskorlik, tirishqoqlik, faollik, mohirlik, pishiqligi va tanqidiy yondashish orqali o‘z oldiga aniq maqsad va vazifalarni qo‘ya bilishi, ularni amalga oshirish yo‘lidagi muammolar yechimini topa olishi, nihoyasiga yetkazish uchun zarur bo‘lgan usul hamda vositalarni

qo‘llashi ijodiy fikrlovchining voqea hodisaga munosabati, uning xususiyatlarini ajrata bilishida namoyon bo‘ladi.

Bo‘lajak hamshiralarda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirishda Peer feedback modelidan foydalanish bir qator shartlar asosida amalga oshiriladi. Bunday shartlarga quyidagilar kiradi.

1. Intellektual-ijodiy kompetentlikning mazmuni, mohiyati va xususiyatlari (turi xil vositalar bilan axborot bankini shakllantirish) haqidagi ma’lumotlarni to‘plash va tarqatish orqali tadqiq etish.

2. “Voqealar rivoji texnologiya”si ta’lim tarbiya jarayonida talabalar jamoasini birlashtirish va ularni bir maqsadga yo‘naltirish orqali o‘zaro munosabatlar, do‘stlik, o‘rtoqlik rishtalarini yanada mustahkamlashga erishish.

3. Mazkur texnologiya emotsiya va his - tuyg‘ular orqali o‘qitish talabaning faqat aqliy qobiliyatiga tayanish asosidagina ta’lim berishni samaraliligini asoslaydi. Masalan, jismoniy tarbiya kurslarida san’at asarlaridan foydalanish talabalarga nafaqat materialni emotsional idrok etish, balki she’r, qo‘shiq, maqol, tasviriy san’at asarlarida noma’lum tarzda ifoda etilgan ma’lumotlarni, voqea- hodisalarni anglash, ularni izlab topish imkonini beradi. Demak talabalar o‘zlari ko‘rgan, eshitgan va bevosita ishtirok etgan, munosabatga kirishgan jarayonlar, voqea-hodisalarga o‘z fikr va qarashlari, mulohazalarini bildirganda yoki yoritib berganda, tushuntirganda, albatta, voqealar rivojiga murojaat qiladilar. Mazkur jarayon talabalarda mustaqil qarash, ijodiy fikrlash, kreativ yondashish, kommunikativlik va liderlik qobiliyatining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Bu o‘rinda talaba quyidagicha mushohadaga asoslanadi, ya’ni natijaviylik hamma vaqt ham yuzaga chiqmaydi, chunki bu imkoniyatning mahsuli, imkoniyat esa hamma vaqt ham berilmaydi insonga, degan qarash bilan belgilanadi.

Bo‘lajak hamshiralarda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirish tizimi samaradorligini oshirishning Peer feedback modeli quyidagi jadval asosida ishlab chiqildi. (2.6-rasm)




**2.6-rasm. Bo‘lajak hamshiralarda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali o‘qitishning Peer feedback modeli**

Bo‘lajak hamshiralarda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirishdagi samarali yo‘llardan biri sifatida, kontekstli ta’lim texnologiyasi asosida o‘quv-kasbiy faoliyatni modellashtirish usulini olishimiz mumkin. Bu texnologiya kompetensiyaga ega mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi masalalarini hal etishni ta’minlaydi. U integrativ ko‘rinishda bo‘lib, turli ta’lim texnologiyalari, xususan, muammoli, loyihali, modulli, masofaviy ta’lim texnologiyalarini o‘z ichiga olishi mumkin.

Hamshiralik ishi fanini shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning Peer feedback modeli bo‘yicha o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – uning kasbiy-faoliyatli yo‘naltirilganligi bo‘lib, buni quyidagi omillar ta’minlaydi:

– o‘quv materialining mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi masalalarini hal etishga yo‘naltirilganligi;

– amaliy vazifalarning amaliy mashg‘ulotlarda amalga oshirilishi;

– talabalar tomonidan kasbiy bilimlarning optimal individual dastur asosida o‘zlashtirilishi;

– mutaxassisning mustaqil faoliyat yuritishiga yordam beruvchi ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirishga yo‘naltirilganligi;

– talabalarning kasbiy va shaxsiy sifatini shakllantirish orqali o‘z-o‘zini anglashi uchun sharoitlarning yaratilganligi: o‘z ustida ishlash uchun sharoitlarning

mavjudligi. Mazkur texnologiyadan foydalanishning asosiy maqsadi – shaxsning ta’lim muassasalarida pedagogika sohasida to‘laqonli kasbiy faoliyat yuritishga tayyor bo‘lgan, raqobatbardosh, kompetensiyaga ega malakali kadr bo‘lishi uchun sharoit yaratish.

Hamshiralik ishi fanini shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning Peer feedback modeli orqali o‘qitishning asosiy birligi – produktiv fikrlashni faollashtiruvchi muammoli vaziyat hisoblanadi. Kasbiy yo‘naltirilgan muammoli vaziyatlar tizimi talabalarning kasbiy funksiyalarini modellashtiradi, ta’lim mazmunini dinamikada o‘rganishga va talabalarning ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga yordam beradi. Shuningdek, talabalarning o‘quv-izlanish jarayonini faollashtirish, to‘garaklarga jalb etish, ishlab chiqarish amaliyotini optimallashtirish orqali ularni amaliyotga tadbiq etish mumkin bo‘lgan ilmiy maqolalar, tezislar, diplom ishlarini yozishga va ilmiy tadqiqot ishlariga tayyorlash lozim. Talabalarni ushbu jarayonga sifatli tayyorlash, faqat o‘quv materialini o‘zlashtirish bilan emas, balki ularni ishlab chiqarish jarayoniga amaliy tayyorlash asosida olib boriladi. Bu jarayonda talabalar pedagogik fikrlash, muloqot, yondashuv, o‘zaro hamkorlikda kasbiy va ijtimoiy odob-axloq qoidalarini o‘zlashtiradilar. Shu tarzda bo‘lajak mutaxassislar kasbga to‘siqlarsiz kirishib ketish uchun real kasbiy tajribalarni egallay oladilar.

Quyida keltirilgan shakllar va usullardan bo‘lajak hamshiralarda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirishga yo‘naltirilgan faoliyat jarayonida keng foydalanish yuqori darajadagi samaradorlikni ta’minlashga olib keladi.

Adaptiv-oriyentatsiya bosqichi – tanlangan ixtisoslikda yangicha texnologiyalar va o‘z ijodiy salohiyatiga oid g‘oyalarni yaratish – innovatsiyalarga moslashish va uni rivojlantirish va amalga oshirishda psixologik to‘siqlarni bartaraf etishning muhimligi to‘g‘risidagi qoidalar asosida amalga oshiriladi, shuningdek, o‘quv va ilmiy axborotlarni ishlab chiqarishda mavjud tarkibga ega bo‘lgan axborot kartasini qurishda nazariy o‘zgarishlardan foydalaniladi.

Kognitiv-refleksiv bosqich – prognostik faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘z intellektual-ijodiy faoliyatini tahlil qilishga tayanishi-kelajakda tanlangan mutaxassislik bo‘yicha yangicha texnologiyalar haqida bilim egasi va o‘z

salohiyatidan foydalanishni nazarda tutadi. Axborot kartalari bilan ishlashda bo‘lajak o‘qituvchi olingan ma’lumotlarni xarakterlash va baholash uchun taklif etiladi.

Yaratuvchi va samarali bosqich – innovatsion texnologiyalar bilan ishlarni tizimli tashkil etish ko‘nikmalarini shakllantirish. Ushbu bosqichda bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining intellektual-ijodiy faoliyatga doimiy jalb etilishi, bu jarayonning to‘g‘ri tashkil etilishi, professional faoliyatda ham, o‘qituvchilik shaxsida ham sifatli o‘zgarishlarga olib keladi.

Bo‘lajak hamshiralarning shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirishda uning kasbiy faoliyatida talabani o‘qitish, tarbiyalash, rivojlantirish jarayoni amalga oshirilayotgan ijtimoiy muhitni yaxshilashga tayyorligini ko‘zda tutadi. Bizningcha, pedagogik faoliyatning ijobiy ijtimoiy yo‘nalganligini tushunish kerak bo‘lib, bu shaxsning ayrim aksentuallashgan xususiyatlari salbiy ta’sirining chegarasini pasaytirishga imkon beradi.

Ta’lim rivojlanishi yo‘nalishini belgilash va o‘zgarishlar ko‘lamini to‘g‘ri baholash, ishni takomillashtirish va ta’lim jarayoni ishtirokchilarini rag‘batlantirish uchun sharoitlar yaratish qobiliyati yetakchi muassasa rahbarining asosiy sifatlari hisoblanib, ular mos seminar davomida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Faqatgina kelajak idealini yoki ta’lim siyosatini amalga oshirishdagi avval erishilgan natijalarni targ‘ib qilish bilan cheklanadigan yetakchi ta’lim muassasasi rahbarining tirishqoqligi butun muassasaning yetakchilik ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qila olmaydi, chunki bunday muassasadagi yetakchilik sifatlarining shakllanish jarayoni yakunlanmagan hisoblanadi.

Shaxsning ehtiyojli-motivatsion sohasining tavsifi pedagogik faoliyat va kasbiy manfaatlarning yetakchi motivlarini aniqlashni ko‘zda tutadi. Intellektual komponent zakovat darajasi, dunyoqarashning kengligi, uzluksiz mustaqil ta’lim olish qobiliyatini baholashni o‘z ichiga qamrab oladi. Kasbiy sifatlar o‘z ichiga o‘z fanidan chuqur bilimlarni, o‘z bilimlarini o‘quvchiga yetkaza olish ko‘nikmalarini kiritadi. Ekspert baholari bo‘yicha ta’lim yetakchisi sezgir va muloqotchan, rivojlangan tasavvurga ega inson sifatida ifodalanadi. Unga tartib-intizomlilik,

shijoat va yetarlicha emotsional barqarorlik hamda muloqotda ehtiyotkorlik, samimiylik va ishonch xosdir.

Hamshiralik ishi fanini shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning Peer feedback modeli orqali rivojlantirishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim.

1. Ta’lim muassasasi talabaning o‘zi yetarli tayyorlanmagan sohalarida shaxsini rivojlantirish va uning har tomonlama qobiliyatlarini ifodalash uchun sharoitlarni ta’minlashi kerak.

2. O‘quv modullarining keng majmui asosida maqsadli intensiv tayyorgarlik. Maqsadli tayyorgarlik ikki darajali o‘qitishni mujassamlashtirish orqali amalga oshiriladi.

| | |
|---|---|
| **O'ziga xosligi** | Fikr bildirishdagi aniqlik |
| **Konstruktivlik** | Mavzuga oid misollarni keltirishda ketma - ketlik |
| **Asoslanganlik** | O‘z fikrini misollar va manbalar bilan asoslash |
| **Vaqtning ma'lumligi** | Fikr bildirishda vaqtga rioya etish |
| **Muhokamaga ochiqlik** | Guruhdoshlari tomonidan bildirilgan fikr va mulohazalarni eshitish va uni qadrlash |

**2.7-rasm. Hamshiralik ishi fanini o‘qitishda Peer feedback modelini qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari**

3. Faol o‘qitish metodlarini o‘quv vaqtining umumiy hajmidan 60-75 foizgacha yetkazib, ulardan keng foydalanish. Ularga quyidagilar taalluqli: ishbilarmonlik va rolli o‘yinlar, aniq vaziyatlarning tahlili, g‘oyalar auksioni, davra suhbatlari, ijtimoiy-psixologik treninglar, dialog shaklida kichik guruhlarda amaliy mashg‘ulotlar, shaxsiy kompyuterdan foydalanib dasturlashtirilgan o‘qitish.

O‘qitishning faol shakllaridan foydalanish insonning ichki imkoniyatlarini faollashtirishga va o‘yinli vaziyatlarda boshqaruv muammolarini hal etilishini modellashtirishga imkon beradi.

4. Yuqori malakali olimlar, pedagoglar va rahbarlarni jalb etish va o‘qitishni o‘qituvchi shaxsiga yo‘naltirish. Buning uchun ta’lim muassasasida OTM va ilmiy tadqiqot institutlarining eng yaxshi o‘qituvchilari, sport va fan arboblari va boshqalar ishlashlari kerak.

5. Zamonaviy texnik vositalardan, avvalo, shaxsiy kompyuterlar, o‘quv televideniya, audiovizual texnik vositalar, videokameralardan foydalanib o‘quv jarayonini avtomatlashtirish, texnik vositalarni qo‘llash, bir tomondan o‘qituvchilar mehnati sarfini qisqartiradi va o‘quv jarayonini boshqarish faolligini oshiradi, boshqa tomondan amaliy ishda tinglovchilarda texnik vositalardan foydalanishga psixologik to‘siqni bartaraf etishga yordam beradi.

Bo‘lajak hamshiralarda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirish uchun dolzarb hisoblangan tushunchalar: “o‘zini-o‘zi bilish”, “o‘zini-o‘zi boshqarish”, “o‘zini-o‘zi tashkil qilish”, “o‘zini-o‘zi amalga oshirish”, “mustaqil faoliyat”, “o‘zini-o‘zi nazorat qilish”, “o‘zini-o‘zi baholash”, “o‘zini-o‘zi ishontirish”, “o‘zini-o‘zi rivojlantirish”. Hamshiralik ishi fanini shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning Peer feedback modeli orqali rivojlantirishda orqali talaba quyidagi qobiliyatlarga ega bo‘lish lozim:

1) o‘zini-o‘zi bilish, o‘zini, o‘z afzallik va kamchiliklarini yetarlicha yaxshi bilish; o‘zining bilimlari, kasbiy malakalari hamda shaxsiy sifatlarning darajasini bilish;

2) o‘zini-o‘zi aniqlash, muloqotda nima istashini, o‘zining asl ehtiyojlarini aniq bilish, mavjud muammolarini ko‘rish va belgilangan maqsadlarga erishishga nima to‘sqinlik qilishi mumkinligini prognozlash, o‘zi uchun yaqin va istiqboldagi vazifalarni belgilash;

3) o‘zini-o‘zi tashkil qilish, o‘z hayotini, kunlik, haftalik, oylik ishlarini va istiqboldagi ishlarini aniq rejalashtirishni bilish. O‘z kuchi va vaqtidan oqilona foydalana olish. O‘z faoliyatini u nafaqat aniq natijalar beradigan tarzda, balki

faoliyat jarayonidan qoniqish hosil qiladigan tarzda tashkil etish, maqsadga erishish uchun intilish, zarur bo‘lganida autotrening, relaksatsiya usullarini qo‘llab, zo‘riqishni yengish;

4) o‘zini-o‘zi amalga oshirish – bu zarur bo‘lganida o‘z imkoniyatlari doirasida o‘zini namoyon etish ko‘nikmasi. O‘ziga va boshqalarga nimalarga qodir ekanligini isbotlash. Tabiiyki, bunda avvalo o‘zining ijodiy imkoniyatiga tayanish.

5) mustaqil faoliyat – bu tashabbus, mustaqillik, erkinlikni ifodalash ko‘nikmasi hisoblanadi;

6) o‘zini-o‘zi nazorat qilish – bu shaxsning har bir yangi faoliyat turiga nisbatan optimal moslashish ko‘nikmasidir. Ularni qo‘llab o‘z vazifalarini eng kam xatoliklar bilan, ya’ni sifatli va samarali bajarish;

7) o‘zini-o‘zi baholash – bu, avvalo, o‘zining shaxsiy sifatlarini oshirmay va pasaytirmay obyektiv baholash ko‘nikmasi;

8) o‘zini-o‘zi ishontirish – bu o‘zini-o‘zi biror-nimaga ishontirish, bu asosda o‘zini, o‘z xulqini o‘z irodasiga va o‘z aqliga bo‘ysundirish ko‘nikmasi hisoblanadi. Bu o‘zini-o‘zi ishontirish asosida zarur sharoitlarda emotsional-asab zo‘riqishini yengish qobiliyatidir;

9) o‘zini-o‘zi rivojlantirish – bu o‘zining ijodiy, kasbiy va boshqa sifatlarini takomillashtirib, o‘z ustida faol ishlash ko‘nikmasi. Yuqorida sanab o‘tilgan sifatlar bo‘lajak hamshiralarning intellektual-ijodiy kompetentligini rivojlantirish va o‘zini-o‘zi boshqarish imkoniyatlarini yetarlicha to‘liq aks ettiradi.

Shu tariqa, bo‘lajak hamshiraning o‘zini-o‘zi boshqarishga qobiliyati – bu o‘zini-o‘zi bilish, o‘zini-o‘zi aniqlash, o‘zini-o‘zi tashkil qilish, o‘zini-o‘zi amalga oshirish, mustaqil faoliyat, o‘zini-o‘zi nazorat qilish, o‘zini-o‘zi ishontirish, o‘zini-o‘zi rivojlantirish qobiliyatlarini o‘z ichiga oluvchi sifatlar sintezi bo‘lib, ular pedagogga o‘zini faoliyat va muloqotning turli ko‘rinishlarida sifatli va samarali boshqarish imkonini beradi. So‘ngra o‘zini-o‘zi boshqarishga o‘z qobiliyatlarini o‘rganish, baholash uchun ularning rivojlanish darajasini aniqlashga imkon beruvchi usullarni topish zarurdir. O‘zini-o‘zi boshqarishga qobiliyatlarning turini ham aniqlash zarur.

O‘zini-o‘zi boshqarishga qobiliyatlarning turi yuqorida sanab o‘tilgan to‘qqizta komponentlardan qaysi biri ko‘proq rivojlanganligi bo‘yicha aniqlanishi mumkin.

Qobiliyat, iste’dod, komillik, odamdagi intiluvchanlik ijodkorlik va intellektuallik bilan uzviy bog‘liq. Intiluvchanlik — istak, xohish, mayl, qiziqish, xobbi va boshqalar o‘zini ochiq yoki yashirin holda ko‘rsatadi. Mustaqil fikr yurita oladigan shaxs, jamiyat manfaati uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma’naviy boyliklar yaratishga, hayotni samarali manfaat va maqsadga muvofiq istiqbolli tomonga o‘zgartirishga qodir komil insonni ijtimoiy muhitning ham obyekti, ham subyekti sifatida o‘rganish ijtimoiy fanlarning eng muhim ilmiy muammolaridan biridir.

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, tabiat tomonidan berilgan qobiliyat nishonalariga tayangandagina odamdagi ma’lum xossa va sifatlarning rivojlanib borishini ta’minlash mumkin. Bunda yangi asrning tezkor o‘zgarishlarida, globallashuv va axborotlashuv jarayonlarida ijtimoiy muhit ijodiy innovatsion rivojlanish darajasiga tayanadi. Yaratilayotgan ijtimoiy muhit samarasi irsiylik bilan shartlangan ta’lim va tarbiyada ko‘zga tashlanadi. Bu, o‘z navbatida, shaxsiy g‘alaba va ijtimoiy g‘alaba nashidasi: “Men buni qildim”, “Men qodirman, qobilman” bilan undagi motivatsiya va rag‘bat oqibatining birgalikdagi ifodasidir. Endilikda yoshlarning intellektual salohiyatlarini, xulqlarini, motivatsiyasini, emotsionallikni, ijtimoiy xulqning rivojini va boshqa muhim sifatlarini shakllantirishda akmeologik qarashlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bularning rivojlanishi esa, albatta, ijtimoiy shaxsni o‘rab turgan ijtimoiy-axloqiy muhitga chambarchas bog‘liq.




**2.2.1-rasm. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali Hamshiralik ishi faninig o‘qitishning metodik ta’minotini takomillashtirish modeli**

Bo‘lajak hamshiralarda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni Peer feedback modeli orqali rivojlantirish amaliy mashg‘ulotlarida qo‘llash bilan bog‘liq o‘quv loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishga jalb etish yaxshi samara beradi. Aksiologik yondashuv asosida o‘quv loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish orqali akmeologik motivatsiyaning sezilarli darajada rivojlanishiga erishish mumkin. Loyihalarni tayyorlash bo‘lajak hamshiralarda ko‘proq mustaqil ishlashni talab etadi.

Bu modelning maqsadi shundan iboratki, bunda yuqori darajali kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lgan tibbiyot xodimini tayyorlash ko‘zda tutilgan. Model bir qancha xususiyatlarni o‘z ichiga oladi:

Birinchisi. Ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshirish ta’lim natijasiga urg‘u beradigan yondashuvdir. Bunda ta’lim natijasi o‘zlashtirilgan axborotlar yig‘indisi emas, balki shaxsni turli muammoli vaziyatlarda harakat qilish qobiliyatidan iborat bo‘ladi.

Ikkinchisi. O‘qitishning metodik ta’minotlari hozirgi kunda innovatsiyalarni tatbiq etish uchun kreativlikka bog‘liq bo‘lgan innovatsion ta’lim texnologiyalariga asoslangan kasbiy kompetentli tibbiyot xodimi faoliyatidagi ijodiy qobiliyatdir.

Uchinchisi. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan “Hamshiralik ishi texnikasi” o‘quv qo‘llanmasi hamda “Professional ta’limda ta’lim texnologiyasi” o‘quv-uslubiy qo‘llanmalaridan foydalanish asosida o‘quv-bilish kompetensiyalari rivojlantirilib boriladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali Hamshiralik ishi fanining o‘qitishning metodik ta’minotini takomillashtirish modeli bo‘lajak tibbiyot xodimining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, Hamshiralik ishi fanini shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning eng optimal Peer feedback modeli orqali rivojlantirishda ko‘proq ularning intellektini rivojlantirish, aqliy mushohadakorligiga urg‘u berish, jismoniy mashg‘ulotlarga kreativ yondashishga imkoniyat yaratish hamda aql va jismoniy imkoniyatlarini uyg‘unlashtirish metodikasiga tayanish zarurligi kelib chiqadi.

“Peer feedback” modeli asosida hamshiralik ishi fanini shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali o‘qitishda talabalarni ko‘proq ijodiy topshiriqlar bilan shug‘ullantirish lozim va bu ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini o‘stiradi.

Bo‘lajak hamshiralarni “Peer feedback” modeli asosida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali o‘qitishda “o‘zini-o‘zi bilish”, “o‘zini-o‘zi boshqarish”, “o‘zini-o‘zi tashkil qilish”, “o‘zini-o‘zi amalga oshirish”, “mustaqil faoliyat”, “o‘zini-o‘zi nazorat qilish”, “o‘zini-o‘zi baholash”, “o‘zini-o‘zi ishontirish”, “o‘zini-o‘zi rivojlantirish” muhim hisoblanadi.

# III-BOB. SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM ORQALI HAMSHIRALIK ISHI FANINING O‘QITISHNI RIVOJLANTIRISHGA DOIR TAJRIBA - SINOV ISHLARI NATIJALARI VA UNING SAMARADORLIGI

## § 3.1. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali hamshiralik ishi fanining o‘qitishning metodik ta’minotini takomillashtirish bo‘yicha tajriba sinov ishlarini olib borish

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali Hamshiralik ishi fanining o‘qitishning metodik ta’minotini takomillashtirishga doir bilimlarni rivojlantirish jarayonida qo‘lga kiritilgan natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish, samaradorlik darajasini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shunga ko‘ra, talabalarda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali Hamshiralik ishi fanining o‘qitishning metodik ta’minotini takomillashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik tizim samaradorligini aniqlashning muhim shartlaridan biri – tajriba-sinov ishlarining to‘g‘ri tashkil etilishidir. Tajriba sinov-ishlari ta’kidlovchi, asoslovchi va shakllantiruvchi bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Mazkur bosqichlar asosida oliy ta’lim muassasalari talabalarida Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali Hamshiralik ishi fanining o‘qitishning metodik ta’minotini takomillashtirishning natijadorligi solishtiriladi, tahlil qilinadi va natijalar asosida ilmiy farazlar ilgari suriladi.

Ushbu bobda olib borilgan pedagogik tajriba-sinovlarni shakllantirishning mazmun-mohiyati, usullari hamda yakuniy bosqichdagi samaradorlik natijalari tadqiq qilingan.

Talabalarda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali Hamshiralik ishi fanining o‘qitishning metodik ta’minotini takomillashtirish yuzasidan tajriba-sinov ishlari uchun asoslovchi, shakllantiruvchi va ta’kidlovchi bosqichlari belgilandi.

Tajriba-sinov bazasi sifatida Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti , Andijon davlat tibbiyot instituti va *Toshkent* pediatriya tibbiyot *institutlarining* 131 nafar talabalari tanlab olindi.

Bunda asosan multimediali elektron darslik (multimediali elektron kitob, darajali topshiriqlar to‘plami, ko‘p variantli avtomatlashtirilgan test, analitik-

modellashtirish, konstruktiv-shakllantiruvchi intellektual kompyuter o‘yinlari, videodars, korreksion-diagnostik, virtual detal modellari, glossariy)dan foydalanilib, anketa-so‘rovnoma avtomatlashtirilgan darajalangan ko‘p variantli testlar asosida baholandi.

Tajriba-sinov dasturini tuzishdan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad-tadqiqot konsepsiyasi, ob’ekti, predmeti, vazifalari va ilgari surilgan ilmiy farazlardan kelib chiqqan holda tajriba-sinov ishlari samaradorligini oshirishning amaliy jihatlarini aniqlash va puxta o‘rganish orqali eng maqbul shakl, metod va vositalarini belgilashdan iborat.

Tajriba-sinov ishlari davomida quyidagi pedagogik vazifalar hal qilindi:

1. Tajriba-sinov maydonchalari aniqlandi.

2. Tajriba-sinov muddatlari, bosqichlari belgilandi va har bir bosqichda amalga oshiriladigan xususiy vazifalar aniqlandi.

3. Tajriba-sinov jarayoni ishtirokchilari, ya’ni respondentlar soni belgilab olindi hamda tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi.

4. Respondentlar tajriba-sinov ishlarining amalga oshirilishidan xabardor qilindi.

5. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etuvchi mas’ullar aniqlandi.

6. Tajriba-sinov materiallari sifatida dastlabki ishlanmalar tayyorlandi va uning mazmuni tadqiqot bazasi sifatida Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Kengashlarining yig‘ilishlarida muhokama etildi.

7. “Hamshiralik ishi” turkumiga kiruvchi fanlar dasturining mazkur yo‘nalishdagi pedagogik imkoniyatlari o‘rganildi.

8. Anketa, test, suxbat, intervyu, kuzatish, sosiologik tadqiqot kabi metodlar yordamida Hamshiralik ishi fanini o‘qitishda talabalarning o‘quv bilish faoliyatini takomillashtirish yuzasidan bilimlar rivojlanganligi aniqlandi.

9. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali Hamshiralik ishi fanining o‘qitishning metodik ta’minotini takomillashtirish jarayonida qo‘llaniladigan maqbul shakllar, metodlar vositalar belgilab olindi.

10. Ishlab chiqilgan metodika ta’kidlovchi tajriba-sinov jarayonida sinovdan o‘tkazildi hamda uning natijalari tahlil etildi.

11. Ishlab chiqilgan metodika samaradorligini aniqlashga erishildi. Shu maqsadda tadqiqot ob’ekti hisoblangan tajriba-sinov maydonlarida auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda taqdim etilayotgan metodikadan foydalanildi hamda uning samaradorligi aniqlandi, zarur holatlarda uning mazmuniga o‘zgartirishlar kiritildi.

12. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali Hamshiralik ishi fanining o‘qitishning metodik ta’minotini takomillashtirishga yo‘naltirilgan o‘zgartiruvchi va nazorat qiluvchi tajribalar izchil tarzda tashkil etildi va ularning muvaffaqiyatli kechishini ta’minlovchi shart-sharoitlar yaratildi.

13. Tajriba-sinov ishlarining natijalarini umumlashtiruvchi, ta’kidlovchi, o‘zgartiruvchi, shuningdek, nazorat qiluvchi tajriba ko‘rsatkichlari o‘zaro taqqoslandi, samaradorligi xususida yakuniy xulosa chiqarildi va umumiy natijalar matematik-statistik metod yordamida qayta ishlandi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali Hamshiralik ishi fanining o‘qitishning metodik ta’minotini takomillashtirish bo‘yicha tashkil etilgan tajriba-sinov ishlari quyidagi tamoyillarga muvofiq amalga oshirildi:

– tajriba-sinov ishlarining aniq maqsadga yo‘naltirililganligi;

– tajriba-sinov ishlarining izchilligi, tizimliligi va uzviyligining ta’minlanganligi;

– muammoning nazariy asoslarilari bilan amaliy ishlanmalar orasida o‘zaro aloqadorlikning mavjudligi;

– respondentlarning o‘z imkoniyatlarini erkin ro‘yobga chiqara olishlariga erishilganligi;

– tajriba-sinov ishlarini tashkil etishdan ko‘zlangan asosiy maqsadga erishish uchun qulay pedagogik vaziyatning vujudga keltirilganligi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali Hamshiralik ishi fanining o‘qitishning metodik ta’minotini takomillashtirishga doir bilimlarni rivojlantirishda tajriba-sinov

ishlarining muvaffaqiyati quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish orqali ta’minlandi:

– tajriba-sinov materiallari mazmuni asosiy maqsaddan kelib chiqqan holda tanlanganligi;

– tajriba-sinov materiallariga mos keladigan didaktik vositalar, shakllar, usullar va metodlarning tanlanganligi;

– tajriba-sinov jarayoni ishtirokchilari – respondentlar sonini taqqoslash, qiyoslash imkoniyatini beradigan ko‘rsatkich bo‘la olishiga erishilganligi;

– respondentlarning tajriba-sinov ishlari mazmun-mohiyatidan to‘laqonli tarzda xabardor etilganligi;

– tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishda tadqiqotchi yoki ushbu faoliyatni tashkil etishga ma’sul bo‘lgan yetakchi-pedagog bilan respondentlar o‘rtasida samimiy muloqot hamda o‘zaro hamkorlikning o‘rnatilganligi;

– tajriba-sinov ishlarini yo‘lga qo‘yish maqsadida respondentlar bilan muloqot qila olish imkoniyatining yaratilganligi;

– tajriba-sinov ishlari natijalarining doimiy ravishda umumlashtirib tahlil etilganligi;

– umumiy natijalarni qayta tahlil etish imkoniyatini beradigan matematik-statistik metodlarning aniqlanganligi.

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda quyidagilarga alohida e’tibor qaratildi:

1. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali Hamshiralik ishi fanining o‘qitishning metodik ta’minotini takomillashtirishga bilimlarni takomillashtirish jarayonida talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashuviga erishish.

2. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali Hamshiralik ishi fanining o‘qitishning metodik ta’minotini takomillashtirishda kompleks pedagogik omillarga tayanish.

3. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali Hamshiralik ishi fanining o‘qitishning metodik ta’minotini takomillashtirishning ilmiy asoslarini talabalar tomonidan chuqur o‘zlashtirilishiga erishish.

4. Hamshiralik ishi faniga doir bilimlarni takomillashtirishning tizimli-funksional modeli orqali ijobiy natijalarga erishish.

5. Hamshiralik ishi fanini o‘qitishda talabalarning o‘quv bilish faoliyatiga doir bilimlarni rivojlantirish asosida ilmiy-texnikaviy kreativligini shakllantirishga erishish.

Qo‘yilgan maqsad va vazifalar bilan bog‘liqlikda 2019-yildan boshlab 2022- yilgacha uch bosqichda tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Tajriba-sinov ishlari bosqichlari, maqsadi va metodlari keltirildi.

**3.1.1-jadval**

**Tajriba-sinov ishlari bosqichlari, maqsadi va metodlari**

| Bosqich | Tavsif |
|---|---|
| **I-bosqich (2019-2020 yy)** | **Maqsad:** Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali Hamshiralik ishi fanini o‘qitishnining metodik ta’minotini takomillashtirishga doir bilimlarni rivojlantrishning dastlabki holatini o‘rganish va uni hal etishning samarali yo‘nalishlarini aniqlash |
| | **Metodlari**: analiz va sintez, umumlashtirish, tizimlashtirish; anketa, test, kuzatish; talabalar bilan suhbat o‘tkazish; aniqlovchi eksperiment; matematik statistika metodlari; ma’lumotlarga ishlov berishning grafik metodlari; natijalarga ishlov berishning matematik metodlari. |
| | **Vazifalar**: talabalarning Hamshiralik ishi faniga doir bilimlarni rivojlantirishga tayyorgarlik darajasini aniqlash; texnologik tushunchalar tahlilini har bir talaba kesimida mustaqil izohlash; talabalarning dars mashg‘ulotlarida axborot muhiti hamda innovatsion-ijtimoiy xabarlarga munosabatini kompleks takomillashtirish; talabalarning pedagogik-psixologik holatlarini ijtimoiy-perseptiv nazorat qilish. |
| **II-bosqich (2020-2021 yy)** | **Maqsad:** 1.Shakllantiruvchi tajriba-sinovni o‘tkazish. 2.Tadqiqot farazini aniqlashtirish va tekshirish. 3.Taklif etilgan texnologiya va pedagogik shart-sharoitlarni amalda sinab ko‘rish. |
| | **Metodlari**: talabalar faoliyatini kuzatish; ekspert baholash, anketa, test; shakllantiruvchi eksperiment; matematik-statistik metodlar; |

| | |
|---|---|
| | ma’lumotlarga ishlov berish metodlari; natijalarga ishlov berish metodlari. |
| | **Vazifalar**: talabalarda Hamshiralik ishi faniga doir bilimlarni rivojlantirish texnologiyasi va pedagogik shart-sharoitlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga tadbiq etish; texnologiyani amalga oshirishga doir metodik qoidalarni o‘rnatish; pedagogik shart-sharoitlarning har birini alohida-alohida va yaxlitlikda tajribada sinab ko‘rish; tajiba-sinovning borishi va natijalarini tahlil etish; statistik ishonarli dalillarni olish uchun zarur shart-sharoitlarni aniqlashtirish; eksperimental ma’lumotlarga ishlov berish va qayta tahlil etish, xulosalarga kelish; talabalarda Hamshiralik ishi faniga doir bilimlarni rivojlantirishga doir tavsiyalar ishlab chiqish. |
| **III-bosqich (2021-2022 yy)** | **Maqsad** – eksperimental ma’lumotlarni o‘zlashtirish, ularni tahlil va talqin etish. |
| | **Metodlari:** materiallarni umumlashtirish va tizimlashtirish; natijalarga matematik va statistik ishlov berish metodlari; eksperiment natijalarni ko‘rgazmali taqdim etish metodlari. |
| | **Vazifalar:** tajriba-sinov ishlari jarayonida olingan natijalarga ishlov berish va tizimlashtirish; xulosalarni shakllantirish; ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish; tavsiyalarni amaliyotga tadbiq etish; qo‘lga kiritilgan dalillarning samaradorligini baholash va ulardan amaliy maqsadda kelgusida foydalanish yo‘llarini aniqlashtirish; talabalarda Hamshiralik ishiga doir dunyoqarashni aniqlashtirish, mezonlari va ko‘rsatkichlarini belgilash, tashhis etish metodikasini aniqlashtirish. |

Tajriba-sinov ishlarining natijalarini matematik-statistika usuli bilan qayta ishlash asosida talabalarning tajriba materiallarini o‘zlashtirishdagi samaradorligi haqida xulosalar chiqariladi. Bu guruhlardagi talabalarning bilim va ish-harakat usullarining shakllanganlik darajasidagi farqini aniqlash uchun biz o‘quv materialini o‘zlashtirish darajasi natijalarining statistik tavsifini tuzdik. Shunday qilib, bu

guruhlardagi talabalarning bilim va ko‘nikmalarini past, o‘rta va yuqori kabi baholarni uch mezonli shaklda tanladik.

O‘tkazilgan tajriba ishlarida Hamshiralik ishi fanini o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirishni baholash bir qator olimlarning matematik-statistik ma’lumotlarni qayta ishlab chiqishga oid usullaridan foydalanish orqali o‘rganib chiqildi va tajriba-sinov natijalariga tadbiq qilindi.

Hamshiralik ishi fani bo‘yicha tajriba-sinov ishlari yaxlitlik, obyektivlik, samaradorlik, ilmiylik, talaba shaxsiga insonparvar yondashuv, o‘quv-ilmiy axborotlarning zarurati va yetarli bo‘lishi, ilmiy-metodik maslahatning ko‘p tomonlamaligi, pedagogik tajriba-sinov ishlarini tizimli tashkil etish va baholash metodik mezonlar asosida amalga oshirildi. Quyida mazkur mezonlarga qisqa to‘xtalib o‘tamiz.

**3.1.2-jadval**

**Hamshiralik ishi fanini o‘qitishda talabalarning o‘quv bilish faoliyatini takomillashtirishni baholash mezonlari**

| **Hamshiralik ishi fanini o‘qitishda talabalarning o‘quv bilish faoliyatini takomillashtirishni baholash mezonlari** | | |
|---|---|---|
| **M e z o n l a r** | **Yuqori daraja** | Hamshiralik ishi fanini o‘qitishda talabalarning o‘quv bilish faoliyatini takomillashtirish yuzasidan yetarli darajada bilimlarga ega, Hamshiralik ishi fani bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishga intiladi, olingan bilim va ko‘nikmalarni amalda to‘la namoyon qiladi. |
| | **O‘rta daraja** | Hamshiralik ishi fanini o‘qitishda talabalarning o‘quv bilish faoliyatini takomillashtirish yuzasidan bilimlarga ega, Hamshiralik ishi fani bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishga intiladi, olingan bilim va ko‘nikmalarni amalda ko‘nikmalarini ma’lum darajada namoyon qiladi. |

| | | |
|---|---|---|
| | **Past daraja** | Hamshiralik ishi fanini o‘qitishda talabalarning o‘quv bilish faoliyatini takomillashtirish yuzasidan kam darajada xabardor, Hamshiralik ishi fani ko‘nikmalarini o‘zlashtirishga intilishda sustkashlik qiladi, Hamshiralik ishi fani bo‘yicha ko‘nikmalarga egaligi amalda deyarli namoyon bo‘lmaydi. |

Shuni ta’kidlash kerakki, tajriba-sinov ishlari ilmiy-pedagogik tadqiqotning ajralmas qismi bo‘lib, izlanishlar natijalarining haqqoniyligi, amaliy ahamiyati hamda tatbiqiyligini tasdiqlashning bosh mezoni hisoblanadi. Shunga ko‘ra, tajriba-sinov ishimizning maqsadi olingan natijalarga ko‘ra ta’lim va tarbiya jarayonining aniq muammolari yechimiga oid pedagogik va metodik tavsiyalar, pedagogik innovatsiyalar, ta’lim sifatini oshirishga oid ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish hamda Hamshiralik ishi fanini o‘qitishda talabalarning o‘quv bilish faoliyatini takomillashtirish samaradorligini tekshirishdir.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali Hamshiralik ishi fanini o‘qitishnining metodik ta’minotini takomillashtirishda o‘tkazilgan tajribalar tahlili hamda natijalariga ko‘ra talabalarda fanni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi, amaliy topshiriqlarni mustaqil ravish (o‘qituvchi yordamisiz)da yechimlarini topishga bo‘lgan xohish ortganligi, ularning amaliy ko‘nikmalari va ijodiy fikrlash qobiliyatlari ko‘tarilgani va fandagi amaliy topshiriqlarni bajarishni istovchilar sonining ortganligini va ma’lumotlarni hamda zamonaviy ko‘rinishdagi ma’lumotlar bilan to‘ldirilganligi bunga yaqqol misol bo‘ladi.

Olib borilgan tadqiqotimiz davomida yig‘ilgan barcha ma’lumotlarga statistik ishlov berilib, uning ishonchli ekanligini isbotlash va metodik ishlarimizni o‘quv jarayoniga joriy etish choralari ko‘rildi.

Tajriba avvalidagi guruhlarda ta’lim jarayoni amaldagi namunaviy o‘quv reja va dastur, an’anaviy o‘qitish metodikasi asosida olib borilgan bo‘lsa, tajriba-sinov yakunida zamonaviy multimediali elektron kitoblar, ko‘p variantli darajali testlar, darajali topshiriqlar to‘plami, videodarslardan foydalanilgan holda amalga oshirildi.

Tajriba avvalidagi va tajriba-sinov yakunida guruhlarning natijalari muntazam tahlil etilib, qiyoslanib, tegishli xulosalar chiqarildi. Bu jarayonda bevosita ishtirok etuvchi professor-o‘qituvchilar tomonidan bildirilgan fikr-muloxazalar, takliflar e’tiborga olinib, o‘qitish usuli va metodikasiga tegishli o‘zgartirishlar kiritildi.

Talabalarning Hamshiralik ishi fani bo‘yicha bilimi, ko‘nikma va malakalari amaliy topshiriqlarni mustaqil ravishda yechimini topishlarida, o‘rganilayotgan ob’ekt (shakl, predmet, jarayon, vaziyat)larning mohiyatini tushunib, zaruriy ma’lumotlarni o‘zlashtirishi qobiliyatlari orqali aniqlandi. Talabalarda rivojlangan ijodiy fikrlash qobiliyatlarini va amaliy ishlar ko‘rsatkichlarini baholashda bilimlarni ko‘nikmaga aylanishi, bilimlarni Davlat ta’lim standartlari doirasida tizimliligi va ulardan ijodiy fikrlash, fazoviy tasavvur qilish qobiliyati kabilar mezon sifatida foydalanildi.

Ilmiy-tadqiqotni amalga oshirishda qo‘yilgan vazifaga binoan talabalarda Hamshiralik ishi fanidan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllanganlik statistik tavsifini tuzish nazarda tutilgan yedi. Bu, o‘z navbatida, OTMlarda Oliy hamshiralik ishi yo‘nalishida o‘qitiladigan Hamshiralik ishi fanini o‘qitish bo‘yicha biz yaratgan o‘quv qo‘llanmalar, ko‘p variantli darajali testlar, darajali topshiriqlar to‘plami, videodarslarning samarali yekanligini isbotlash imkonini berdi.

Olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishi bo‘yicha o‘tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlarining talabalar bilim darajasini tajriba avvalida va tajriba yakunida aniqlash hamda solishtirish, tahlil qilish bosqichi professor– o‘qituvchilar va muallif tomonidan muntazam ravishda amalga oshirildi. Jami 131 nafar talaba qatnashdi.

Tajriba va nazorat guruhlari talabalari tomonidan o‘quv materiallarini qay darajada o‘zlashtirganligi haqidagi to‘laroq ma’lumotni ularda hosil bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning to‘laligi, doimiyligi, ta’sirchanligi, ixchamligi kabi sifat ko‘rsatkichlari bera oladi.

O‘tkazilgan tajriba ishlarida o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirishni baholash bir qator olimlarning matematik-statistik ma’lumotlarni qayta ishlab

chiqishga oid usullaridan foydalanish orqali o‘rganib chiqildi va tajriba-sinov natijalariga tadbiq qilindi.

## 3.2.-§ Hamshiralik ishi fanining o‘qitishning metodik ta’minotini takomillashtirish bo‘yicha tajriba sinov ishlarining natijalari va samaradorligi

“Hamshiralik ishi” fanini o‘qitishda multimediali elektron kitob, ko‘p variantli darajali testlar, intellektual kompyuter o‘yini, darajali topshiriqlar to‘plami, videodarsdan foydalanish metodikasiga asoslangan holda ta’lim jarayonini olib borishda talabalarning bilim va ko‘nikmalari natijalari testlar, savollarga berilgan javoblar, amaliy topshiriqlarni bajarishlarida ularning ijobiy yechimini topishlariga, intelektual kompyuter o‘yinida bajarilgan natijalariga qarab aniqlandi. Tajriba-sinovlari ishlari davomida o‘qitish va bilim olish samaradorligining oshishini kuzatdik.

Taklif etilayotgan metodik tizimning samaradorligini aniqlash uchun talabalardan olingan nazorat mashg‘ulotlari va umumlashtiruvchi mashg‘ulotlarning natijalari sifat va miqdor ko‘rsatkichlari bo‘yicha tahlil qilindi.Tajriba-sinov ishlaridan olingan miqdoriy ko‘rsatkichlarning ishonchliligi va ilmiy tadqiqot ishlarida ilgari surilgan farazlarning to‘g‘riligini isbotlash uchun tahlilning matematik statistik usullaridan foydalanildi. Tadqiqot ishida taklif etilgan metodika asosida o‘tkazilgan darslar an’anaviy darslarga nisbatan samarali bo‘lganida tajriba-sinov guruhlari talabalarining o‘zlashtirishi nazorat guruhlari talabalarining nisbatan yuqori bo‘lishi taxmin qilinadi.

Tajriba-sinov bazasi sifatida Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti, Andijon davlat tibbiyot instituti va *Toshkent* pediatriya tibbiyot *institutlarining* 131 nafar talabalari tanlab olindi (3.2.1-jadval).

**3.2.1-jadval.**

**Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali Hamshiralik ishi fanining o‘qitishning metodik ta’minotini takomillashtirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan respondentlarning tajriba va nazorat guruhlariga taqsimlanishi**

| Tajriba-sinov obyektlari | Umumiy respondentlar soni | Tajriba avvalida | Tajriba yakunida |
|---|---|---|---|
| Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti | 75 | 75 | 75 |
| Andijon davlat tibbiyot instituti | 28 | 28 | 28 |
| *Toshkent* pediatriya tibbiyot *instituti* | 28 | 28 | 28 |
| **Jami** | **131** | **131** | **131** |

Yuqorida ta’kidlanganidek, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali Hamshiralik ishi fanining o‘qitishning metodik ta’minotini takomillashtirish bo‘yicha tajriba - sinov ishlari o‘tkazildi. Tajriba avvalidagi va tajriba yakunidagi statistik ko‘rsatkichlarini hisoblash, ularning statistik tahlilini o‘tkazishda matematik statistika usullaridan foydalanildi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali Hamshiralik ishi fanining o‘qitishning metodik ta’minotini takomillashtirish darajasini aniqlashga qaratilgan tajriba avvalgi va tajriba yakunidagi statistik ma’lumotlarda farqlar sezilarli ekanligini ko‘rish mumkin.

**3.2.2-jadval**

